


Raximov N.N.

MUSIQA O'QITISH METODIKASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Raximov N.N.

MUSIQA O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

110000 - Pedagogika
60111300 - Musiqa ta'limi

Toshkent
"METODIST NASHRIYOTI"
2023

UDK : 37.013
BBK: 74.268.43
R 30

Raximov N.N.

**Musiqqa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma – Toshkent:
"METHODIST NASHRIYOTI", 2023, 172 b.**

Ushbu o'quv qo'llanmada Respublika pedagogika sohasi oliy ta'lim muassasalari "Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishida tayyorlanayotgan bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining musiqqa o'qitish metodikasi fanidan kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash kompetensiyalari, o'qitishning asosiy mazmuni va didaktik prinsiplari, bakalavriat talabalarida kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishning nazariy va kasbiy-metodik asoslari, ularni auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlashning samarali shakl, vosita va metodlari, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqqa" fani darslarini tashkil etish va olib borishning metod va usullari o'rin olgan. O'quv qo'llanma Respublikamiz pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi "Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishida pedagogik faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, bakalavriat talabalar, musiqqa ta'limi va tarbiyasi sohasida tadqiqot ishlari olib borayotgan izlanuvchilar, maktab musiqqa o'qituvchilari va boshqa musiqqa pedagogikasi sohasi ixlosmandlariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

U.Yu.Yuldoshev

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Musiqqa nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

R.N.Ergashev

Guliston davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

O'quv qo'llanma Guliston davlat universitetining o'quv-uslubiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan
(Bayonnoma №7 28-fevral 2023 y.).

ISBN 978-9943-6592-2-3

© Raximov N.N., 2023.

© "METHODIST NASHRIYOTI", 2023.

KIRISH

Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari, jumladan uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida amalga oshirilayotgan tub islohatlar etuk malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda xalqaro andozalar talablariga javob beruvchi pedagog kadrlar tayyorlash vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Vaholanki, ta'limning asosiy maqsadi–mustaqil va ijodiy fikrlovchi, yuksak ma'naviyat va madaniyatli, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun har tomonlama rivojlangan, kasbiy-metodik tayyorgarlikka ega bo'lajak musiqqa o'qituvchi-shaxsini tarbiyalash har bir xalq va davlatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini barkamol shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish, ularda ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan musiqani shakllantirishning dasturiy vazifalarini ruyobga chiqaruvchi o'qituvchidan o'ziga xos kasbiy-pedagogik va metodik tayyorgarlik, yuksak ijrochilik mahorati va kasbiy-pedagogik bilim talab etadi.

O'quvchi-yoshlar qalbida nafasat, go'zallik, yuksak estetik his-tuyg'ularni, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish omili bo'lgan musiqqa san'ati, musiqqa mashg'ulotlarining barcha ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ushbu jarayonni davlat ta'lim standartlari darajasida tashkil etish musiqqa o'qituvchisidan etarli darajada kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Umumiy va kasbiy kompetensiya talablariga javob bera oladigan bunday musiqqa o'qituvchisi pedagogika oliy ta'lim muassasalarining "Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichda bakalavr kadrlarini tayyorlash bilan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uni rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish, bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini ilg'or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir.

Bola tarbiyasi va unga murabbiylik, ustozlik qilish sohasida xalqimiz ulkan tajribaga ega. Milliy tarbiyamiz tarixida insoniy go'zallik va komillik g'oyasini Al-Beruniy, Ibn-Sino, Ahmad YAssaviy, Alisher Navoiy, Bobur, Jaloliddin Rumiy ilgari surgan va minglab shogirdlari qalbiga muhrlab ketgan. Ana shunday jahonga mashhur allomalarimizning boy ma'naviy merosi vorisligini sadoqat bilan davom

ettirish, ilm-fan, kadrlar tayyorlash sohalarini yanada takomillashtirishda bo'lajak musiqa o'qituvchisi va uning kasb mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada zamonaviy olimlar tomonidan olib borilayotgan izlanishlar u yoki bu ma'noda tahlil etishni taqqozo etadi.

O'zbek milliy musiqa merosiniig tarixi va nazariyasi masalalari bilan ko'plab olimlar (V.M.Belyaev, T.S.Vyigo, S.P.Galitskaya, N.N.Mironov, YA.B.Pekker, I.R.Rajabov, F.M.Karamatov, O.R.Matyoqubov, E.E.Ramonovskaya, N.S.YAnov-YAnovskaya, T.B.G'afurbekov, O.A.Ibragimov, R.YUnusov, O.Bekov, S.Bekmatov, D.Mullajonov, Q.Panjiev, N.Turg'unova, G'.Xudoev, X.Qurbonov va boshqalar) tomonidan samarali olib borilgan. Ular o'z tadqiqot ishlarida o'zbek halqining milliy musiqa merosi, ularning rang-barang ko'rinishlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishgan.

YOsh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ularni estetik tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni, o'quvchi-yoshlarda musiqani shakllantirish shakl, vosita va metodlari sohasida R.A.Vexolaz, V.S.Virchak, S.M.Dadajonov, E.I.Zamoshina, Q.M.Mamirov, O.Ibrahimov, D.Omonullaev, Z.R.Raximova, H.Nurmatov, F.Xalilov, I.L.Smirmova, R.G'.Qodirov, T.I.Shevchenko, Q.B.Panjiev o'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

SHuningdek, bir qancha pedagog olimlar (N.N.Abutidze, D.Ahmadaliev, S.B.Bushnyakova, Z.X.Gutsalo, N.I.Dadasheva, V.G.Lyosenko, T.F.Ryazanova, T.D.Suslova, R.N.Ergashev, E.I.Yudina, E.P.YAropud va boshqalar) bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolariga tegishli ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Respublika pedagogika sohasi oliy ta'lim muassasalari "Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishida tayyorlanayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqa o'qitish metodikasi fanidan kasbiy-metodik tayyortash bilan bir qatorda milliy musiqa merosi bo'lmish folklor, xalq qo'shiqlari, cholg'u ijrochiligi bo'yicha kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida e'tirof etish mumkin. Mazkur o'quv qo'llamanda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlash hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarida ta'lim-tarbiyaning muvoffaqiyatli amalga oshirishda vositalar, metod va texnologiyalardan samarali foydalanish asoslari yoritilgan.

I BOB. MUSIQA O'QITISH METODIKASI FANINI O'RGANISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI TAJRIBASI

Milliy musiqamiz tarixiga bir nazar

Millatimizning ma'naviy yuksalishi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashni chuqur anglash, qalb bilan his etgan holda keng ko'lamda targ'ibot qilish, va eng muhimi yosh avlodni tarbiyalash izchillikni taqqozo etadi. Bu borada musiqiy qadriyatlarimiz alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, o'zbek halqi musiqasida mansub turfa shaklli kuy-qo'shiqlari-yu, ustoz san'atkorlar ijodi bo'lmish maqomlar xalqimizning chinakkam bebaho ma'naviy boyliklarini tashkil etadi. Zamon musiqiy namunalari avlod ajdodlarimizning qalb qo'rida saqlangan ezgu-niyatlari, orzu-umidlari, nozik hissiy kechinmalari va umuman borliq haqidagi falsafiy mushohadalari o'zining yorqin ifodasini topgan. SHu bois, milliy kuy-taronalarni tinglar ekansiz, ulardan tarannum etilgan "asrlar ovozi", dilrabo ohanglarda mujassam etilgan nozik va yuksak insoniy his tuyg'ular qalbimizni hayajonga soladi va ayni vaqtda ota-bobolarimizdan meros qolib kelayotgan badiiy an'analarimizni qadrlashga undaydi.

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, har tomonlama yetuk, boy, aqliy poklik va jismoniy barqarorlikni mujassamlashtirgan komil insonni tarbiyalab etishtirish maqsad qilib qo'yiladi. Ana shu tarixiy vazifalarni hal qilishning asosiy omili murakkab va ko'p qirrali kompleks tarbiya tizimidan iborat. Milliy musiqamiz, madaniyatimizni har qachongidan chuqurroq va atroflicha o'rganib, uni o'sib kelayotgan yosh avlodga etkazish va targ'ibot qilish biz ijodkor musiqa o'qituvchilari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Insonning ruhiy olami, nozik his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari ijtimoiy faoliyatini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Barkamol ruhiy ko'tarinkilik, ajib his-tuyg'ularni mutanosiblashtirishda milliy musiqamiz, jumladan: maqom, san'atimizning o'rni beqiyos, ulkandir. Ajdodlarimiz asrlar davomida musiqamizning qudratiga tahsinlar o'qiganlar, o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida hayotda undan baxramand bo'lganlar.

Musiqiy jihatdan savodga ega bo'lish o'zining aniq maqsad hamda vazifalariga ega. Buni amalda oshirishda mavjud milliy uslublar muayyan yo'nalishni belgilaydi. Musiqani o'zlashirish, tinglash, ijro etish va undan hayotda foydalanish. Manfaatlar insoniy madaniylik bilan uyg'unlashib ketadi. Xalqimiz yaratgan durdonalaridan biri hisoblangan maqomlar tarbiyada, mehnatda va ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Murg'ak go'dakdan tortib, to nuroniy qariyalargacha san'at ne'matlaridan bahramand bo'ladi. Ertangi kunning yanada porloq bo'lishi uchun kurashadi.

Musiqamamlakatimizda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil sohadir. Endilikda musiqaning jozibali xusnkor ko'lami, uning mavqei yanada kengayadi, jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlanadi. O'quv-tarbiya jarayonida musiqayosh avlodga axloqiy-estetik tarbiya berishning asosi bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jarayonining bir qator jadallashuvi va samaradorligi unga bog'liq.

Buyuk istiqolning dastlabki davonlardan o'tishda, mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda tub islohatlar o'tkazilayotgan bir pallada jamiyatimizda milliy madaniyat va san'at, ma'naviyat va ma'rifat kabi insonparvar hamda taraqqiyparvar omillarga alohida diqqat e'tibor berilmoqda. Bu o'rinda azaliy bebaho qadriyatlarimizni xalqchil udum va an'alarimizni tobora to'laroq tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarimizni, shu jumladan musiqiy merosimizni mufassal o'rgana borish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Uni yosh avlodlar tomonidan ilmiy-amaliy jihatdan o'zlashtirish uchun so'nggi yillarda barcha zaruriy shart-sharoitlar yuzaga keltirilganini e'tirof etish lozim. Kuy, ohang inson ruhidagi ilohiy kayfiyat ifodasi. Muqim asarning g'oyasi, tasavvuri dastlab xayolda paydo bo'lib, so'ngra ijro tufayli sadolanish yo'li bilan jonlanadi, muayyan kuy shakliga aylanadi. Ohang sadosini umri juda qisqa; paydo bo'lishi bilanoq bir zumda nazardan qochadi, g'oyib bo'ladi. Lekin ta'sirli tovush, ohang eshituvchi qalbida iz qoldiradi, zavq uyg'otadi va shu lazzatli holatga qaytadan intilishga da'vat etdi.

Bu jozibani Mavlono Abduraxmon Jomiy juda go'zal ifodalaganlar: "Nag'malar ta'lifotida boshqa hech bir ta'lifotda

uchramaydigan shunday hususiyat borki, ular bir-birlariga mufiq (muloyim) bo'lganda ruhga tez etib borib, huzur baxsh etish bilan uni butunlay chulg'ab o'ziga rom etadi. Lekin ruh undan huzur ola boshlaganda u yo'qlik pardasiga o'ranib, g'oyib bo'ladi. Uning yo'qotilishi umidsizlik hosil qilsa yana umidsizlik kayfiyati tamom bo'lmasdan turib, keyingi paydo bo'lgan nag'ma avvalgi huzurning qaytib kelishini ta'minlaydi va shu tarzda nag'malar ta'lifiy muvofiqlikda o'zaro almashib takrorlanib turadi".

Kuy shavqini saqlab qolishning eng oddiy yo'llaridan biridilda paydo bo'lgan holatni yaqin qalblar bilan baham ko'rish. Agar kuyning dastlabki ohangi qabul qilinsa, befarq qolmasdan ta'sir o'tkazsa, mazkur zavq lazzatini davom ettirish ishtiyoqi uyg'onadi. Ushbu ruhiy holatda ijrochi va eshituvchining qalblari bog'lanib, ular kuydan bir xil ozuq ola boshlaydi, ana shunday his-tuyg'ular tutashuvidan uyg'unlashgan musiqayarayoni yuzaga keladi, va unda ijodkor-yaratuvchiga, eshituvchi esa uning muxlisiga aylanadi. Bu zavq tobora rivojlanib, kuy jumlariga, ular esa o'z navbatida yanada yirikroq birikmalarga aylanib boradi. SHu tariqa birlamchi zarb va ohang zarrachalaridan butun boshli kuy paydo bo'ladi. Ular tutashuvidan yirik asarlar yuzaga keladi. Demak, musiqashunchaki tovushlar majmuasi emas, aksincha, parda va usullarning muvofiqlashgan tizimidir. Eng muhimi, kuy-bu yoqimli tovushlar vositasida ifodalangan ma'no. Ma'nosiz tovush esa shovqin-surondan bo'lak narsa emas, ayniqsa, an'anaga aylangan e'tiborli kuylar negizida shunday chuqur ma'nolar yotadiki, xalq xotirasi ularni mumtoz asarlar sifatida saqlab keladi.

Komil inson tarbiyasida musiqasana'tining o'rni va ahamiyati

O'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lgan musiqasana'ti shaxsni tarbiyalash va kamolga etkazishda muhim vosita sifatida xizmat qilib kelgan. O'zbek xalqi barcha sohalarda ko'p asrlar mobaynida yuzaga kelgan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan boy an'analar sohibidir. Musiqa orqali shaxs ma'naviyatini tarbiyalash ham xalqimizning asosiy an'alaridandir.

An'ana-bu, avlod-dan-avlodga o'tib boradigan va muayyan jamiyat, ijtimoiy guruhlarda uzoq vaqt saqlanadigan madaniy meros elementlaridir. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloqiy normalar, qadriyatlar, g'oyalar, urf-odatlar, marosimlar va shu kabilar an'ana sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday jamiyatda va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan an'analar bor.

An'analarning yuzaga kelishida va saqlanib qolishida o'sha xalqning yashash joyi va turmush tarzi katta ahamiyatga egadir. Xalqimiz o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida hayotning barcha jabhalarida yaqin va uzoq qo'shnilar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib keldilar. Lekin, mavjud tarixiy sharoit madaniyat va turmushning an'anaviy normalaridan chiqib ketishiga imkon bermagan.

Biz hozirgi vaqtda butun dunyo tan oladigan olimlarimiz, tarixiy yodgorliklarimiz, musiqa merosimiz, umumiy qilib aytganda ulkan moddiy va ma'naviy merosimiz bilan faxrlanamiz. Bu merosni o'rganish, hayotga tadbiiq qilish va ko'z qorachig'idek saqlab, keyingi avlodga etkazib berish har birimizning vazifamizdir. SHunga ko'ra madaniyat tarixini bilmay turib, madaniyatli kishi bo'lish mumkin emas.

Madaniyat-jamiyatning, inson ijodiy kuch va qobiliyatlarining tarixan muayyan taraqqiyot darajasi. Kishilarning biror shakldagi hayoti va faoliyatida hamda ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. "Madaniyat" tushunchasi muayyan tarixiy davr, konkret jamiyat, elat va millat hamda faoliyat va hayotning o'ziga xos sohalarini tavsiflash uchun qo'llaniladi.

O'zbek xalqining musiqasi ko'p asrlik tarixga ega. Bugungi O'zbekiston xududida mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyatimiz qadimgi O'rta Osiyo xalqlarining avlodlari yuqori sivilizatsiyaga erishganlaridan dalolat beradi. Bunga misol tariqasida hozirgi kungacha mavjud va saqlanib kelinayotgan tasviriy san'at, SHarq poetik asarlariga ishlangan minatyuralari, tarixiy-me'moriy obidalarni aytib o'tish kifoya. O'rta asrlarda yaratilgan musiqiy risolalar musiqa taraqqiyotining rivojlanishi tarixini tasavvur qilishimiz uchun manba hisoblanadi.

O'zbek xalqi ajdodlarining musiqasi toki X-XI asrlargacha ular

bilan birga yashagan qardosh xalqlar ijodi bilan chambarchas bog'liqdir. SHu davrdan boshlab bu xalqlar yaratgan musiqiy meros keyinchalik musiqaning shakllanishida umumiy asos bo'lib xizmat qildi.

O'rta Osiyo xalqlarining tarixida eramizdan avvalgi VII-IV asrlar o'zining voqealarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Bu davrda urug'chilik jamiyati emirilib madaniy jamiyatga o'tildi. Baqtriya, So'g'diyona va Xorazmda davlatlar paydo bo'ldi, ahmoniyalar harbiy-ma'muriy jihatdan birlashdi. Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek-baqtriya podsholigi vujudga keldi. O'rta Osiyo xalqlari o'z mustaqilliklari uchun mardonavor kurashdilar. Xalq orasidan o'z xalqi ozodligi uchun jonini qurbon qilgan qahramonlar, masalan SHiroqning mislsiz jasorati, vatanga bo'lgan muhabbatni himoya qiluvchi Sak afsonalari bizgacha etib kelgan. Bu davrda epik xarakterli mifologik qahramonlik ustun bo'lgan qadimgi og'zaki musiqali poetik ijod yuzaga keldi. Zo'rovonlik bilan bosib olingan xududlarda yangidan davlatlar paydo bo'ldi. Bu tarixiy jarayonning esa, o'z navbatida, musiqaga ham ta'siri bo'ldi. Eramizning IV asridan boshlab O'rta Osiyoda madaniyat va san'at shu jumladan musiqa san'ati yuksak darajada rivojlana boshladi. Bu davrda butun SHarqda mashhur bo'lgan Nizomiyning "Xisrav va SHirin" dostonida ham tilga olingan yirik sozanda va xonanda Barbad yoki Faxlobodning nomi mashhur bo'ldi. U shonli, tarix va g'alabalar to'g'risida juda ko'plab qo'shiqlarni ijod etgan.

Tarixiy rivojlanish jarayoni turkiy aholining musiqa hayotiga juda katta ta'sir qilib, rang-barang musiqiy yo'nalishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi va VII-VIII asrlarda mahalliy musiqa yo'llari ko'zga yaqqol ko'rinib qoldi. Arablarning (VIII-IX asr) hukmronlik davri O'rta Osiyoda islom dinini majburan qabul qildirilishi bilan xarakterlidir. Bunga qarshi xalq qo'zg'olonlari jumladan (765 yil) Muqanna rahbarligidagi xalq harakati tarixdan ma'lum. Mahalliy ziyolilar ham o'z noroziliklarini yashirincha "shubiiy"lar harakati nomi bilan bildirdilar. Ular mahalliy xalq madaniyatini arablar madaniyatidan ustun qo'yib, o'z asarlarida xalqning "Navro'z", "Mehrjon" (hosil bayrami), "Sada" (bahorga o'tish yanvar-fevral) an'anaviy bayramlarini kuyladilar.

Arablar mahalliy aholidan ko'plab musiqalarni o'rgandilar. Buni A.Isfaxoniyning arab tilida yozgan "Qo'shiqlar kitobi"ga kiritilgan musiqalar guvohlik beradi. Bunga misol tariqasida arab qo'shiqchilaridan Musadjiq, Ibn Muhrizlarni keltirish mumkin. Ular O'rta Osiyo qo'shiqchilaridan o'rgangan musiqalari orqali arab baytlarini qo'shiqqa solib kuylaganlar.

Hokimiyat Samoniylar qo'liga o'tgandan keyin O'rta Osiy yuz yil mobaynida hech qanday chet el bosqinchilari hujumiga duch kelmadi va bu davrda mamlakat xo'jaligi va madaniyatining rivojlanishiga imkon yaratildi. Musiqamiz tarixning rivojlanish jarayonida o'zining rang-barang janrlariga boyidi va kishilar hayotining ajralmas bir bo'lagi sifatida avloddan-avlodga o'tdi va bizgacha etib keldi.

Musiqaning insonga ta'siri va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida eramizdan oldingi IV asrdayoq grek faylosufi Platon shunday degan edi: "Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atdir. Zeroki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, ritm va garmoniya qalbga hammadan chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etadi, uni ko'rkam qiladi, aks holda, uning teskarisi bo'lib chiqadi". Uning shogirdi Aristotel (Arastu) bu fikrni quvvatlab: "Musiqasi kishi ruhining axloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarni tarbiyalaydigan predmetlardan biri bo'lib xizmat qilmog'i lozim" deydi. Haqiqatdan ham musiqasi san'ati har qanday kishilik jamiyatida tarbiya vositasi bo'lib xizmat qildi. Bu fikrni o'rta asrlardagi fanning va madaniyatning gullab yashnashi yana bir bor tasdiqlaydi.

O'rta Osiyolik mashhur qomusiy olim Abu Nasr Muhammad al-Farobiyning musiqasi olamida olib borgan tadqiqotlari juda katta ilmiy ahamiyatga egadir. U o'rta asrlarda matematik fanlar qatoriga kirgan musiqasi nazariyasiga asos solganlardan biridir. U yozib qoldirgan "Kitob ul-musiqiy al-Kabir", "Qalam fi-l-musiqiy" hamda "Kitob fi-ixso-al-ulum va ta'rif" kabi asarlarida musiqasi fani va madaniyati haqida yozganlari hozirgi vaqtda ham bu sohadagi qilinayotgan tadqiqotlarga o'zining ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Abu Nasr Muhammad al-Farobiy musiqaning shaxs shakllanishiga ta'sirini quyidagicha bayon etadi: "Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga

keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga etkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir".

Farobiy tovushlarning xarakteriga ko'ra musiqasi asboblari xilma xil rol o'ynaganini ko'rsatib o'tadi: "Janglarga mo'ljallangan cholg'u asboblari mavjud, ularning ovozlari baland va keskin. Ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'u asboblari bor. Ayrimlarning tovushi keskin va hazin bo'ladi: bir so'z bilan aytganda ular shunchalik ko'p; shunchalik xilma-xilki, hammasini sanab o'tish qiyin". U musiqasi asboblarning tovushqatorini ham mukammal o'rgandi. Ayniqsa Xuroson tanburiga alohida e'tibor berdi. Bu shuni ko'rsatib turibdiki, o'sha davrda mahalliy musiqasi asboblarning ahamiyati juda katta bo'lgan va musiqasi bilan shug'ullanuvchilarni befarq qoldirmagan. Chunki, arfa, ud tipidagi torli hamda puflab chalinadigan nayga o'xshash asboblari va chang, ud, doira kabi musiqiy cholg'ular keng tarqalgan edi. XI asr feodal jamiyati musiqasi hayotidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan "Qobusnoma" ("Kaykovus kitobi") adabiyotning ajoyib yodgorligi hisoblanadi.

Kaykovus XI asrda G'azna shahrida yashagan Sulton Mahmud saroyidagi musiqachilarning xulq-atvori haqida jumladan shunday deydi: "...agar hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamma vaqt o'zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirin so'z bo'l, o'z ishingasi mashg'ul bo'l, qo'pol so'z, qovog'i soliq bo'lmagin. Hamma vaqt og'ir yo'l (maqom)larni chalaverma va hamma vaqt engil yo'llarni ham chalaverma, chunki, yo'lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir-biriga muvofiq emas, chunki xalq xilma-xildir. SHuning uchun (musiqasi) ilmining ustodlari musiqasi asboblari shunday tartib berganlarki, avval podshohlar majlisi uchun xisravona dostonlari tuzganlari, undan keyin vaznsiz bir og'ir yo'l tuzdilarki, uni ikki musiqasi bilan aytsa bo'ladi, bunga og'ir yo'l deb ot qo'ydilar. Bu yo'l keksalarning va o'qigan odamlarning tabiatiga mos keladi. Bu yo'lni shunday qavm uchun yaratdilar. So'ngra (ustodlari) ko'rdilarkim, xalqning hammasi qari va jiddiy kishilari emas. SHuning uchun moslab bir yo'l ishlab chiqdilar. So'ngra engilroq

vaznli she'rlar uchun engil yo'llar tuzdilar, bularga "hafif" deb nom qo'ydilar, og'ir yo'ldan so'ng bu hafif yo'lni chaldilar, bundan qarilar ham, yigitlar ham bahramand bo'lsinlar deb o'yladilar. So'ngra yosh bolalar va yoqimli tabiatli odamlar bebahra qoldilar. Bu qavm uchun taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar, chunki hamma vaznlarning orasida taronadan yoqimli vazn yo'qdir".

Kaykovusning bu kitobida berilgan bayon mazmunidan ko'rinib turibdiki, musiqa yo'llari kishilik jamiyatining IX-X asrlaridayoq aniq bo'lib, bir-biridan farq qila boshladi. Har xil musiqa janrlarining yuzaga kelishida va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishidagi asosiy sabablardan bu: kishilar yoshlarining xilma-xilligi, ular xarakter xususiyatlarining rang-barangligi va ularning bu musiqa san'atiga bo'lgan munosabatlari bo'ldi.

Undan tashqari bu kitobda sozanda va xonandalarning musiqiy ta'lim va tarbiyasi haqida ham qimmatli maslahatlar berilgan. "Majlisda o'tirgan vaqtingda majlis ahliga qara, agar eshituvchi qizil yuzlik, mosh-guruch soqol bo'lsa, (cholg'u ijrochiligining) ikkinchi torda chalgil, agar sariq yuzli bo'lsa, (musiqani) bum torida chalgil, agar qora yuzli, savdoyi, oriq bo'lsa, ko'proq (musiqani) uch torida chalgil, agar badani oq va semiz hamda pilchillagan nam bo'lsa, yo'g'on torda chalgil. CHunki, rudni (cholg'u ijrochiligi) odamning to'rt tabiati uchun muhayyo qildilar. Har bir qo'shiqni vaznsiz o'rganmagil, vaznsiz tarona hamda g'azal yozmagil. Kuylagan vaqtingda qo'shig'ing boshqa joydan, sozing boshqa joydan bo'lmasin. Har bir qo'shiqni boshqa bir ma'no bilan aytmagil. SHE'r va g'azalni ko'p yod bilgil va har turli she'r yozishni bilgil. Inchunin hijron, vasl, pand-nasihati, malomat, rad qilish, norozilik, rizolik, vafo, yovuzlik, xayr-sahovat, tuhfa berish, zavq-shavq va shikoyat to'g'risida g'azallar bilgil, Har vaqtning o'ziga munosib g'azallarni o'qigil. Bahorga xazonga munosib, xazonda bahorga munosib, qishda yozga munosib va yozda qishga munosib g'azallarni o'qimagil".

XI asrga kelib, YUSuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" (Baxt keltiruvchi bilim), XII asrda Ahmad YAssaviyning "Devoni hikmat" she'riy shakldagi turkiy didaktik poemalari, XII-XIII asr boshlarida ar-Roziyning musiqa to'g'risidagi risolalari vujudga keldi. XIII asr

mo'g'ullar istilosi davrida madaniyatning rivoji bir muncha susaydi. Amir Temurning buyuk davlat bunyod qilishi bilan madaniyat yana yuksakliklarga qarab rivojlana boshladi. Bu davrga kelib, Temur va temuriylar xukmronlik qilgan buyuk davlatning poytaxti Samarqand va sohibquronning ona shahri Kesh (SHahrisabz) gullab-yashnadi. Temur bosib olgan davlatlardan har xil hunarmandlarni, shu jumladan musiqachilarni ham keltirgan edi. Temur saroyida o'tkaziladigan har qanday dabdabali marosimlar musiqa jo'rligida o'tkazilgan. Mullo Salohiddin ibn mullo Aloiddin xoja Eshon (Salohiddin Toshkandiy) qalamiga mansub bo'lgan "Temurnoma"da Temurning har bir janga kirish oldidan, g'alaba qilib qaytgan paytlarida: "karnay", "nog'ara", "borabon"lar bilan kuzatish va kutib olish bir necha marta qayd qilinadi. YAna Hofizi Abru shunday yozadi: "Xushovoz xofizlar va shirinnavoz sozandalar esa fors namunalari, arab ohanglari, turkiy an'analar, mo'g'il ovozlari, xitoyliklar (qo'shiq aytish) qonunlar va oltoyliklar o'lchovlari asosida kuy chalib, qo'shiq aytar edilar". Xalq qo'shiqlari va epik dostonlaridan iborat bo'lgan xilma-xil kuylarni SHarofiddin Ali YAZdiy o'zining "Zafarnoma" asarida ta'kidlaganligi ham ma'lum. Taniqli olim va musiqachi Abulqodir o'zining madhiya xarakteridagi "Mayatayn" nomli musiqiy risolasida tarje', peshrav, va boshqa bir qator bizgacha etib kelgan musiqa janrlarini eslatib o'tadi.

XI asrning ikkinchi yarmiga kelib, Samarqand o'zining madaniy mavqeiini Hirotga berib qo'ydi. Hirotga adabiyot va san'at-arxitektura, rassomchilik, musiqa yuksaldi. Bu erda madaniy hayotning gullab-yashnashi Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy o'zining "Sabbai sayyor", "Majolisun nafois", "Mezon-ul-afson", "Mahbub-ul-qulub", "Xamsa" nomli asarlarida o'zining musiqiy-estetik qarashlarini bayon qilib, musiqa sohasida katta ilmga ega ekanligini namoyon qilgan.

Musiqa bilan adabiyotning hamqadamligi shu misolda yaqqol ko'rinadiki, jahon klassiklarining juda ko'pchiligi yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratishlari bilan bir qatorda musiqa bilan ham shug'ullanganlar, biror-bir cholg'u ijrochiligida

chalishni bilganlar. Masalan, Abu Abdullo Rudakiy ud chalishda, Abul Qosim Firdavsiy chang, barbad chalishda, Nosir Xisrav g'ijjak chalishda shuhrat qozonganlar. Darvesh Alining ma'lumot berishicha Mirzo Ulug'bek, Husain Boyqaro, Alisher Navoiy musiqada yangi yo'llar ixtiro qilganlar.

Ko'rinib turibdiki, A.Navoiyga qadar SHarq, shuningdek Xuroson va Movarounahr xalqlari adabiyot bilan bir qatorda musiqa bilan ham shug'ullanganlar. Navoiydan bizgacha musiqa haqida biror-bir risola etib kelmagan bo'lsada, uning musiqa haqidagi fikr va o'ylari barcha asarlarida tarqoq holda singdirilgan.

A.Navoiyning musiqa bilan adabiyotning birligi haqidagi fikri "Saddi Iskandariy" dostonining kirish qismida, doston syujetini yozishga kirishishdan oldin ifodalangan. Ulug' adib "Xamsa"ning oxirgi dostonini yozishga kirishishdan oldin mug'anniyga murojaat qildi va undan ilhomini jo'shtirish va yangi badiiy tuyg'ularni uyg'otishga yordam so'raydi. Bu bilan Navoiy musiqaning insonga bo'lgan ta'siri qanchalik kuchliligini juda yaxshi tushunganligining guvohi bo'lamiz.

O'sha davrda har bir adib musiqa bilan shug'ullanishi, biror cholg'u ijrochiligini chalishni bilishi, musiqa haqida risola yozishi lozim edi. Navoiy "Majolisun-nafois"da ko'pgina adiblarga baho berar ekan, ularning ko'pchiligida manashu xususiyatning borligini aytadi.

SHoir "Mahbub-ul-qulub"da musiqaning jozibali, sehrli tovushi haqida fikr yuritib, uning kayfiyatini ko'tarishida nechog'lik ta'sir etishi, kundalik hayotda zarur ekanligini ta'kidlaganini ko'ramiz: "Xushxon mug'anniydin dard ahlining o'ti tezdur, agar malohati bo'lsa hol ahliga rustohezdur. Har mug'anniyki, dardmandonaroq nag'ma chekar, aning zahmasi yurakka korsarroq tegar".

Navoiyning bu so'zidan ko'rinib turibdiki, u yoqimli kuy va xushovoz xonandani yoqlamoqda. Demak, faqat samimiyat, yuksak nafasat bilan yaratilgan kuygina kishi ruhining ozigi bo'la oladi.

Navoiy hamisha hayotiy san'at tarafdori bo'lgan va anashu san'at vakillarini qo'llab-quvvatlagan. U fikrini bayon qilib, qo'shiq xalqqa xizmat qilishi kerak deydi. Navoiy musiqa va uning

hayotdagi zaruriyati va mohiyatini tushintirish bilan cheklanib qolmasdan, adabiy asarlarni keng ommaga tushinarli qilib etkazishni talab qilganidek, musiqaga ham puxta sermazzun asarlar yaratish tarafdori bo'lgan.

Ulug' adib "Xamsatul-mutaxayyirin"da shunday yuksak talablarga javob bera oladigan musiqiy risolalar bitilishini zamonasining ko'zga ko'ringan musiqa bilimdonlari Mir Murgoz, Xoja SHahobiddin, Abdulla Marvorid, Qulmuhammad Udiy va boshqalarga topshirganini yozadi. Lekin, bu olimlarning risolalari Navoiyni qoniqtirmaydi. Oqibatda, u har tomonlama etuk musiqa risolasini bitishni ustoz Abdurahmon Jomiydan iltimos qiladi. Risola tugallangach Navoiy uni ko'rib, behad xursand bo'ladi va ustozining bu ulkan ishidan quvonib, "bu fanda andoq munakkah va mufid risola yo'qtur" deydi.

Alisher Navoiy yuqorida nomlari zikr etilgan sozandalar, musiqashunoslardan tashqari ko'plab musiqa ahliga baho beradi. Anashulardan biri barkamol olim, musiqashunos, xonanda, o'z davrining etuk paxlavoni Paxlavon Mahmuddir. Navoiy unga atab "Holati Paxlavon Muhammad" nomli asar yozadi. U o'z asarida Paxlavon Mahmudning klassik musiqachilikning naqsh, so'fiya, amal, jir, chorzarb maqomlarini zamonasining xushxonlardan ham yaxshi kuylaganligini va musiqiy risolalar ham yozganligini aytadi. Navoiy Pahlavon Mahmudning "chorgoh" amalda kuylashini maqtab "Xuroson mulkida, balki Samarqand va Iroq hamul ishni bilmas ko'yanda yo'qtur" deydi.

Alisher Navoiy oddiy, mehnatkash orasidan chiqqan, musiqashunos Sohib Balxiy haqida ham ma'lumot berib, o'sha davr sozanda va musiqashunosi Jo'gi Mirzo majlisida, o'zining «chorgoh»ini shunday mohirlik bilan ijro etganki, bu o'tirganlarda juda katta taassurot qoldirganligi haqida ham ma'lumot beradi.

Alisher Navoiy o'zining asarlarida o'sha davr musiqa va musiqashunoslariga ulkan hissa qo'shgan ko'plab san'atkorlarning nomini keltirib, ularni tarix sahifalarida abadiy qoldirdi. Bular davrning yirik musiqashunosi, ud va g'ijjak chalishda mohir, musiqa risola muallifi Qulmuhammad Udiy, "Aslul-vasl" musiqa risolasining muallifi bu Alishoh, Navoiyning tog'asi, adib, musiqa bilimdoni, "G'aribiy" taxallusi bilan she'rlar yozgan Muhammad Ali,

adabiy yig'inlar, bazmlar, san'at davrlarining "guli sari sabot"lari, hofizlar: Basir, Mirvafo, Hasanali, Mahmud Ayshiy, Hasan Noyi, Ahmad G'ijjakiy, Ali Tanburiy, Hoji Kaxatij Noyi va boshqalar.

Navoiy musiqaga yuksak e'tibor bilan qarar ekan, uning rivojiga arzugilik hissa qo'shdi. U zamondoshi va ustozlari, faylasuf va shoir, o'z musiqiy risolasi bilan Navoiyning yuksak bahosiga sazovor bo'lgan Abdurahmon Jomiy "Risolai dar ilmi musiqa" (Musiqi ilmi haqida traktat) nomli musiqiy risolasida musiqiy ritm, kompozitsiya, lad nisbatlari masalalarini ko'rib chiqdi. Jomiyning "Musiqiy ilmi haqida traktat" nomli risolasi nazariy ahamiyatga ega bo'lib, musiqa san'atining muhim muammolarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. U musiqaning katta psixologik ahamiyatini, insonga qayg'u yoki quvonch, tushkunlik yoki umid singari turli-tuman kayfiyat hosil qilishini aytadi. "SHunday bo'ladiki - deb yozadi Jomiy "Risolai musiqiy" asarida: -dilning qayg'u yoki quvonch, ma'yuslik yoki umid, tushkunlik yoki ko'tarinkilik kabi eng mahfiy holatlaridan biri, tovushni o'z rangiga o'ragan holda unga ta'sir etadi. SHu tufayli bu mahfiy holatdan ogoh bo'ladi va undan alohida lazzat oladi."

Yana bizgacha etib kelgan mashhur musiqa risolalaridan biri, XVII asrda yaratilgan Darvish Alining "Risolai musiqiy" (Musiqi risolasi) asaridir. Muallifning bu risolasi SHarqning buyuk shoirlari va musiqashunoslarining biografiasidan qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu risolada mashhur shoirlar Rudakiy va Firdavsiylar ham o'z davrining buyuk musiqachilari bo'lganliklari aytilgan. Bundan tashqari, iste'dodli musiqachi, yangi ritmik jilolar kiritgan, mavlono Mir G'uruning: ajoyib musiqachi, musiqiy o'lchov va davrlar haqidagi risolaning muallifi.

Mavlono Najmiddin Kavkabi Buxoriyning va musiqa nazariyasi bilimdoni Said Ahmad bin Mehayri Miroqiylarning ijodlari bilan tanishamiz. Mavlono Kavkabi Buxoriy o'zining "Musiqi haqida traktat" asarida bu fanning boshqa fanlardan farqini, afzallik tomonlarini, san'at turlari ichida esa, uning alohida o'rnini e'tirof qiladi. Kishilar musiqani tushunishlari uchun ruhan pok, u (musiqi) haqida ma'lum darajada bilim va eng yaxshi insoniy xislatlarga ega bo'lishliklarini ta'kidlab, "Musiqi bu haqiqatdan olijanob fan, nafis san'at. Uning sirlari faqat olijanob

kishilarga tushunarli" deydi.

O'zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli nomoyondalaridan Zahriddin Muhammad Bobur O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, jo'xrofiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma"ni bizga ulkan ma'naviy meros qilib qoldirdi. Bobur o'zining qarama-qarshiliklarga to'la, murakkab va qisqa hayoti, urf-odatlari, marosimlari, umumiy qilib aytganda madaniyati bilan yaqindan tanish bo'lgan. O'sha davrda adabiyot bilan musiqaning hamkorligi tufayli shoirlar yozgan g'azallar sozanda va xonandalar tomonidan kuylanib, tezda xalqning orasiga tarqalishi. Boburning ham xalq orasida ham shoh, ham shoir sifatida tanitdi.

Tarixdan malumki, davrning eng mohir sozanda va xonandalari avvalambor, o'z sanatlarini shoh saroylarida namoyish qilar edilar. SHuning uchun ham Bobur hayoti davomida juda ko'plab mohir sozanda va xonandalarning sanatlaridan bahramand bo'lgan va o'z asari "Boburnoma"da ularning ko'plab nomlarini yozib qoldirgan. Ulardan "Xoja Abdullo Marvari, Qul Muhammad Udiy, SHayxiy Noyi, SHoxquliy, Xusayn Udiy, G'ulom SHodiy, Mir Azu, Binoiy Dahlavon Muhammad Busaid" kabi musiqashunos, sozanda va xonandalarning qonun, g'ijjak, ud va nay kabi musiqa asboblari ustalik bilan chalganliklarini va xonandalar klassik musiqachilikning peshrav, naqsh, sang, maqomlarni juda mohirlik bilan ijro etganliklarini tilga oladi.

Yana Bobur bu asarida Badiuzzamon mirzo, Muzaffar mirzo, Jahongir mirzolarining mehmoni bo'lganida bu erda qatnashganlar orasida Hofiz Hoji, Jaloliddin Mahmud, SHodi bacha (G'ulom SHodining inisi), Mirjon Samarqandiy kabi sozanda va xonandalarning qatnashganliklari va mehmonlarini o'z sanatlarini bilan juda xushnud qilganliklarini yozadi.

YUqoridagi malumotlardan ko'rinib turibdiki, XV asrga kelib musiqa sanati o'zining mohir ijrochilariga va turli xil milliy yo'llariga ega bo'lganligini ko'ramiz. Epik xarakterli og'zaki poetik qo'shiqlar, madhiyalar, tarixiy, harbiy g'alabalar va qahramonlik

to'g'risidagi qo'shiqlar, ananaviy bayram va muhabbat qo'shiqlari bu davrda ancha keng tarqalgan ilmiy manbalardan malum. SHuningdek, klassik qo'shiqlarimizning ham ananaviy (peshrav, naqsh, savg, so'fiya, amal, jir kabi) maqom yo'llari yuzaga keldi.

Abdurahmon Jomiy esa, "Risolai musiqa" asarida bu musiqiy ohanglarning tinglovchilargai ta'siri haqida so'z yuritib, uni (musiqa) shu jihatlariga ko'ra 4 kategoriyaga bo'ladi:

- a) shikoyat va jasurlik uyg'otuvchi ohanglar;
- b) xursandchilik va quvonch uyg'otuvchi ohanglar;
- v) qayg'u va mung uyg'otuvchi ohanglar;
- g) g'am va ma'yuslik aralashgan shodlik ham zavq uyg'otuvchi ohanglar.

Bu kategoriyalar hozirga qadar o'z mohiyatini yo'qotgani yo'q. CHunki, har qanday ohang shu kategoriyalardan o'zining o'rnini to'pishi mumkin.

XVI asrdagi o'zaro urushlar O'rta Osiyo xalqlarini parokanda qildi. Ko'plab shahar va qishloqlar vayronaga aylandi. XVI asr boshida SHayboniyxon hokimiyatni o'z qo'lga oldi. XVII-XVIII asrlarga kelib esa, Turkiston hududida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tashkil topdi. Bu jarayon o'zbek xalqining musiqasiga ham tasir qilib, shoir va musiqachilar Buxorodagi SHayboniyxon saroyiga, bir qismi esa Xorazmga ko'chdi. SHu bilan Buxoro va Xorazmda o'zbek va tojik xalqlarining aralash musiqali-poetik ananalari rivojlana boshladi.

XVII asr musiqachisi va nazariyotchisi bo'lgan Darveshali CHangiyning "Risolai musiqiy" asari yaratildi. Bu risola faqatgina musiqa nazariyasiga bag'ishlanmasdan, o'sha davr musiqa ahlining faoliyati haqida muhim malumotlarni ham beradi. Bulardan mavlono Miruruning ajoyib musiqachi, musiqa, musiqiy o'lchov va davrlar haqidagi risolaning angori Mavlono Najmiddin Kavkabi Buxoriy, Mavlono Hasan Kavkabi; musiqa nazariyasi bilimdoni Said Ahmad bin Mehayri Miroqiyularning ijodlari talqini g'oyat puxta.

XVIII asrda kelib chiqishi qadimiy bo'lgan va asrlar osha xalq ananasining elementlari bilan boyigan-"Maqom" ham uzil-kesil tiniqlandi va Buxoro maqomlarining oltitasi (SHashmaqom) vujudga keldi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro

xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi savdo-sotiq va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi. XIX asrning oxirlarida ruslarning O'rta Osiyoni bosib olishi munosabati bilan rus-evropa musiqasi mahalliy xalq musiqasiga ham o'z tasirini ko'rsata boshladi. O'zbek xalqining mashhur shoiri Muqumiy (1859-1903) ham o'zbek musiqaning turli-xil janrlarini rivojiga juda katta hissa qo'shdi. Furqat esa, "Nag'ma va nag'malar va aning asbobi va ul nag'ma tasiri xususida", "Toshkent shahrida bo'lg'on nag'ma bazm xususida", "Royal" nomli sherlarida bu madaniyatdan (musiqadan) juda tasirlanganini kuchli hayajon bilan yozadi.

XIX-XX asr o'zbek musiqasi ta'limi tizimidagi islohotlar

Tariximizdagi manbalarning xabar berishicha, o'lkamizga rus-evropa millatiga mansub ko'plab musiqashunoslar, sozanda va xonandalar ham keldilar. Rus kompozitorlari, musiqashunoslari N.N.Mironov, V.A. Uspenskiy, E.E.Ramanovskaya va boshqalar xalq qo'shiqlarini yig'ishda faol ishtirok etdilar. Ular tomonidan ko'plab xalq qo'shiq va kuylari to'plandi va yozib olindi. Buxoro maqomlarini yozib nashr qildirishda (1924) V.A.Uspenskiyning xizmatlari katta bo'ldi. E.E.Ramanovskaya va yosh o'zbek musiqashunosi I.Akbarovlar Xorazm maqomlarini to'pladilar. Ulardan so'ng F.M.Karamatov, T.S.Vызgo, YU.Rajabiylar ham o'zbek musiqasi muammolarini tadqiq qilish bilan shug'ullandilar.

O'zbek xalq musiqa merosi ham xalq ijodining boshqa sohalari kabi mehnatkashlar fikr-o'yi, orzu-umidlari, axloqi, turmushi va ozodlikka intilishini ifodalaydi. Uning mavzu xilma-xilligi, janriy bo'linishlari va hayotda tutgan o'rni ham anashunga bog'liqdir.

Hozirgi kunda musiqa sanatining terma, lapar, yalla, qo'shiq, katta ashula, doston, maqom va shu kabi ulkan milliy musiqa janrlari mavjud. Bu milliy musiqa sanatin nazariy tomonidan: F.M.Karamatov, I.R.Rajabov, T.S.Vo'zgo, YU.Rajabiy, T.B.G'ofurbekov, R.S.Abdullaev, K.Alimboev, O.R.Veksler, S.Galitsskaya, YU.Plaxov, D.Rashidova O.R.Matyoqubov, O.A.Ibrogimov, O.Bekov, N.Toshtemirov, D.Mullajonov, Q.Panjiev, G'.Xudoev, N.Turg'unova va boshqa ko'plab musiqashunoslar o'rganganlar.

Hozirgi kunda xalqimizning musiqiy merosi YU.Rajabiyning (5 tomlik) "O'zbek xalq musiqasi", (6 tomlik) "SHashmaqom", M.YUsupovning (3 tomlik) "O'zbek xalq musiqasi", F.Karamatovning "O'zbek xalq musiqa merosi" va hokazo shu kabi bir necha xalq kuy va qo'shiqlari to'plamlari, maqomlari to'plab nashr etilgan. Bu asarlarda xalqimiz ruhiga xos hamma xususiyatlar mujassamlashgan sho'x, kuychan, og'ir, vazmin, raqs tipidagi kuy va qo'shiqlarni ko'plab topish mumkin. Bular ichida Ona-vatanni kuylovchi, do'stlikni qadrllovchi, ota-onani ulug'lovchi, boringki, xalqimiz xarakteriga mos barcha insoniy xislatlarni tarannum etuvchi ko'plab asarlar o'rin olgan.

Bu musiqiy meros musiqashunoslar, sozanda va xonandalarni o'z bilim va mahoratlarini an'ana sifatida shogirdlarga o'tkazish yo'li bilan bizgacha etib kelgan. Zamonasining mashhur sozanda va xonandalari shogirdlarini 10-15 yil davomida o'zlari yaratgan maktablarida individual tarzda tarbiyalaganlar. SHogirdlari esa, butunlay ustoz qaramog'ida bo'lib, shu davr mobaynida ustozdan hofizlik va ijrochilik sirlarini, ya'ni nafas olish, improvizatsiya va boshqalarni o'rganganlar. O'qitish asosan og'zaki, ustozning shogirdga ko'p miqdordagi kuy, qo'shiq, g'azal, usullarni o'rgatishidan iborat bo'lgan. Buning barchasini shogird faqat eslab qolishi shart edi. Musiqachilar kasb-hunar uyushmalariga birlashib, unga obro'li ustalar rahbarlik qilgan. Har bir birlashmaning ma'naviy homiysi - "piri" bo'lib, u tarixiy yoki afsonaviy shaxs bo'lgan. Har bir uyushmaning o'z risolasi bo'lib, uning a'zolari shu risola talablariga muvofiq ish yuritganlar. Har bir hunarning piri bo'lganidek, musiqa ahillarining ham "piri" bo'lib, ular shu pirlarga sig'inadilar. Buni hozirgi kunda ham kuzatish mumkin. Chunki, har bir hunar egasidan uning piri kimligi so'ralganda (agar u ustoz ko'rgan bo'lsa) albatta aytib beradi. Saqlanib qolgan urf-odatlar va marosimlarda buni kuzatish mumkin. Masalan, har bir ishni boshlashdan avval, ish paytida va ish tugagach duolar o'qiladi. SHogird ham usta darajasiga etgandan so'ng, ustaga bosh-oyoq sarpo kiygizib, ziyofat qilib berishi, usta esa o'z hunarmandchilik asboblardan birini shogirdiga taqdim qilishi shu hunarning piri arvo'higa xatmi-Qur'on o'qitishi va hokazolar shu kunimizgacha saqlanib

kelmoqda.

Ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek musiqasida o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu, turli xil xalq qo'shiqchilik ijodi, milliy professional musiqa, ko'plab musiqa asboblari yaratilishi bilan xarakterlidir. O'lkamizga kelgan rus musiqashunoslari dastavval musiqiy to'garaklar tashkil qila boshladilar. Bu to'garaklarda milliy musiqa muammolari ham muhokama hilina boshladi. Musiqiy to'garaklar soni ham ko'payib bordi. 1882 yilda birinchi marta Toshkent shahrida o'z ustaviga ega bo'lgan musiqa jamiyati tashkil qilindi. Lekin, tashkil qilingan to'garaklar va jamiyatlarning aksariyati Evropa musiqasini targ'ib qilish bilan shug'ullanar edi. Rossiyadan kelgan kishilar orasida harbiylarning ko'pligi tufayli 1880-1890 yillar orasida Turkistonning ko'plab shaharlarida (Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh, Qo'qon, Samarqand) "Harbiy yig'in uyi" tashkil qilinib, u rus aholisi uchun xizmat qila boshladi.

Ma'lumki, XX asr boshlarigacha maktab va madrasalarda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish ko'proq Qur'onni yodlatish bilan amalga oshirilardi. Mahalliy millat bolalariga musiqa tarbiyasi berish past saviyada edi. Qo'qondagi maktablarda o'zbek musiqasining mashhur targ'ibotchisi H.H.Niyoziy, Toshkentda Abdullo Avloniy, Samarqandda Abduqodir SHakuriylar bu borada katta xizmatlar qilishdi.

Xalq ma'rifining otashin kuychisi H.H.Niyoziy /1889-1929/ 1913 yilda Namanganda, 1914 yilda Qo'qonda, 1915 yilda esa Marg'ildonda yangi usuldagi maktablar ochib, kambag'allarga bepul savod o'rgatish bilan shug'ullanganlar. Lekin, uning bu intilishlari ta'qib qilinib, maktablar ishi uzoq davom etmay yopilgan. U o'z maktablari uchun dasturlar va qo'llanmalar yaratish bilan bir qatorda, zamon ta'siri ostida bir necha musiqa asarlarini ijod qildi.

Ilg'or fikrli mahalliy ziyolilardan biri A.Avloniyning faoliyati alohida diqqatga sazovordir. U ham maorifni rivojlantirish, ta'lim-tarbiyani isloh qilish haqida matbuotda o'z maqolalari bilan chiqdi. 1908 yilda A.Avloniy Toshkentning Mirobod mahallasida so'ng esa, Degrez mahallasida yangi usuldagi maktab ochdi. A.Avloniy o'zi tashkil qilgan maktabdagi o'qish darslarida musiqa va qo'shiq bilan ham shug'ullanib, bolalarni gramofon yozuvlari bilan tanishtirgan, bu o'sha davr uchun yangilik edi.

Abdurauf Fitrat ham o'zbek milliy-madaniy hayotida alohida o'rin tutadi. Uning barcha yaratgan asarlari qatorida "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1927 yil) kitobi ham yuksak ilmiy saviyasi bilan ahamiyatli. A.Fitrat bu asarida - SHarq musiqasi "O'n ikki maqom" uzra yuradi, deydi va ularni sanab o'tadi: 1.Rost. 2.Isfaxri. 3.Iros. 4.Kuchak. 5.Buzruk. 6.Hijoz. 7.Buslik. 8.Ushshoq. 9.Husayniy. 10.Zangula. 11.Navo. 12.Rofxoniy. Shuningdek, A.Fitrat bu asarlarida 12 ta doira usullarini ham sanab o'tadi: Hazaj, Ramal, Ufor, Duyak, Foxta-zarb, Turkiy, Muxammas, Saqil, CHanbar, Zarbi-Qadim, Zarbulfatx. Undan tashqari bu asarda tarixiy xonanda va sozandalar, musiqashunoslarning biografiyalari haqida malumotlar berilib, milliy musiqasi asboblarining tuzilishi va temblari haqida malumot berilgan.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng Turkiston o'lkasining maorif va madaniy hayotini yagona mafkuraviy tizimga solishga urinildi va buning tasiri yaqqol ko'rinib qoldi. 1919 yil sentyabr oyida Turkiston respublikasi Xalq Maorifi Kamissarligi tuzildi. Kamissarlikda sanat bo'limi ham bo'lib, u o'z navbatida uch kichik bo'limga: musiqasi (Muzo), teatr (Teo), tasviriy sanat bo'limlariga ajratildi.

Musiqasi bo'limining funksiyasi quyidagilardan iborat bo'ldi: bunda maxsus va umumiy talim beradigan maktablar tarmog'ini tashkil etish va bu maktablarda mahalliy aholi bolalarining musiqasi talimini tashkil etish, turli konsertlar, xor va orkestrlar tashkil etish, o'lka miqiyosida katta yoshdagi kishilar o'rtasida ham musiqani amalga oshirish, evropacha sanat bilan tanishtirish kabi vazifalarni amalga oshirish qo'yilgan.

Kichik bo'lim huzurida erli millat musiqasi seksiyasi bo'lib, u qadimgi xalq musiqasi va qo'shiqlarining bilimdonlari rahbarligida mahalliy musiqasi asboblarini o'rgatadigan Toshkent - eski shahar xalq konservatoriyasini tashkil etildi.

Komissarlikning sanat bo'limi qoshidagi badiiy-etnografik komissiya guruhiga kirgan V.A.Uspenskiy (rahbar), G'ulom Zafariy, E.Maligalis, N.N.Mironovlar O'rta Osiyo xalqlari ijodini o'rganish, musiqasi folklori namunalarini yig'ish va nashr ettirish bilan shug'illandilar.

Joylarda talim va tarbiya sohasidagi juda ko'p muammolarning pedagogik jamoalarning o'zlari hal qilishlari kerak edi. Chunki, fanlar bo'yicha muntazam dasturlar yo'q edi. Musiqasi o'qituvchilari juda kamchilikni tashkil qilar edi. SHuning uchun ko'pchilik maktablarda qo'shiq darslari o'tkazilmas edi. Milliy xususiyatlarni hisobga olgan reja va dasturlar yo'q edi. O'tkaziladigan qo'shiq darslarida inqilobiy she'rlar mashhur o'zbek va rus xalqlari qo'shiqchilarining ohangiga solib kuylanar edi. Musiqasi darslari majruriy dars tarzida kiritilgan bo'lsada ko'p xollarda "bo'sh" soat bo'lib, undan maktab ma'muriyati o'z bilganicha foydalangan. Turkiston maktablari uchun dastlabki o'quv rejalari va dasturlari Maorif Xalq Kamissarligi tomonidan 1919-1920 o'quv yilining boshida yaratildi.

1922 yilda respublika Xalq Maorif Komissarligi tomonidan nashr etilgan I va II bosqich yagona mehnat maktablari dasturining tushuntirish xatida, o'quvchilarni musiqiy tuyg'usiga yaqin bo'lgan xalq kuylari bilan tanishtirish haqida aytilgan va umumiy ««Musiqasi ta'limi»» ni mashg'ulotlari rejasi ilova qilingan bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lingan: bir ovozli halq qo'shiqlarini tinglash va aytish; vokal va cholg'u kuylarining eng yaxshi namunalarini tinglash; yuqori maktablarda Evropa musiqasi adabiyoti va musiqasi taraqqiyoti tarixi bilan tanishish; musiqiy ongni rivojlantirish, musiqasi savodiga o'rgatish. Mazkur dastur O'zbekiston milliy xususiyatlari hisobga olingan holda qayta ishlandi. Lekin, u 50-yillargacha faqat qog'ozdagina qolib ketdi. Buning sababi malakali o'qituvchilarning etishmasligi bo'ldi.

Badiiy havaskorlik xarakterining jadal suratlar bilan o'sishi kun tartibiga qator masalalarni qo'ydi. Chunki, bu to'garaklarning rahbarlari milliy musiqani yaxshi bilar edilar, lekin ular nazariy tomondan maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan edilar. Bu esa, to'garakning ijodiy o'sishini chegaralab qo'yardi. 30-yillarga kelib, xalq ananalarini saqlagan holda zamonaviy ko'p ovozli xor jamoalarini rivojlantirish qat'iy tarzda vazifa qilib qo'yildi. Lekin o'sha yillarda o'lkamizda zo'r berib rus va evropa musiqasining targ'ib qilinishi milliy musiqamizning xalq orasidan siqib chiqarib, ommani bu beqiyos merosdan bebahra qoldirayotgan edi. Shunga qaramay 30-yillarda O'zbekistonda turli janrlardagi kasaba

uyushmasi klubi, bolalar musiqa maktablari hamda musiqa texnikumlari ishlab, milliy musiqa sanatinizning rivojiga oz bo'lsada o'z hissalarini qo'shayotgan edilar.

O'sha davrda O'zbekistonda milliy kadrlar masalasi asosiy muammolardan bo'lib kelmoqda edi. "Oliy maktabning o'quv dasturlari va rejaları to'g'risida" (1932 yil, 19 sentyabr)gi qarorida, jumladan musiqa darsining ham reja va dasturlarini qayta ko'rib chiqish talab qilindi. Bu ishni amalga oshirish uchun olimlar, metodist va o'qituvchilar jalb qilindi.

1924-1925 o'quv yilida O'zbekiston musiqa texnikumi tashkil qilindi va 1930 yilda bu texnikum qoshida o'zbek milliy musiqasining sharq bo'limi ochildi. Bu o'sha davr milliy musiqa taraqqiyoti uchun katta voqea bo'ldi. Chunki, mavjud musiqa maktablarida milliy musiqani o'qitish achinarli holatda edi.

1928 yilda Samarqandda ochildigan Musiqa va xoreografiya instituti milliy musiqamizning atoqli namoyondalaridan Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoilov, Ota Jalil Nosirov, Matyusuf Xarratovlarni bir joyga to'plab, davrining haqiqiy professional o'quv yurtiga aylandi. Keyinchalik bu dargohni musiqamizning atoqli arboblari M.Ashrafiy, M.Burxonov, A.Ramozonov, T.Sodiqov, D.Zokirov, M.Levievlar bitirib chiqdilar.

Dargoh xodimlari tomonidan musiqa folklori va o'zbek musiqa tarixi haqida materiallar to'plandi. O'zbek tilida qo'llanmalar tayyorlanib, xalq qo'shiqlari jumladan, ayollar va bolalar qo'shiqlari o'rganildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasidan "O'zbek klassik musiqasi" (Toshkent, 1927 y), asari, o'zbek tilidagi "O'zbeklarning musiqasi" (Samarqand, 1929 y), "O'zbeklar va SHarqning boshqa xalqlari musiqasi madaniyati obzori" (Samarqand, 1931 y), "Buxoro, Farg'ona, Xiva qo'shiqlari" (Toshkent, 1931 y), "Elementar nazariyasi va musiqa darsligi" kabi adabiyotlar nashr qilindi. To'rt yildan so'ng (1932 y.) bu institut Sanatshunoslik ilmiy-tekshirish institutiga aylantirildi.

Bu yillarda Evropa musiqa izchillik bilan musiqiy talim jarayonini egallab borayotgan ediki, hatto ilg'or pedagoglar ham go'yo "yakka ovozli" xalq musiqasi o'z umrini yashab bo'lgan, endigi vazifa ko'p ovozlilik Evropa musiqasi asosida talim berish kerak, degan noto'g'ri fikrga kelgan edilar. E.Ramanovskaya esa,

o'z fikri asosida Evropa musiqasini o'zbek xalq musiqasi bilan mustahkam aloqada o'rganish zarurligini aytadi.

Milliy kadrlar tayyorlash muammosi 1921 yilda Moskvada tashkil qilingan musiqa-fani Davlat instituti orqali amalga oshirildi. SHu institut musiqa-etnografiya kursini 1925 yilda K.Abdullaev, keyinchalik 1935 yilda Moskva konservatoriyasi huzurida tashkil qilingan birinchi o'zbek opera studiyasini M.Qoriyoqubov, H.Nosirova, M.Ashrafiy, M.Burxonov, S.YUdakov, B.Mirzaev, K.Zokirov, 1939 yilda esa, N.Hoshimov, S.Xo'jaev, E.Jalilovalar bitirishdi. 1934 yilda Toshkentda oliy musiqa maktabi ochildi, u 1936 yilda Toshkent davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Bu yangi dargohda Moskva konservatoriyasini bitirganlardan: A.Sukkerman, YU.A.Fortuganov, G.A.Mushel, YA.B.Pekker, I.F.Kazlovskiy, B.B.Nadejdin, E.E.Ramanovskayalar taklif qilindilar.

1936 yilda o'zbek davlat filarmoniyasining ochildishi bilan o'zbek an'anaviy milliy san'at janrlarining mashhur ijrochilari: Mamat buva, Mamurjon Uzoqov (katta qo'shiq), YUsof SHakarjonov (qiziqchi), Usta Olim Komilov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov kabi yirik ijrochi kuchlar bir joyga yig'ildilar va faoliyat ko'rsatdilar. SHunday qilib, 30-yillarda «Musiqqa ta'limi» va tarbiyasi o'z taraqqiyotining sifat jihatdan yangi davrga ko'chdi.

1941 yil urushning boshlanishi bilan Sobiq Ittifoqning g'arbiy respublikalaridan ko'plab korxonalar va muassasalarning O'zbekistonga ko'chib kelishi munosabati bilan o'sha erlik aholi vakillari ham keldilar. Ular orasida musiqa san'ati nomoyondalarining bo'lganligi tabiiy edi. Bu esa o'z navbatida Respublika madaniy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Urush yillarida yaratilgan musiqa asarlarining mazmunini g'alabaga chorlovchi ohanglar tashkil qildi. Respublika musiqa sanati vakillari ham o'z faoyatlarini front bilan bog'laydilar. Jangchilarni manaviy qo'llab-quvvatlash uchun sanatkorlar guruhleri tuzilib, ular front ichida jangchilarga konsertlar uyushtirdilar. Bunday guruhlardan Tamaraxonim tashkil etgan ansambl, 1942 yilda Faxriddin Sodiqov rahbarligida filarmoniya tomonidan tuzilgan ansambl, opera teatrining artistkasi Halima Nosirova rahbarligidagi konsert brigadalari armiya qismlarida,

gospitallarda davolanayotgan jangchilar huzurida, front ortida o'z chiqishlari bilan g'alabalarga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Urush yillarida barcha janrlar ichida qo'shiq janri birinchi o'ringa chiqdi. Bunga sabab, uning sermazmunligi, ixchamligi, safarbarligi, shaklining oddiyligi edi. SHuning uchun ham, bu yillarda O'zbekistonda juda ko'plab marshlar va mudofa qo'shiqlar yaratildi.

Ko'rinib turibdiki, shuncha qiyinchilikka qaramay, respublikada musiqa hayoti to'xtab qolmadi. O'zbek milliy cholg'u asboblari rekonstruksiya qilish Sanatshunoslik institutidagi V.A.Uspenskiy boshliq amalga oshirilayotgan edi. Bu ishda o'zbek xalq ustalaridan Zafarov, Maxmudov, Sarikovlar ham qatnashdilar. Xalq orasida istemolda bo'lgan cholg'u asboblari negizida dutor, g'ijjak, chang, rubob, tanburlarning xilma-xil turlari yaratildi. 1944 yildan boshlab bu ishga A.I.Petrosyans rahbarlik qila boshladi.

Urushdan keyingi yillarda ham musiqa maorifi sohasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1957 yilda O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti olimlari tomonidan I-IV sinflar uchun qo'shiq dasturi va "Bo'lajak maktabda musiqa" to'plami tayyorlanib, nashr qilindi. 1954 yilda esa, shu instituti xodimlari tomonidan yana ikkita qo'llanma, "I-IV sinflarda qo'shiq o'rgatish metodikasi" va "Maktab qo'shiq bayramlarini o'tkazishni tavsiya qilish" metodik ko'rsatmasi tayyorlandi. Ushbu dastur va qo'llanmalar asosida o'quvchilarga musiqiy ta'lim-tarbiya berish o'qituvchilardan yuqori malaka va bilim talab qilar edi. Pedagogika ilmiy-tekshirish instituti 1958 yilda o'qituvchilar uchun "Maktabda musiqa tarbiyasi" qo'llanmasini va V-VI sinflar uchun qo'shiqlar to'plamini nashrga tayyorladi.

Anchagina ishlar qilingan bo'lsada, hamon maktablardagi ««Musiqqa ta'limi»» va tarbiyasi juda nochor ahvolda edi. Qishloq maktablarida hali ham qo'shiq darsi o'tilmas yoki talabga butunlay javob bermas edi. Buning asosiy sabablaridan biri, musiqiy qobiliyatga va musiqiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarning bilim dargohlariga qabul qilinayotganligi bo'lgan. SHuning uchun ham pedagogika bilim oliygohlari va pedagogika bilim yurtlari oldiga maktabda qo'shiq darsini o'ta oladigan

o'qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. SHu munosabat bilan 1960-61 o'quv yilida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti qoshida "Musiqqa nazariyasi" va "Cholg'u asboblari" kafedralari tashkil qilindi. SHu bilan birgalikda umumiy o'rta ta'lim maktablariga qo'shiq o'qituvchisini tayyorlaydigan fakul'tet ochildi. Bu bilan maktablar uchun oliy malakali mutaxassislarni muntazam ravishda tayyorlash muammosi hal qilindi. Xuddi shuningdek, 60-80 yillar ichida bunday kafedralar boshqa viloyatlar pedagogika institutlarida ham tashkil qilindi.

1961 yillarda O'zbekiston maorif vazirligi o'quv-metodik kabineti va pedagogika ilmiy-tekshirish instituti hamkolikda I-III sinflar uchun musiqadan darsliklar, metodik qo'llanmalar tayyorlandi. D.B.Kabalevskiyning eng katta muvoffaqiyati shunda ediki, u musiqa ta'lim va tarbiyasida "tizim" yaratdi. Bu dasturdagi materiallar asosan musiqaning uchta asosiy sohasi bo'lgan qo'shiq, raqs va marsh asarlaridan iboratdir. Chunki, bular musiqaning juda keng tarqalgan va eng ommaviy sohalari hisoblanadi. Bu dasturdagi materiallar (xoh bir soatlik, darsda bo'lsin, xoh chorakda, xoh yillikda) bir-birini to'ldirib bir-biriga izchil bog'liq holda oddiydan murakkablikka qarab boradi. Bu esa, o'quvchilarga darsni o'zlashtirishda juda qulaylik tug'diradi.

Hozirgi kunga kelib, tadqiqodchi olimlar musiqa darslari mazmunini yanada takomillashtirish, barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim omili bo'lgan musiqa mashg'ulotlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muammolari ustida izlanishlar olib borishmoqda. O'z novbvtida, zamonaviy musiqa o'qituvchilarini maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini ta'minlash oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

"Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalish tizimida kadrlar tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari uchun etuk malakali mutaxassis pedagog kadrlar tayyorlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ustuvor masalalardan biri bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham yuksak

darajadagi zamon talablariga javob bera oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash ta'lim sohasidagi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekistonda bu muammo bilan shug'ulanish XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida yangi va yuqoriroq bosqichiga ko'tarildi. Chunki, bu Turkiston o'lkasiga ruslarning bostirib kelishi bilan bog'liq edi. SHundan keyingi davrda respublikamizda pedagogika fani ko'proq rus-evropa pedagogikasi bilan aralash ravishda rivojlandi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng ta'lim va tarbiya mazmuni tubdan isloh qilindi. Uning negizini milliy va umumbashariy qadriyatlar tashkil eta boshladi. O'qituvchi kadrlar tayyorlash tizimida katta yutuqlarga erishildi.

Pedagogik tadqiqotlarda o'qituvchi kadrlarni tayyorlash va uning kasbiy mahoratiga katta e'tibor berilib, uning shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar har tomonlama o'rganildi.

O'qituvchining jamiyat hayotida tutgan o'rni va fanni o'qitish mahorati bugungi kun talablari darajasida bo'lmog'i lozim.

Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'quvchilar bilan fanni o'zlashtirishdagi o'zaro munosabati yanada murakkab va nozik hisoblanadi. Maktab o'quvchisining hayotida birinchi o'qituvchi alohida o'rin tutadi. Chunki, bolaning bog'chadagi hayoti markazida bo'lgan o'yin faoliyati endi maktabda yangi, jiddiy ya'ni, o'qish faoliyati bilan almashadi. Maktab bola hayotining markazi bo'lib qoladi. O'qituvchi o'qitadi, o'quvchining yutuqlarini baholaydi, qiynalib qolganda yordam beradi. SHuning uchun ham o'qituvchi o'quvchi uchun barcha ishlarda eng yaqin yordamchi, oliy nufuzli inson hisoblanadi. O'quvchining o'qishga, o'qituvchiga, mehnatga, tabiatga va hokazo, hayotning barcha ko'rinishlariga bo'ladigan munosabati maktabdagi birinchi qadamiga bog'liq bo'ladi. SHaxsning shakllanishiga bolalik yoshidan poydevor qo'yiladi. SHuning uchun ham tarbiyaning barcha ta'sir kuchi bo'lajak axloqli insonning xarakterini, irodasini, bilimni shakllantirishga qaratmog'i kerak. "Bola boshidan" deganlaridek, bu bo'lajak musiqa o'qituvchisi zimmasiga juda katta ma'suliyatni yuklaydi. Bo'lajak musiqa o'quvchilari uchun "birinchi o'qituvchi"ning obro'yi hattoki, ota-onalarnikidan ham yuqori bo'lishi mumkin.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbiy sifatlardan tashqari shaxsiy sifatlarga ham ega bo'lishi juda muhimdir. Keng dunyoqarash va turli fanlardan katta ilmiy xazinasini bor o'qituvchigina nimani va qanday o'qitish, qanday yo'nalishda tarbiyalash muammolarini hal qilishga qodirdir.

O'qituvchi shaxsining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish mexanizmi to'raligicha ochib berildi. U o'qituvchining ijtimoiy-siyosiy, maxsus va pedagogik-psixologik jihatdan kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni ko'rsatdi. Unda ijodiy xarakteridagi pedagogik faoliyat va uning mazmuni haqida keng ilmiy fikrlar bayon qilinadi. O'qituvchi shaxsining g'oyaviy, professional shakllanishini, o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil bilim olish yo'llarining eng muhim qonuniyatlari haqida fikr yuritiladi. Talabalarga estetik ta'lim va tarbiya berish, deb yozadi V.A.Slastenin - hozirgi kundagi pedagogik tayyorgarlikning hayotiy zarur va echilmagan nazariy va amaliy muammolaridan bo'lib turibdi.

A.I.Sherbakov esa, pedagogik ta'lim tizimida ixtisoslikka tayyorlash va o'qituvchining shaxsini shakllantirish bir butun va bir-biridan ajralmas jarayon, - deydi. Muallif, yosh avlodni tarbiyalashda o'qituvchi o'rnining muhimligini aytib, o'qituvchi keng bilimli, izlanuvchan, tarbiyalangan, yuqori darajadagi mutaxassis bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

N.V.Kuzmina o'z tadqiqotlarida o'qituvchi pedagogik faoliyatining psixologik jihatdan tuzilishi, uning mutaxassis bo'lib shakllanishida dastlabki yillardagi ish faoliyatining izchilligi va mexanizmini yoritib beradi. U o'zining ilmiy tadqiqotlarida o'qituvchi mehnatining muvoffaqiyatini ta'minlovchi o'qituvchi shaxsi va pedagogik faoliyatining loyihalash, tashkilotchilik, muloqot qilish kabi asosiy prinsipalarini ochib beradi. O'qituvchi mehnatining har xil tarkibiy qismlarini tadqiq qilish bilan birga muallif, pedagogik ishlarni psixologik tahlil qilishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

N.V.Kuzminaning ta'kidlashicha, estetik tarbiyaning maqsadi san'at vasitalari orqali o'z fikri va sezgisini chuqur anglash, yorqin fikrlash va chuqur his qilishda bolalarga yordam berishdan iborat. Talabalar oliy dargohdagi o'qish davrida faqatgina ta'lim emas,

balki maxsus tarbiya ham olishlari kerak. Ular o'zlarida uyushqoqlik, tartiblilik, mustaqillik va vazminlikni tarbiyalashi, umuman hamma munosabatlarda madaniyatli bo'lishni: xushmuomala, ozoda, adabiyot, san'at va musiqa bilan tanish bo'lishlari kerak. SHaxsni faol ijodkorlikka yo'naltirish, hayotdagi voqea va hadisalarni baholay bilish, kishida hissiylikni shakllantirish, yoshlarda sog'lom dunyoqarashni qaror toptirishda estetik tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Estetik ma'lumotli bo'lmasdan turib, barkamol shaxs haqida gapirish ham mumkin emas. Shuning uchun ham badiiy-estetik tarbiya hamma maktablarda majburiydir.

Estetik tarbiya kishida san'at va hayotdagi go'zallik, olijanoblikni tushinish va yaratilishni, to'g'ri anglash va idrok qilish qobiliyatini shakllantirishni taqozo qiladi. Bu - "shaxs shakllanishida bir maqsadni ko'zlovchi va nazorat qilib turiluvchi estetik faoliyatga va borliqqa estetik munosabatda bo'lishni o'rgatishga qaratilgan pedagogik jarayondir".

Estetik tarbiyaning mazmuni - deydi B.T.Lixachev, bolada borliqqa va san'atga estetik munosabatda bo'lishni, badiiy ijodiyot qobiliyatini oshirish, go'zallik qonuniyatlari asosida mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish va o'stirishdir.

Estetik tarbiyaning eng kuchli vositalaridan biri - musiqadir. Musiqa san'ati faqatgina katta ruhiy ta'sir kuchiga ega bo'lmasdan, shaxsning axloqiy shakllanishida ham katta ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog olimlardan O.A.Apraksina, B.V.Asafev, N.L.Gronzenskaya, D.B.Kabalevskiy, B.T.Lixachev, K.Mamirov, X.Nurmatov, F.Xalilov, V.A.SHatskaya, R.G'.Qodirov, N.Kiyamov, Q.Panjievlar musiqa pedagogikasi muammolarini echishga katta hissa qo'shdilar. Ularning ilmiy ishlarida maktab o'quvchilarining musiqiy-estetik tarbiyasi muammolari va musiqa o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar keng tadqiq qilingan.

D.B.Kabalevskiyning ta'kidlashicha, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ommaviy musiqiy tarbiyaning asosiy vazifasi - musiqa orqali o'quvchilarning ruhiy dunyosiga va eng avvalo ularning ahloqiga ta'sir qilishdir.

"Musiqa, qo'shiq va raqs bilan muntazam shug'ullanish - dedi B.T.Lixachev, bolalarning faqatgina nutq, ovoz, eshitish, gavdani

tutish, o'z harakatlarini boshqara olishlarigagina emas, balki ularning diqqati, xotirasi, his qilishi, fikrlashi va tasavvuriga ham ta'sir qiladi".

Hozirgi vaqtda bolalar estetik tarbiyasining metodologiyasiga, uning pedagogik-psixologik va usulyotga doir masalalarini ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda. Ko'p yillik kuzatishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, umumiy o'rta maktabni tugatgan bir qism yoshlarda badiiy did kam rivojlangan, ruhiy ehtiyoj esa yuzaki musiqa bilan chegaralangan.

Hozirgi kunda nota nomini bilib va uni nota yo'liga to'g'ri yozolmaydigan, biror bir musiqa asarining va muallifining nomini eslolmaydigan, o'rganilgan qo'shiqni aytolmaydigan, musiqani sevmaydigan va undan zavq ololmaydigan o'quvchilarni ko'plab uchratish mumkin. Bu holatning bosh sababi o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar estetik ehtiyojlarini to'g'ri baholay bilmaslikdir. SHuning uchun xam D.B.Kabalevskiy o'quvchilar "Musiqa ta'limi" ning yangi tizimini yaratishga harakat qiladi. U yaratgan "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun musiqa dasturi bolalarni yoshlikdan katta va jiddiy musiqaga olib kirishni, "go'zallik - ezgulik uyg'otadi" tamoyiliga asoslanib o'quvchi shaxsini shakllantirishni, shu yo'l bilan ularga samarali ta'sir qilishni, o'quvchilarni musiqani katta san'atdek tushunishga, eshitishga va sevishtga o'rgatishni, musiqa san'atini bilishga jalb qilish va unga qiziqish uyg'otishni ko'zda tutadi. "Musiqa" dasturi orqali tizimli ravishda olib boriladigan mashg'ulotlarning maqsadi bolalarni musiqiy bilim bilan qurollantirish, ularda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, badiiy did va qiziqishlarni rivojlantirishni kuchaytirmoqdir. Bosh vazifa esa, o'quvchilarni katta musiqa san'ati dunyosiga olib kirish, uning barcha boy shakl va janrlarini tushunish va sevishtga o'rgatish, musiqa ular ruhiy madaniyatining bir qismi sifatida tarbiyalashdir.

Musiqiy-estetik tarbiya oldida turgan vazifalarni echishda musiqa o'qituvchisi katta rol o'ynaydi. Biz ko'rib chiqqan ko'p tadqiqotlarda "Musiqa ta'limi" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishning turli-tuman tomonlari o'z aksini topganligining guvohi bo'ldik. Musiqa mutaxassisi bo'lgan o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash

muammolari keng miqyosda o'rganildi. Unga atab ko'p sonli o'quv qo'llanmalari, to'plamlar va metodik tavsiyanomalar tayyorlandi. Bizni esa, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishga yordam bera oladigan tadqiqot ishlari va adabiyotlar qiziqtiradi.

Biz o'z tadqiqotimiz jarayonida tanishib chiqqan ilmiy ishlarda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish muammolarining ayrim tomonlari tadqiq qilingan, xolos.

T.A.Berkmannning ilmiy-tadqiqot ishida talabalarning fortepianoda erkin ijro etishga o'rgatish yo'llari va o'qituvchi tayyorlashning ayrim umumiy muammolari ochib berilgan. G.S.Riginaning ishida bo'lajak ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakul'teti talabalarida skripka darsini qo'shiq aytish bilan bog'lab olib borish orqali ularda tovush balandliklarini eshitishni shakllantirish muammolari yoritiladi. A.Ya.Nikita ularning shakllanishida musiqiy-eshitish va qo'shiq aytish malakalarining o'zaro ta'sir jarayonini yoritadi. V.I.Sharaburova esa, talabalarda bayan ijro etish malakalarini shakllantirish uslublari haqida ilmiy ish olib borgan.

Maktablarni malakali musiqa o'qituvchilari bilan ta'minlashdagi imkoniyat va talablar nomutanosibligi hozirga qadar o'z echimini topganicha yo'q. Maktablardagi ahvol bu muammoni yanada kuchaytiradi. Hozirgi kunga kelib maktablardagi "Musika" dasturlari mazmunining takomillashib, milliylik borishi yetuk malakali mutaxassis o'qituvchilarni talab qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida bo'lajak musiqa o'qituvchilaridan musiqa bilan juda jiddiy va izchil ravishda uzoq shug'ullanishni talab qiladi. Bu holatga sabab bir tomondan o'quvchilar musiqiy-estetik tarbiyasidagi zamon talabi bilan hozirgi kundagi imkoniyat o'rtasidagi ziddiyatlarning hal qilinmaganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, musiqa o'qituvchilari bilan maktablarning etarlicha taminlanmaganligidir. Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ta'lim borasidagi har qanday vazifani mustaqil ravishda hal qilishga tayyorlash zarurdir. Bolalarga umumlashgan hajmdagi musiqiy bilim va dars materialini nazariy tushuntirish, o'quvchining ruhiy hayoti va

bilish jarayoni rivojlanishiga rahbarlik qilish bo'lajak musiqa o'qituvchisidan yuqori darajadagi umumiy madaniyat, o'qimishlilik, keng saviyalilik, jiddiy nazariy tayyorgarlik, katta usuliy mahorat, pedagogik odob, badiiy-estetik didga egalikni talab etadi. Hozirgi kunda bo'lajak musiqa o'qituvchilariga kasbiy, shuningdek, musiqiy-pedagogik muammolardan bo'lib turibdi. Ijtimoiy borliq va pedagogik voqelik bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktabdagi musiqa ishiga tayyorlashda, kasbni chuqur egallash uchun ichki hamda qo'shimcha imkoniyatlarni topish va ularni harakatga keltirishni talab qiladi.

O'zbekistonda bo'layotgan jadal o'zgarishlar ta'lim-tarbiya sohasiga ham o'zining ta'sirini o'tkazib, bo'lajak musiqa o'qituvchisidan "Musika" darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar foydalangan holda bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek sharafli vazifani amalga oshirishga tayyor bo'lishlarini talab qilmoqda. Buning uchun oliygohda va mustaqil ta'lim olishda milliy musiqa san'atimizga qiziqishi va ijobiy munosabat uyg'ota olishning shakl va metodlarini egallashi lozimdir.

Bugungi "Musika" dasturida o'qituvchi faoliyatining o'rnini, uning oldida turgan vazifalar, maktab musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan malakaviy talablar o'z ifodasini topgan.

"Musika ta'limi" ta'lim yo'nalishi talabalarining pedagogik va musiqiy tomondan a'lo darajada tayyorlangan bo'lishi kerak. Agar tanlash mumkin bo'lmasa - deb yoziladi dasturda, yaxshi musiqachi va yomon pedagogdan ko'ra, yaxshi pedagog va o'rtacha musiqachi afzaldir. Chunki, umumiy o'rta ta'lim maktabidagi musiqiy tarbiya - bu eng avvalo pedagogika, xususiyl tomondan - musiqiy, biroq aniq yo'nalishdagi, mantiqlik uzviy, uslubiyotga ega pedagogikadir.

Bugungi globallashtirish jarayonida musiqa o'qituvchisiga qo'yilgan asosiy talablarni ko'rib chiqib, musiqiy-pedagogik faoliyatdagi qator yo'nalishlarni ajratib ko'rsatadi, bular orasida: tashkilotchilik, bilimdonlik, hissiyot va izlanuvchanlik alohida o'rin tutadi. Musika o'qituvchisining musiqiy-nazariy, xor-dirijyorlik, ijrochilik tayyorgarligiga qo'yilgan talablarni tahlil etib, pedagogik faoliyatining xususiyati va uning umumpedagogik

ishdagi rolini alohida ko'rsatib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishga alohida e'tibor beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'quv jarayonidagi faoliyatlarini umumiy o'rta ta'lim maktablari "Musika" dasturi mazmuni asosida "variativ" shaklda tashkil qilish yaxshi samara beradi. Bu eng qulay va samarali yo'l hisoblanadi. Talabalar musiqiy madaniyatining past darajada ekanligini va oliy o'quv yurti musiqa dasturi asosida ularni musiqiy-pedagogik ishga tayyorlashning murakkabligini hisobga olgan holda, musiqa mashg'ulotlarini bir butun fan sifatida o'qitish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston pedagog olimlari tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida o'quvchi-yoshlarni musiqiy va estetik tarbiyalash muammolarini hal etishga yo'naltirilgan ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ayniqsa, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti va boshqa Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlarda tashkil etilgan pedagogika oliy ta'lim muassasalarining olimlari tomonidan umumta'lim maktabi o'quvchilari va talabalarni musiqiy-estetik tarbiyalashning turli xil muammolariga qaratilgan tadqiqot ishlari bajarildi. Bunda tadqiqotlardan: "O'zbek maktablari o'quvchilarining musiqa darslarida estetik tarbiyalash muammolari" (X.Nurmatov), "Musika talimi jarayonida kichik maktab o'quvchilarida axloqiy hisni tarbiyalash" (K.Mamirov), "O'zbekiston maktablarining o'quvchilarida ko'povozlilik qo'shiq aytish malakalarini shakllantirish" (R.Qodirov), "Musika sanati vositasi orqali o'smirlarni g'oyaviy-axloqiy tarbiyalash" (D.M.Kamolova), "Didaktik o'yinlar vositasida olti yoshlik birinchi sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik tarbiyalash" (Z.R.Raximova), "Xalq musiqasi yoshlarni axloqiy-estetik tarbiyalash vositasi" (A.SH.Hasanov), "Bayanda ijro etish vositasida yosh o'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasi jarayonini faollashtirish" (F.N.Xalilov), "Musika vositasida o'quvchi shaxsida fuqorolik sifatlarini shakllantirish" (F.N.Rupinskaya), "Musika vositasida IV-VII sinf o'quvchilar shaxsining axloqiy sifatlarini shakllantirish" (I.R.Razzoqov),

"Maktab musiqa - xor faoliyatida o'spirinlarning estetik didlarini shakllantirish" (O.A.Vasilchenko), "Xalq musiqasi vositasida yoshlarni axloqiy tarbiyalash" (B.Azimov), "Musika vositasida o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalash" (SH.Jonaydarov), oliy ta'lim muassasalarida talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish (N.S.Kiyamov), "O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish" (Q.B.Panjiev) va hokazolar diqqatga sazovordir. Ular o'z tadqiqot ishlarida maktabdagi musiqiy ta'lim va tarbiyaning mazmuni va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari, uning samarali shakl, vosita va metodlarini nazariy va amaliy-metodik jihatdan asoslab berishgan.

Xuddi shuningdek, talabalarni musiqiy-estetik tarbiyalash vositasi, ularni musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash mavzusida ham bir necha tadqiqot ishlari olib borilgan. Bunday tadqiqotlardan: "O'quvchilarni musiqa o'qituvchisi mutaxassisligiga yo'naltirishda maktab va pedagogika institutining hamkorligi" (S.M.Dadajonov), "Talabalarni musiqiy-estetik tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ijtimoiy faolligini shakllantirish omili" (A.S.Suxachev), "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash" (R.N. Ergashev), "Student yoshlarni o'zbek musiqiy-folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash" (M.B.Qosimova), "Darsdan tashqari faoliyat jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kasbiy ma'suliyatni tarbiyalash" (V.A.Xalilov), "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish" (Q.B.Panjiev) va boshqalar talabalarning musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishning bir qancha qirralarini asoslab berishgan.

R.N.Ergashevning "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash" mavzusidagi dissertatsiya ishida boshlang'ich sinf o'qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyati, uning asosiy tarkibiy qismlari va mazmuni, talabalarni musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda musiqa fanlarini o'zaro bog'lab o'qitish, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarilarni maktab "Musika" dasturi mazmuni bilan

yaqindan tanishtirish eng muqbul yo'l ekanligi, uni amalga oshirishda integratsiyalashgan o'quv jarayoni, pedagogik amaliyot va darsdan tashqari mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati, uning asosiy shakl va metodlari atroflicha yoritib berilgan.

Ta'kidlash joizki, o'zbek milliy musiqa san'ati o'zining boyligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu millatimizning ko'p asrlar mobaynida avlod-dan-avlodga o'tib an'ana sifatida bizgacha etib kelgan ulkan ma'naviy va madaniy boyligidir. Buni maktab musiqa darslari jarayoniga olib kirish, hozirgi yosh avlodni bu xazinadan baxramand etish, ayniqsa, xozirgi vaqtda pedagog-tadqiqodchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

A.E.Kushaev "O'zbek og'zaki an'anadagi professional musiqasi orqali 4-6-sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik tarbiyalash" mavzusidagi dissertatsiyasida bu muammoni hal qilishga harakat qilgan. U o'z tadqiqot ishida: o'zbek og'zaki an'anadagi professional musiqasi xalq musiqa ijodiyotining eng oldingi bo'g'inlaridan biri ekanligi, uning umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini musiqiy-estetik tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati, maktabda olib borilayotgan musiqa mashg'ulotlari mazmunidagi o'rni, o'zbek og'zaki an'anadagi professional musiqa vositasida o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashning yo'l va usullarini mukammal yoritib bergan.

II BOB: UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA O'QITISH ASOSLARI VA METODIKASI

Yosh avlod ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishda musiqa o'qitish metodikasi fanining ahamiyati

Yosh avlod ta'limi va tarbiyasi, uning barkamol avlod sifatidagi kamoloti har qanday jamiyatning eng dolzarb ta'limiy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Chunki, jamiyat, davlat va xalqning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi, uning kelajakdagi taqdiri xuddi ana shu avlod tarbiyasiga bog'liq.

Tarbiya bu - shaxsni ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash maqsadida, uning ma'naviy, jismoniy, aqliy va kasbiy rivojlanishiga muntazam ravishda ta'sir etib borishdan iborat bo'lgan muntazam va uzluksiz jarayondir. Shunday ekan yoshlarga ta'lim tarbiya berish, ularni davlatimiz ravnaqini ta'minlash yo'lida safarbar etish muhim masaladir. Mustaqil Respublikamizda ta'lim va tarbiya masalalariga alohida etibor berib kelinmoqda. SHuni ta'kidlash lozimki O'zbekistonda inson ta'limi va tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirish maqsadida musiqaning madaniy hayotga chuqurroq kirib borishida keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Qadimiy va boy tajribaga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati istiqbolini amalga oshirish ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanish maqsadida asrlar davomida rivoj topib kelganligini ta'kidlash joizdir. Bu jarayonda bir qator milliy ijrochilik maktablari yuzaga keldi. Ularning ijro mahoratlari aynan musiqa ta'lim-tarbiyasi bevosita, turli ta'lim muassasalarida olib borildi. Ushbu maktablarning faoliyat mazmunida insonni dunyoga kelishidan kamol topib butun umri davomida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, musiqaning so'z san'ati va adabiyot bilan o'zviy holda bog'lab o'rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo'shadi.

Shaxs kamolotida musiqa ta'limi va tarbiyasini oshirish albatta o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalariga bevosita bog'liqdir. Musiqa o'qitish metodikasi fan sifatida tizimga

mansub bo'lib o'zining mustaqil o'rniga ega. Bu fan musiqa o'qitish metodikasi mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa o'qitish metodikasi ta'lim muassasalarida nafasat, musiqashunoslik, fiziologiya, ruxshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa o'qitish metodikasi ayniqsa, nafasat va musiqashunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq. O'qitish masalalari uni metodikasining asosini tashkil etsa, ta'limning quyidagi mazmun va metodlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

o'quvchilarning kuylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika, fiziologiya tadqiqotlariga tayanadi;

musiqa o'qitish metodikasining mohiyati musiqa san'ati hamda madaniyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega;

metodikaning fan sifatida rivojlanishi jamiyatda ta'lim va tarbiya hamda musiqa san'atini takomillashib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

Shular bilan birgalikda musiqa tarbiyasi metodikasi umumiy prinsiplarini ilgari suradi. Bular onglilik, badiiy va texnik rivojlanish prinsiplarga ega. Mazkur prinsiplar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, musiqaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, badiylikni tarbiyalashga qaratilgandir.

Musiqa asarini ongli idrok etish, asar mazmunini ochishda va o'quvchilarga musiqiy tajribalarni to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa ta'lim va tarbiyasida emotsional onglilik prinsipi uyg'unlashish, ko'payishi orqali tinglanadigan asarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi.

Ularning musiqaga qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik bosqich prinsipi asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O'quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e'tibor beradi. O'quvchilarga musiqaning rivojlanish prinsiplari to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. Musiqa o'qitish metodikasi tarbiya jarayonida ko'pgina omillarga bog'liq

ekanligini e'tirof etadi. O'quvchilarning musiqiy madaniyati faqatgina umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'siri ostida rivojlantirish ayni ta'sirli vositadir. SHular bilan birga o'quvchidar uyda albatta tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rol o'ynaydi. Musiqa o'qitish metodikasi ta'lim metodlarini tanlashda ham pedagogika ravnaqi metodlarini ishlab chiqishda quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda:

metodlarning musiqa tarbiyasi mazmunini sinovi, ijroga bog'liqligi;

o'quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi;

musiqiy qobiliyat va ovozning rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari;

o'quvchilarning rivojlanishida musiqiy faoliyatlarining turli shakllarda foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqligi.

Metodikaning vazifalariga esa o'quv tarbiya jarayonini turlicha shakllantirish yanada rivojlantirish musiqa darslaridan tashqari musiqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlariga to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kiradi. Musiqa o'qitish metodikasi musiqa faniga yaqin bo'lgan adabiyot va tasviriy san'at, tarix bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalga oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda dars etakchi omil hisoblanadi. Chunki, o'quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi maktabda musiqa fani boshqa fanlardan o'zining badiiyligi va qiziqarliligi, zavq-shavq uyg'otishi bilan ajralib turadi. Eng muhimi musiqa bolalarning aqliy, axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarida o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kengaytirib borishadi.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari tizimida bola shaxsini tarbiyalashda musiqa san'atining roli, maqsadi va vazifalari alohida e'tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning ahamiyati qayd qilinib, "Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganda

insonning ahvoli ne kechar edi" - deya xitob qilinadi. Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy-ma'rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma'naviy va jismoniy, madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta'rif beradi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi, - degan g'oya ilgari suriladi. Alloma mashhur "Tibbiyot qonunlari" kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo'lib kelgan musiqiy allalashdir. SHu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba'zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'lgan deb, yozgan edi.

Shunday qilib olimlar, mutafakkirlar musiqa nafaqat insonga samarali ta'sir etuvchi vosita balki o'z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra, alohida bir fan sifatida tadbiq etishga davrlar o'tib ularni tor fikrlarini ta'lim-tarbiyada tatbiq etilib, ta'kidlaganidek, ommaviy xalq musiqa pedagogikasining vujudga kelishida asos bo'ladi.

Ta'lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi.

Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi - yosh avlodni musiqa me'rosimizga vorislik qiladigan hamda umumbashariy musiqa san'atini qadrlaydigan inson sifatida voyaga etkazishdan iborat.

Buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish maktab musiqa ta'limi tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq.

Musiqa ta'lim tarbiyasining konsepsiyasida maktabda musiqa fani boshqa fanlar qatori o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqa

ta'limini sifatli bosqichga ko'tarish uchun maktabda teng xuquqli fan hisoblanadi.

Bu esa hozirgi zamon o'qituvchisidan dars mashg'ulotlariga ijobiy munosabatda bo'lishni, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to'g'ri tashkil etish va boshqarish faollikni talab etadi. Musiqa dars mashg'uloti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o'qituvchi bilishi kerak.

Birinchidan musiqa tarixi, nazariyasi, ijrochilikka doir turli namunalardan ayrim mashqlar, musiqa savodi mashg'ulotlari, musiqa tinglash, musiqa tarixi va adabiyoti, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlari, musiqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi;

Ikkinchidan, musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari ya'ni "tili" bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at ranglar bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlaridan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalaniladi;

Uchinchidan musiqa bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatadi, ijobiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha dastur bir darsning o'zida ta'limning musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodxonligi, bolalar cholg'u asboblarida chalish va ritmik harakatlar bajarish, musiqa ijodkorlari kabi bosqichlar bir-biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak.

Zamonaviy mashg'ulotlardan musiqa idroki etakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki bu bosqichda o'quvchilar faoliyatida ko'proq o'yin xususiyatlari bo'lib turadi. Shunday qilib ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to'laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan etakchi darajad ta'minlash, milliy musiqa ta'lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubxasiz musiqa tarbiya samaradorligini oshirishishga imkon beradi. Bu esa musiqani maktab hayotida o'quvchilar qalbida keng o'rin egallashi va ularning ma'naviyatlarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Yosh avlod g'oyaviy ta'limi va tarbiyasida musiqa o'qitish metodikasi fanining asosiy vazifalari

Bolalar dunyosi beg'ubor olam, eng tiniq tuyg'ular, shirin umidlar qanotli orzular baxtiyor bolalikka, tinch yurt farzandlariga yarashadi. Bolalar qalbi tabiiy ravishda ezgulikka intilib, kattalardan mehr-muruvvat kutib yashaydi. Ularning ongi esa doimo biror yangilikni bilishga, bu murakkab olam sirlarini tezroq egallashga harakat qiladi. Odatda bolalar atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga juda qiziquvchanlik bilan qaraydi va turli bilim va fikrlarni osonlik bilan qabul qilib ulardan chuqur ta'sirlanadi. Ya'ni inson bolalik chog'idanoq kamolotga intilib yashaydi. Komil insonni yaratish ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash azal-azaldan xalqimizning eng ezgu orzusi bo'lib kelgan. Buyuk ajdodlarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy va Alisher Navoiy kabi alloma mutafakkirlarimiz ijodida ham barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, davlatimiz rahbari va xukumatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga juda katta e'tibor berib kelinmoqda va u yo'nalishda bir qancha qarorlar qabul qilinib, turli tadbirlar amalga oshirilyapti. Biz kelajagi buyuk davlat yaratish uchun kurashar ekanmiz avvalo, ana shu kelajakda yashaydigan va biz boshlagan ishni yanada rivojlantirib takomillashtirishi zarur bo'lgan farzandlarimiz tarbiyasiga katta e'tibor qaratishimiz lozim. Hozirgi davrda jahonda yuz berayotgan voqealar va siyosiy-ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda xukumatimiz rahbariyati avvalo pedagoglar va kasbiy-metodik soha mutaxassisleri oldiga yangi-yangi, zamonaviy vazifalarni qo'yadi. Yoshlarga hozirgi siyosiy vaziyatni tushuntirish, ularning yosh ongini zaharlashga urinayotgan turli ma'naviy-mafkuraviy hurujlardan ularni o'z vaqtida ogoh etib, himoya qilish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lib turibdi. Dunyoda taraqqiyotga, ma'naviyatga, adolatga intilish bor ekan jamiyatda ilg'or bunyodkorlik g'oyalari tug'ulaveradi. Bugungi kunda shunday g'oya xalqni farovon turmush, yorqin kelajak, buyuklikka boshlovchi milliy istiqlol

mafkurasi g'oyalari mavjud va bu g'oyalar yanada takomillashib xalqimizni buyuk kelajak sari boshlab boradi.

Bizning fikrimizcha maktab o'quvchilari ongiga milliy mafkuraviy g'oyalarini singdirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda musiqa fanining imkoniyatlari ham juda kengdir. Bu vazifani talab darajasida amalga oshirish albatta ushbu fandan dars beradigan o'qituvchining siyosiy ongi va bilimiga hamda uning pedagogik mahoratiga bog'liq. Demak hozirgi davr musiqa fani o'qituvchisi nafaqat professional ijrochi etuk nazariyotchi bo'lishi balki siyosiy va pedagogik jixatdan ham ilg'or mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki musiqa va qo'shiq, musiqiy oxanglar kishilar ongiga, kayfiyatiga va tarbiyasiga juda kuchli ta'sir etadi. Ma'lum bir kuy yoki qo'shiqlar kishilarga turli kayfiyatlar va tushunchalar hosil qilib, hatto ularning dunyoqarashlarining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Buni bilgan ajdodlarimiz ham qadim-qadimdan yoshlar tarbiyasiga musiqaning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelishgan. Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga va voqelikka munosabatini ifodalovchi xalq og'zaki musiqiy ijodi namunalari, "Alpomish" dostoni va "Shashmaqom" kabi san'at durdonalari milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shib kelayapti. SHu o'rinda biz milliy madaniyat deganda faqat kishilarning tashqi ko'rinishi va yurish-turishini emas, balki ularning haqiqatgo'y ichki madaniyatini, qalb go'zalligini nazarda tutayapmiz, ya'ni musiqa kishilarning avvalo qalbiga ta'sir qilib, uni poklashga xizmat qiladi. Bu xalqimizning milliy odatlarida, ota-onaga, o'zidan kattalarga hurmat, o'zaro samimiyat va mehribonlik kamtarlik, bag'rikenglik, muxtojlariga shavqat kabi ezgu ishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuksak milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish hamda turmush farovonligini ta'minlash uchun birinchi navbatda yurtimizda kafolatlangan tinchlik, siyosiy iqtisodiy barqarorlik mavjud bo'lishi bunga erishishning eng asosiy yo'llaridan biri xalqni, avvalo yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari bilan qurollantirishdir, chunki, jahonni mafkuraviy jihatdan bo'lib olish uchun tinimsiz kurash olib borilayotgan vaziyatda faqat kuchli milliy mafkuragina

jamiyatni turli xavf- xatardan muxofaza qila oladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun talablari asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasi tushunchalarini shakllantirish ishlari, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham keng qo'yilgan. Jumladan, haftada bir marta bo'ladigan milliy ma'naviyat darslari tashkil etilgani, har kuni birinchi darslarning O'zbekiston Respublikasi Davlat Madxiyasini kuylash bilan boshlanishi, turli mavzudagi tarbiyaviy soatlar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari tomonidan uyushtirilayotgan turli tadbir va anjumanlar, uchrashuv suhbatlar bunga misol bo'la oladi. Respublikamizning turli xududlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham bu sohada ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilayapti. Jumladan, turli ilmiy-amaliy seminarlarda tajribali murabbiy-o'qituvchilar bolalarning yoshiga mos ravishda ularning ongiga milliy mafkura g'oyalarini singdirishning differensial pedagogik-psixologik dasturini yaratish bo'yicha o'z mulohazalarini bildiruvchi ma'ruzalar bilan chiqishmoqda. Bu o'z navbatida pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish ishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatyapti.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatorida musiqa fanining o'qitilishi bo'yicha ham mutaxassislar oldiga yangi-yangi zamonaviy dolzarb vazifalarni qo'ymoqda, musiqa fani birinchi navbatda o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik, nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmat qilib, pirovardida ularni haqiqatgo'y komil inson qilib tarbiyalashga o'z hissasini qo'shadi. Shunday ekan yuqorida aytib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki musiqa fani bugungi kunda o'quvchilarga musiqiy bilim berish, qo'shiq kuylashni o'rgatish va ularni estetik jihatdan tarbiyalash bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Hozirgi kunda barcha fan o'qituvchilari, pedagog-tarbiyachi kadrlar oldida dolzarb bo'lib turgan eng muhim vazifa yoshlar ongiga milliy mafkura g'oyalarini singdirishda musiqa fanining ham imkoniyatlari juda boy va rang-

barangdir. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chikilgan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti" hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tashabbusi bilan yaratilgan "Uzluksiz ta'lim tizimini konsepsiyasi"ga muvofiq musiqa fani beshta tarkibiy qismdan iborat etib belgilandi. Bular:

- musiqa tinglash;
- musiqiy-ritmik haraktlar;
- jamo bo'lib kuylash;
- cholg'u asboblarda ijro etish;
- musiqa savodi.

Albatta har bir darsda bu tarkibiy qismlar bir biri bilan bog'langan ravishda o'tiladi va ular har darsda turli variantlarda o'rin almashib kelishi mumkin. Darsning maqsadi esa o'z navbatida beshta yo'nalishni o'z ichiga oladi;

1. Tarbiyaviy maqsad;
2. Ilmiy maqsad;
3. Bilimlarni rivojlantiruvchi maqsad;
4. Kasbga yo'naltiruvchi maqsad;
5. Milliy mafkura g'oyalarini singdirish maqsadi.

Bu maqsadlar ham albatta bir-biri bilan bog'langan holda amalga oshiriladi. Dars mavzusi maqsadlardan kelib chiqqan holda o'qituvchi har bir jarayonida o'quvchilar ongiga milliy mafkura g'oyalarini muntazam ravishda singdirib borishi lozim. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'zining keng dunyoqarashi, pedagogik-psixologik bilimi, notiqlik qobiliyati va kasbiy mahoratidan unumli foydalangan holda har bir darsga ijodiy yondoshishi zarur bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan hozirgi davrda dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, ichki va tashqi siyosat, siyosiy ijtimoiy vaziyatni tinmay o'rganib, tahlil qilib turishni va bu bilimlarni darsda o'quvchilarni yoshiga mos ravishda tushuntira olishi talab qilinadi. Hozirgi kunda ko'plab bastakorlarimiz va shoirlarimiz tomonidan zamon bilan hamnafas bo'lgan vatanparvarlik ruhidagi muhim tarbiyaviy estetik ahamiyatga ega bo'lgan qo'shiqlar yaratilayapti va bu jarayon hukumatimiz tomonidan munosib rag'batlantirilayapti.

Musiqa fanining boshqa aniq fanlardan farqli tomoni shundaki

u doimo zamon bilan hatto an'anaviy bayram va milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang holda olib borishni, o'qituvchidan uzluksiz ijodiy faoliyatni talab etadi. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarga "Endi esa milliy mafkura haqida gaplashamiz"-deb 5-6 minut ma'ruza o'qishi kerak emas, aksincha u har bir dars mavzusidan albatta ijodiy foydalanib, dars mavzusining mazmunidan kelib chiqqan holda asta-sekinlik bilan milliy g'oya mazmunini o'quvchilarga singdirib borishi maqsadga muvofiq deb, o'ylaymiz. Aks holda doim bir xilda takrorlanadigan gaplar o'quvchilarni zeriktirib quyishi va bu butunlay kutilmagan natijani berishi mumkin. Ma'lumki, milliy mafkura o'z mohiyati mazmuniga ko'ra, barcha sohaga tegishli siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy, milliy va boshqa g'oyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu borada o'qituvchi uchun dars jarayonida ijodiy faoliyatlar uchun keng imkoniyatlar mavjud. Tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tashqi dunyoda o'zligimizni qanday buyuk ajdodlar merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga, bu boyligimizni asrab-avaylab demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmog'i zarur.

SHunday ekan, biz pedagoglar bugungi kunda har qancha ishlasa arziydigan, keng ijodiy faoliyat maydoni ya'ni barcha fuqarolar qatorida vatanimizning buyuk kelajagi uchun faxr bilan mehnat qilish imkoniyati borligidan minnatdormiz.

Bolalar musiqasini o'qitish metodikasi

Jamiki san'at asarlari singari musiqa san'ati ham insonni yuksak ma'naviy qadriyatlar sari etaklaydi, yoshligidanoq ajib ohang va tovush tovlanishlari bilan tanishtiradi. Bola hali qo'lga qalam ushlashni, o'qib, chizishni bilmagan yoshidayoq ma'lum darajada musiqa eshitish va his qilishni o'rganadi. Ko'pincha shu dastlabki taassurotlar kishilarda musiqaga bo'lgan munosabatlarning shakllanishida muhim rol o'ynashi mumkin. Shuning uchun umumiy ta'lim va hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida musiqa va umumiy o'rta ta'lim

maktablarida o'quv-tarbiya ishlarini tubdan o'zgartirish masalalari ham oig'a surilgan.

Musiqa, avvalo bolalarning estetik dunyoqarashini tarbiyalaydi, san'at asarini his etish, ularga o'z munosabatini bildirish kabi fazilatlarni uyg'otadi. Albatta, ushbu fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar ham katta o'rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma-yon yashaydi, bir-birini to'ldiradi. Bolada musiqaga ilk muhabbat avvalo tabiat taassurotlari ostida tug'iladi, qolaversa bog'cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari faqatgina estetik jihatdan emas, balki keng ma'noda ma'naviy-ahloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi.

Shuning uchun musiqa bo'yicha o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish bugungi kunimiz ilgari surayotgan muhim muammolardan biridir. Hozir amalda qo'llanilayotgan "Maktabda musiqa ta'limi" to'plamining ijobiy tomonlarini qayd etgan holda hali mamlakatimiz miqyosida musiqa asari va darsliklarini nashr etish ko'ngildagidek emasligini aytib o'tish lozim. Ayniqsa, o'quv dasturini takomillashtirish, uni jiddiy ilmiy tarzda yaratish dolzarb masala bo'lib turibdi. Agar O'zbekiston kompazitorlarining bolalar uchun yozgan yaxshi asarlari o'quv dasturiga kiritilsa, ayni muddao bo'lur edi. Bu birinchi navbatda bolada milliy musiqaga qiziqish va muhabbatni oshiradi, uning estetik va internatsional dunyoqarashini o'stiradi. SHu o'rinda diqqatni bir masalaga tortish joiz. Maktab dasturi asosan zamonaviy musiqa asarlaridan tuzilgan. Milliy mumtoz kuylarimiz esa batomom unitilib qoldirilgan. Axir xalqimizning ulkan musiqiy merosi o'tmishimizning ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu-armonlari, o'y-intilishlari o'zida mujassam etgan kuy-qo'shiqlarimiz maktab dasturidan joy olsa yaxshi bo'ladi!

Zamonamizning zabardast yozuvchisi, CHingiz Aytmatov o'zining dunyoga mashhur "Kunda" romanida shunday deb yozadi: "Xayot, o'lim, muhabbat, shafqat va ilhom-hammasini musiqa aytadi, zotan biz musiqada eng oliy hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun esa ongimiz yorishgan zamonalardan boshlab butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga faqat musiqadagina moyil bo'lganmiz. Faqat musiqa barcha davrlardaning aqidalarni

engib o'tib, doimo kelajak sari intiladi... SHuning uchun ham biz ayta olmagan narsalarni u aytadi, shunga chorlaydi".

Zamonaviy mavzularda ham rang-barang asarlar yaratilmoqda. Biroq, o'qituvchilar bunday zarur asarlardan ham to'la bahramand bo'lmayotirlar. Shularni hayotni sevishga, xalqning yaxshi umidlarni asrab-avaylashga o'rgatuvchi mehnat, jasoratlari sari etaklovchi, do'stlik va qarindoshlikni tarannum, etuvchi asarlar yaratayotgan iste'dodli bastakorlarimiz (Eduard Qalandarov, Habibullo Rahimov, Avaz Mansurov, Mustafu Bafoev va boshqalarning) asarlarini maktab dasturisiga ko'proq, dalil olib kirish fursati etdi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish metodlarini rivojlantirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, musiqashunos olimlarimiz bu sohaga juda kam e'tibor bermoqdalar.

Bu borada birorta mukammal o'quv qo'llanma yo'q desa bo'ladi. Vaholanki, musiqa darslarini o'qitish mamlakatimizda sho'rolar hokimiyatining dastlabki yillaridayoq boshlangan edi. SHubhasiz, o'tgan davr mobaynida talaygina tajriba to'plagan. Gap faqat eng yaxshi, ilg'or tajribalarni to'plab, keng miqyosida ommalashtirilishida qolgan. Bu borada qardosh Respublikalarda, ayniqsa Boltiq bo'yi Respublikalarida va Gruziyada tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu Respublikalarda radio va televideniya dasturilariga bolalar tarbiyasiga xususan, jajjilarning musiqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladigan ajoyib eshittirishlar va ko'rsatuvlar kiritilmoqda. SHu o'rinda xalq artisti R.Paulsning bolalar musiqasida bo'lgan ishtiyoqi va muhabbatini eslashning o'zi kifoya.

Endi musiqa o'qituvchilarining mahorati, bilimi va professional saviyasi haqida ikki og'iz so'z. Agar Respublikamizda musiqa darslarini o'qitish muammolarini bir biriga tutash halqa deb tasavvur qilsak, halqaning eng bo'sh joyi o'qituvchi kadrlar muammosidir. To'g'ri hozir shu sohada ishlab turgan o'qituvchilar bor. Ammo bizga ko'proq o'z kasbini sevadigan, yoshlarga cheksiz muhabbati bo'lgan, javobgarlikni his eta bilgan, professional jihatdan puxta musiqa o'qituvchilari kerak.

Masalaning kishini ranjitadigan yana bir tomoni borki, bu haqda to'xtamaslikning iloji yo'q. Ayrim maktablarda musiqiy

tarbiyani mutlaqo tushunmaydigan, bir necha qo'shiqni zo'rg'a o'rganib olgan kishilar dars berayotgani achinarli holdir.

Nazarimizda, musiqa darslarini o'tishda yillar davomida shakllangan bir qolipdagi qarashlardan dadil voz kechish fursati etdi. Bu uchun o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi, ittifoq va jumxuriyat miqyosidagi adabiy-musiqiy jarayonlardan xabardor bo'lishi shart. Bir so'z bilan aytganda, tarbiyaga oid barcha muammolarni kompleks tarzida hal etish lozim. Buyuk faylasuf Abu Nasr Farobiy musiqa haqida shunday degan edi: "Musiqqa fani shu ma'noda foydaliki, kimki fe'l-atvori muvozanatini yo'qotgan bo'lsa, tarbiyaga keltiradi, kamol topganlarni kamolga etkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'lig'i uchun ham foydalidir, chunki tan kasallig'ga uchrasa ruh azoblanadi. SHu sababli tanni sog'lomlashtirish uchun ruhni davolamoq darkor, ovozlarning ta'siri bilan ruhiy quvvatlar o'z mohiyatiga uyg'unlashadi va tartibga, muvozanatga keladi". Ulug' vatandoshimizning ushbu so'zlari bugungi kun uchun ham nihoyatda qadrlidir. Zero, qo'shiq bizni o'tmish bilan bog'laydi, kelajagimizga yuksakroqdan nazar tashlashimizga imkon beradi. SHuning uchun kelajagimiz bo'lgan bolalarni kuy va qo'shiqqa yanada mahkamroq bog'laylik, ularning jajji yuraklarini ezgulik ohanglari bilan oshno etaylik!

O'quvchilarni notaga qarab kuylash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiya berishning asosi xor bo'lib qo'shiq aytishdir. Qo'shiqni to'g'ri aytish, tovushlarni to'g'ri talaffoz qilish va qo'shiq o'rganishni tezdastirish uchun solfejio, ya'ni notanish kuylarni notaga qarab aytish malakalarini egallash katta ahamiyatga egadir.

Notanish kuylarni notaga qarab ijro etish malakasini egallash juda murakkab va o'zoq vaqtni talab etadigan jarayondir. U qo'shiq o'qituvchisidan o'z o'quvchilari bilan juda sinchiklab va sestemali ravishda ish olib borishni talab etadi. Agar o'quvchilar sinfdan-sinfga o'tganlari sari notaga qarab qo'shiq aytish malakalarini izchillik bilan asta-sekin o'zlashtirib borsalar, yuqori

sinflarda qo'shiqni eshitib o'rganishda notaga qarab o'rganishga o'tishlari mumkin.

Notaga qarab qo'shiq aytish o'quvchilardan ma'lum tayyorgarlikni-musiqa bilimining ma'lum darajada yuksalgan bo'lishini talab qiladi. SHuning uchun notaga qarab qo'shiq aytish malakasini egallashdan oldin musiqa o'quvini o'stirish, musiqa savodini o'rganish, qo'shiqchilik malakalarini o'rganish yuzasidan ko'pgina ishlar qilingan bo'lishi kerak.

Maktab dasturisi 1- sinf bolalari hali musiqa savodidan tegishli bilimga ega bo'lmagan paytdanoq notaga qarab qo'shiq aytishni nazarda tutadi. SHuning uchun notaga qarab qo'shiq aytishga o'rgatish musiqa savodini o'rgatish bilan va qo'shiqchilik malakalarini egallash bilan bir vaqtda boshlanadi va parallel tarzda olib boriladi. SHunday qilib, ta'limning bu hamma turlari (qo'shiq aytish, musiqa savodi, solfejio) yagona qo'shiqschilik jarayoni bilan bog'langan bo'lishi va xor bo'lib qo'shiq aytish materiallari asosida olib borishda kerak. Qo'shiq darsida bolalar bilan xor ishlarini tashkil etishda, ularning yoshiga musiqadan qachalik xabardor ekanligiga qarab nota yozuvini qo'llanishining turli shakllari va usullaridan foydalanamiz.

Notaga qarab qo'shiq aytishning oddiy turi bolalar eshitib, o'rgangan qo'shiq kuyining harakatini, notaga qarab ko'zatib borishni bilish hisoblanadi. Bolalarga 1-sinfanoq solfejio malakalari berishni, ularni nota savodi bilan tanishtirgunga qadar notaga qo'shiq aytishdan maqsad ko'rinishdan va eshitishdan olgan taassurotlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash tafovutlarni talaffo'z qilishni miyada tasavvur qilish mahoratini o'stirishdir. Noatga qarab qo'shiq aytishning bu turi 1-2 sinflarga xos narsa bo'lsa undan yuqoriroq sinflarda ham foydalanish mumkin. Notaga qarab qo'shiq aytishning bu turi amalda quyidagicha o'tkaziladi.

Bolalar bilan qo'shiq o'rganib bo'lingach, o'qituvchi uning kuyini doskaga yozadi yoki sinfga qo'shiqning kuyini oldindan yozib tayyorlangan plakatni keltiradi. O'qituvchi bo'larning oldingi darslarida o'rganilib, notaga yozib qo'yilgan qo'shiq ekanligini tushuntiradi. O'qituvchi har bir nota o'zining bir qismini yoki butun bir so'zni bildiradi deydi va buni tegishli misollarda

ko'rsatadi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda savol-javob yo'li bilan kuyning to'zilishini, uning rivojlanishini pog'onama-pog'ona yoki sakrashlar yo'l bo'layotganligini aniqlaydi. SHundan keyin o'qituvchi bolalarga o'zi aytgan qo'shiqni diqqat bilan eshitish va harakatlarini ko'zatib borish kerakligini aytadilar. O'qituvchi qo'shiq aytadi va shu bilan bir vaqtda qo'lidagi tayoqcha bilan bir necha o'quvchini doskaga chiqaradi, doskadan ko'rsatib turadi.

Notaga qarab qo'shiq aytishning bu turini egallash yuzasidan sinfda olib borilayotgan amaliy ish yuqorida aytib o'tilgan qo'shiq aytishni o'rganish turlariga o'xshab olib boriladi. Avval kuyning tuzilishi tahlil qilinadi. Agar bolalar nota cho'zimini bilsalar, u holda qo'shiqda qanday nota cho'zimlarining uchrashi aniqlanadi. Birinchi sinfda hamma bolalar notalar cho'zimini navbat bilan ularning uzun va qisqaligini ("chorak", "nimchorak" terminini ishlatmay) aniqlab aytib berishlari kerak. So'ngra esa o'qituvchi nota yozuvidagi notalarni ko'rsatkich bilan ko'rsatib turadi, so'ngra o'quvchilar esa xor bo'lib ularni aytib beradilar. O'qituvchi doskaga bitta o'quvchini chiqarishi mumkin, u notalarni ko'rsatib, ularning nomlarini aytib beradi va butun sinf o'quvchilari esa uning javobini diqqat bilan kuzatib turadilar. SHundan keyin notalarni qo'shiq ritmida xor bo'lib o'qish (solmizatsiya), so'ngra kuyini nota nomlari bilan aytib chiqish juda foydalidir. Ko'p bolalarga ma'lum bo'lgandan keyin notaga qarab bu xilda qo'shiq aytishdan intonatsion qiyinchiliklar uchramaydi. Hamma qiyinchiliklar notalarni ritmik va intonatsion aniq aytish malakalarini egallash yo'lidagi birinchi qadam hisoblanadi. Notaga qarab qo'shiq aytishning bu turi ham 1-2-sinflarning bolalari bilan olib boriladigan asosiy ishdir.

Notaga qarab qo'shiq aytishning yana bir turi solfejiodir. Solfejio malakalarini egallash o'qituvchilarning musika o'quvini o'stirishda, ularning amaliy ishida katta ahamiyatga egadir. Notanish kuyini notaga qarab chalish uchun dildan quylash o'quvi rivojlangan bo'lishi, ya'ni yozilgan kuyning fikran tasavvur qila oladigan bo'lishi lozim. SHuning uchun ham musiqa o'quvchisini o'stirish va musiqa tarbiyasiga etarli darajada ega bo'lishlik uzoq vaqtni va muntazam ravishda ishlashni talab qiladi. Bunga musiqa

savodini o'rganish, musiqa dadabiyotlari bilan tanishish, vokal xor malakalarini egallash mobaynida erishiladi. Bolalar sekin-asta musiqiy o'quv bilan musiqiy nutqning balandlik, lad bilan bir vaqtda ularda mushohada, o'qish va qo'shiqchilik sezgilari va metroritmik xususiyatlarini tushuna va anglay boshlaydilar. Bular esa ma'lum bir intonatsion tasavvurni hosil qiladi.

Solfedjio malakasini egallash ko'p vaqtni talab qiladi va u 1-sinf dan boshlansa ham o'zining eng asosiy maqsadiga- notaga qarab qo'shiq o'rganishga faqat yuqori sinflarda (5-7 sinflarda) erisha oladi.

Bolalar "dilda kuylash o'quvi" bilan tasavvur qila oladigan kuynigina tayyorgarlik ko'rmasdan notaga qarab ijro eta oladilar. SHuning uchun notanish kuyning notaga qarab ijro etish malakasini egallashda bolalarga tushunarli bo'lgan, ularning o'quvi va umuman musiqa saviyasiga mos keladigan material tanlash kerak. Odatda maxsus tanlab olingan mashqlar yoki qo'shiqdan parchalar shunday materiallar bo'lib xizmat qiladi. Bular mashq va parchalarda bolalarga tanish bo'lgan tovushlar ish jarayonida o'quvchilar tomonidan to'plangan maxsus intonatsion iboralardir.

Notanish kuylarning notaga qarab ijro etish mahoratlari birdan-bir maqsad bo'lib qolmaslik uchun, bolalarda notanish kuyni ijro etish uchun qiziqish tug'dirishi mumkin, bu mashg'ulotlarning kelgusidagi amaliy ishda qanday katta ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatishi kerak. SHu sababli notanish kuyni notaga qarab ijro etish uchun sinfda o'rganilayotgan qo'shiqlarning ayrim parchalaridan foydalanish mumkin.

Musiqa darsida notanish kuyni notaga qarab ijro etish uchun quyidagi ish olib boriladi. O'qituvchi doskaga nota misollari yozadi. So'ngra o'qituvchining savollariga o'quvchilarning bergan javoblari asosida kuy tahlil qilinadi. Tahlil qilish darajasi o'quvchilarning yoshiga va musiqa savodidan tayyorgarligiga qarab o'tkaziladi. Tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar tushunolmay qolgan o'rinlarini tushuntiradi, diqqatni asosiy narsaga jalb etadi.

Kuyni tahlil qilish jarayonida quyidagi masalalar aniqlanishi kerak:

lad (parda) va tonnalik. Misol qaysi bosqichda boshlanadi; o'lchov;

kuyning intonatsion tuzilish xususiyatlari (harakat yo'nalishi, notalarning nomi, sakrashlar, ularning katta-kichikligi);

kuyning ritmik tuzilishi xususiyatlari (misolida qanday cho'zimlar uchraydi, pauzalar bormi, misol taktning qaysi hissasidan boshlanadi va boshqalar);

misoldagi musiqiy iborani va nafas olish holatini aniqlash; misolni ijro etish, ya'ni qo'shiq ritmida nota o'qish.

Shulardan keyin solfedjioga o'tish mumkin. Kuyni to'g'ri ijro etish uchun o'quvchilar ovoz tonini to'g'ri sozlash juda muhimdir. Kuydan sinflarda do major misolida foydalaniladi. Agar notanish kuyning notaga qarab ijro etish uchun qo'shiqda parchalar yoki so'zlardan misol tanlab olinsa, u holda so'zlar kuy aniq va ishonchli o'rganilgandan keyingina nota ostiga yoziladi. Ana shundagina misol qaysi qo'shiqdan olingan bo'lsa, o'sha qo'shiqning nomi yoziladi. Solfedjio malakasini egallashda qo'shiq darsliklari katta yordam berishi mumkin. Bunda darsliklarda notanish notaga qarab qo'shiq uchun turli misollar sistemali va izchil tanlab borilgan.

Notanish kuyni chalayotganda qo'shiqni ritmik va baravar ijro etish uchun bolalar o'zlari dirijyorlik qilishlari (takti ko'rsatib turishi) kerak. Quyi sinflarda beriladigan barcha misollar 2/4 o'lchovda bo'lganligi sababli, dirijyorlik qilish bolalarga u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. O'quvchi yuqori sinflarda 3/4 o'lchovdagi, keyinchalik esa 4/4 o'lchovdagi notalarga qarab direjyorlik qilish lozimligini tushuntiradi. O'qituvchi yuqori sinflarda (7-8 sinflarda) o'quvchilar bilan notalarga qarab qo'shiqni to'liq o'rganayotganda notanish kuyni ijro etishga tayyorgarlik ko'rish va uni eshitishning engillashtirish uchun intonatsiyaga asoslangan maxsus tanlangan bir qancha mashqlardan foydalansa yaxshi natija beradi. Solfejio yuzasidan olib boriladigan ishda kamertondan foydalanish ma'qul bo'ladi. Unda tempni to'g'ri topa bilish katta ahamiyatga egadir. Misolni mo'tadil tempda aytish eng qulay hisoblanadi, chunki bu o'quvchilarga solfejio qilinadigan misolni yaxshiroq eshitish va undagi tovushlarni aniqroq talaffuz qilish imkonini beradi.

Notadagi qo'shiqni ijro etish uchun yoki misolni tez tempda aytish uchun tempni birdan tezlashtirmasdan avval sekinroq boshlab, intonatsiyani egallagan sari tempni talab qilgan nuqtaga etkazish mumkin. Birdaniga tezlashgan tempni qo'shiq aytilsa xatolarga olib keladi, kuy buzilib aytiladi. Solfejio uchun misol tanlayotganda bolalarning ovoz kuchini hisobga olish eng asosiy momentlardan hisoblanadi. SHuning uchun misollar tovush apparatining zo'riqishini talab qilmaydigan qulay taassurotda bo'lishi kerak. Buning uchun kuyni (1-2) sinflarda yorqin tanlash tovush hosil qilish uchun olingan misollar asosan pastlashib boruvchi misol tovushlardan tuzilishi kerak.

Hamma misollarda uning qaysi joyda nafas olish lozimligini ko'rsatish kerak. Talaffuzning aniq bo'lishi ko'p jihatdan tovushni to'g'ri hosil qilishga bog'liq. Notanish kuylarni notaga qarab aytishga bog'liqdir. Notanish kuylarni notaga qarab aytishda o'quvchilar qattiq ovozni yaxshi eshita olmaydi va qo'shiqni qanday aytayotganligini yaxshi nazorat qila olmaydi.

Hamma misollarni mo'tadil tovushda miyig'ida aytish kerak. O'quvchilar qo'shiq aytayotganlarida nota nomlarini aniq va ravshan talaffuz qilishlari, harflarni to'liq aytishlari juda muhimdir, solfejio malakasini egallash uchun har darsda har yili muntazam va izchillik bilan ishlash lozim. Notaga qarab qo'shiq aytish 1-sinfning 2-yarmidan boshlanadi.

Solfedjio uchun olinadigan hamma misollarni o'lchami 2/4 bo'lishida major tovush qatorining balandligi jihatidan turlicha bo'lgan, asosan prima tovush zonasida ilgarilab boruvchi kuy olinishi kerak. 2- sinfda 1-sinfda o'tilgan misollarning bir nechasini takrorlab, yangi materialni o'rganishga kirishmoq kerak. 2-sinfda Kuyning ilgarilanma harakati solfejio uchun berilgan misollarda ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari tonika uchtovushliklarini aytish asosida tersiya intervallari, kvinta va oktavani o'z ichiga oluvchi misollar beriladi. 3 va 4-sinflarda ilgarilab boruvchi kuydan tashqari barqaror bosqichlar, ya'ni tonika uchtovushliklari ustida olib borilgan ishlar davom ettiriladi. Bundan tashqari bu bir belgili tonalliklar (fa major va sol major) hamda minor ladidan (lya, mi va re minor) misollar kiritiladi.

5 va 6-sinflarda mashqlar diapazoni kengayadi va kvarta va

seksta intervallari kiritiladi. Minor ladidagi qo'shiqlarni aytish malakalarini egallash ishi davom ettiriladi. Kuyning ritmik tuzilishi murakkablasha boradi: nuqtali notalar, 16 talik pauzalar, takt oldi va boshqalar uchraydi. 3 va 7-sinflarda uzunroq misollar o'quvchilar uddalab keta oladigan qo'shiqlar olinadi. Tonallik doirasi kengayadi. 2- belgilik tonalliklardan misollar (re major, si bemol major, sol minor) o'rganiladi. Septima (7) intervallari kiritiladi. Turli klassik asarlardan parchalarni, ya'ni temasi va kuyi simfoniya, konsert, sonata, operalardan rus va chet el kompazitorlari asarlaridan olingan romanslar va qo'shiqlarning nota nomlari bilan ijro etish, katta foyda beradi.

Yuqoridagilarning hammasiga yakun yasab, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

bolalarga qo'shiq o'rgatishda solfedjio malakasini egallash katta ahamiyatga ega. Qo'shiq darsida bolalarning musiqa saviyasini o'stiradigan bunday muhit ishga etarli baho bermaslik mumkin emas;

solfedjio ta'limi musiqa savodini, musiqa adabiyotini o'rganish va vokal-xor malakalarini egallash ishlari bilan sistemali ravishda izchillik bilan bog'lanib borishi kerak. Bunga har bir darsda 17-20 minut vaqt ajratilishi lozim.

notaga qarab qo'shiq aytishning ko'pgina turlari mavjud:

a) ilgari eshitgan kuyni so'z bilan aytish va uni bir vaqtda nota yozuvida uning yo'nalish harakatini ko'rsatish;

b) ilgari eshitib o'rgangan kuyni nota nomlarini aytib quyilash;

v) solfedjio;

Notaga qarab qo'shiq aytish 1-sinfdan boshlanadi va maktabni tugatguncha davom etadi.

Quyidagi 1 va 2-sinflarda notaga qarab qo'shiq aytishning dastlab 2-turi ko'pchilikni tashkil qilsa ham, lekin solfedjioga doir mashg'ulotlar ham o'tkaziladi. Yuqori sinflarda solfedjioning roli borgan sari ortib boradi va notaga qarab qo'shiq aytishning birdan-bir turi bo'lib qoladi. O'quvchilardagi solfedjio malakalarini oshirish ustida o'qituvchi juda katta ish olib borishi va ish metodini takomillashtirib turishi lozim.

O'quvchilarni qo'shiq kuylashga o'rgatish metodikasi

Qo'shiq - bu so'zni eshitishi bilan oq kishi ko'nglida tiniq, shirin, ma'sum va mahsun tuyg'ular oqa boshlaydi. Dunyoda qo'shig'i yo'q xalq yo'qdir, mabodo bo'lsa, u baxtiqarodir. O'zbek xalqi asrlar bo'yi o'z orzu-umidi, quvonchi, g'am-g'ussasi, armoni, dunyoqarashi, oddiy tashvishlari, barcha o'y-kechinmalarini samimiyatga havas qilsa arziydigan yuksak qo'shiqlarda ifodalab keladi.

Umuminsoniy milliy qadriyatlarni chuqur anglaganimiz sayin kattalarning folklor etnografik dastalari paydo bo'ldi. Ularning repertuar boyliklari asosan xalq qo'shiqlaridan tarkib topgan. Xalqimizning ma'naviy boyligi uning qo'shiqlarida namoyon. Xalq og'zaki ijodiga, uning eng muhim turi - qo'shiqqa bo'lgan hurmat va qiziqishimiz ortib bormoqda. So'nggi yillarda o'nlab bolalar qo'shiqlari yaratildi.

Qo'shiq mehr - muhabbatdan, sog'inchdan, g'amdan, umiddan tug'iladi. Ohang va shakl libosidagi insoniy to'yg'ular ifodasidir. O'zbek xalqining qo'shiqqa muhabbati cheksiz. Qo'shiq ijod salohiyati beqiyos, qo'shiq xazinasi boy, bu oltindan qimmat xazinaning katta qismini lirik, to'y yor-yor qo'shiqlari tashkil qiladi.

Qo'shiq o'quvchilar ongini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'shiq malakalarini shakllantirish musiqa darsi oldida turgan muhim masalalardan biridir. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatning rivojlanishida ijrochilik malakalarining shakllanishida, shu jumladan bo'lajak musiqachilarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq berib qolmasdan, balki eshitish qobiliyatining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatib nafas yo'llarini rivojlantiradi. Ma'lum qo'shiqni kuylash davomida o'qituvchi quyidagi vazifalarni hal etish yo'llarini belgilab olishi kerak.

-qo'shiq to'g'risida boshlang'ich tushunchalar orqali o'quvchilarda hissiy taassurotlar shakllantirish;

-ijro etish rejasini tuzishga qaratilgan musiqa yo'nalishini tahlil qilish;

-asarni kichik bo'laklarga bo'lib ishlash hamda aytish malakalarini shakllantirish yo'llarini rejalashtirish.

-ayrim jumalarni puxta o'rganish maqsadida takrorlash hamda ifodali kuylashga zamin yaratadigan mashqlardan foydalanish;

-asarning badiiy qimmatini tinglovchiga etkazib kuylash bu vazifalarni o'qituvchilarning bilim doirasini ya'ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan turib, oshirib bo'lmaydi.

Kuylash malakalarini shakllantirish har bir bolaning o'z xususiyati va qo'shiqchilik qobiliyatiga bog'liqdir. Chunki, bolaning maktabgacha musiqaga, qo'shiq aytishga bo'lgan munosabati undagi kuylash malakalarini shakllanishi sifatiga ta'sir qiladi.

Ma'lum bir asarning musiqiy o'nalishi orqali o'quvchilarda kuylash malakalarini shakllanib borishiga katta e'tibor beriladi. Buning uchun esa quyidagi bosqichlar orqali maqsadga erishish rejalashtiriladi:

a) oddiy va elementar kuylashni o'rganishga erishish;

b) oddiylikdan murakkablikka ko'chadigan mashqlar ustida ishlash;

d) hosil bo'lgan mahoratdan o'rinli foydalanish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa fani dars mashg'ulotlarida 1-sinfdan boshlab o'quvchilarga qo'shiq kuylash yo'llari o'rgatilib boriladi. 2-sinfning maqsadi o'quvchilarning nafas yo'llarida erkinlik hosil ilish, ovoz yorqinligini puxta ta'minlash, tovushlarda hamohanglikni yaxshilashdan iborat. Bunda turli gammalarda foydalaniladi. SHuningdek nafas olish va uni to'g'ri taqsim etish hamda to'la shakllantirish yo'llari ustida ish olib oriladi. Har ikkala bosqichda shakllangan quylash malakalari 3-sinfda yanada mustahkamlanadi. Chunki, bu bosqich davrida o'qituvchilar chuqur musiqiy his-tuyg'u tushunchasiga ega bo'ladilar, hamda qo'shiqni to'g'ri aytish yo'llarini ancha yaxshi o'zlashtirishga erishadilar. Bu davrga kelib, tovushlarning katta sakrashlarini o'z ichiga olgan ayrim mashqlardan bevosita foydalanish maqsadga muvofiqdir. Natijada o'quvchilarning kuylashlari orasida uzviylik, izchillik aloqasi vujudga keladi. Masalan, musiqa eshitish qobiliyatining rivojlanish darajasi ovoz

sifatiga, ovoz hosil qilish usuliga shuningdek, boshqa kuylash malakalariga ta'sir etadi. Mushaklarni shakllantirib borishda kuylash mashqlari tez-tez takrorlanib turish va o'quvchilarni guruhlarga bo'lib kuylashni joriy etish foydalidir.

Bundan tashqari o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish o'quvchilarning yosh va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish joizdir. Ma'lumki bunday vazifalarni oqilona hal etish, to'g'ri yo'lga quyish birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Bir qator tadbirlaridan o'rinni foydalanish zarurligini talabchanlik, o'ziga xos izlanish, tinimsiz mehnat, g'ayrat va shijoat ko'rsatish talab qilinadi.

Musiqa o'qituvchisining ana shu yo'sinda olib borgan ta'lim - tarbiya ishlari o'z samarasini beradi. O'quvchilarning tushunish qobiliyatlari bilan malakalari kamol topadi. musiqa ta'limi jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish ilg'or muallimlar tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, darsni turli bosqichlarga bo'lib o'tish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Maktabda ma'naviy tarbiyani davr asosida tashkil qilish musiqiy-ma'rifiy ishlarning mazmun va usullarini hamisha takomillashtirib borishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida musiqa fani o'qituvchisining darsni ijobiy olib borishi bilan birgalikda o'quvchilarni sinfdan tashqari musiqiy-ma'rifiy ishlarga tayyorlash hamda ularning musiqaga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish muhimligidan dalolat beradi.

Amaliyotda sinfdan tashqari musiqiy tadbirlarning ommaviy va to'garak shakllari mavjud bo'lib, ularni uyushtirish va o'tkazib turish, milliy san'at, ayniqsa nazariyasi va tarixning rivojlansh yo'li, mashhur musiqa namoyondalarining ijodiy merosini targ'ib va tashviq etishda muhim ahamiyatga ega. Zero musiqa mashg'ulotlarida bu masalani to'la hal eta olish bir muncha murakkabligi sinfdan tashqari musiqiy tadbirlar imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni taqozo etadi.

O'quvchilarni musiqa darsiga tezda jalb etib, shu darsga moslashish alomatlarini shakllantirib borishga ham e'tiborni qaratmoq lozim. Bu esa darsning sifatsiz bo'lishiga, o'quvchilarning puxta bilim bilan qurollanmay qolishiga barham

beradi. SHunga ko'ra darsning boshlanish qismida quvnoq, sho'x, jozibali biror musiqa asarini tinglash uchun tavsiya etilsa, bu musiqa o'quvchilarda ko'tarinkilik kayfiyatini hosil qiladi. Eng muhimi darsning sifati, qiziqarli o'tilishiga olib keladi. Foydalanilgan musiqa asarlari bolalar didiga, tinglash ehtiyoji, hamda fikrlash qobiliyatiga mos kelishi lozim. Ayni bir vaqtda o'qituvchi o'quvchilarda o'zaro xayrihohlik munosabatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berishi kerak. CHunki o'zaro yaxshi munosabatlarda o'quvchilarda nafaqat do'stlik, bir-biriga izzat-hurmatda bo'lish alomatlarini tarbiyalab qolmay balki qo'shiqni quylash, tinglash va uni esda saqlash ko'ngildagidek bo'lishini ta'minlaydi. SHu nuqtai-nazardan bilim va musiqa qobiliyati yaxshi bo'lgan aniq va tiniq quyilay oladigan hamda jarangdor ovozi o'quvchilarga musiqa qobiliyati o'rta yoki sust bo'lgan o'quvchilarni biriktirib kuylash orqali ulardagi o'zaro yordam va hamkorlik kuchaytiriladi.

Mamlakatimizning hamma umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham turli cholg'u asboblari mavjud emas. Ko'pgina maktablarning musiqa darslarida doira, nog'ora, g'ijjak, tanbur kabi o'zbek milliy cholg'u asboblaridan foydalaniladi. Agar bolalar milliy cholg'u mohiyatini tubdan bilishsa, o'rganishsa, ularda milliy madaniyatimizni egallashga bo'lgan qiziqish yanada ortib boradi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarda qo'shiq kuylash malakalarini to'g'ri shakllantirib borish, ularning ijrochilik imkoniyatlari hamda eshitish qobiliyatlarini rivojlantirib, estetik did va zavqlanish hissini uyg'otish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fani darsining tuzulishi

Musiqa darsining ichki tuzilishining asosiy xususiyati shundan iboratki, bir darsning o'zida Musiqa ta'limining uch mustaqil qismlari: jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqa savodi va musiqa tinglashni birlashtirish zarurligidadir.

Musiqa o'qituvchisi bu jarayonlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin emasligini, aksincha darsda bir-biri bilan uzviy aloqada bog'liq ravishda olib borish zarurligini yaxshi bilish kerak.

Bu uchala jarayonning musiqa darsida bir xil mavqei, ahamiyati bor. Jo'r bo'lib qo'shiq aytish jarayonida asosan vokal - xor mashqlari ijro etiladi va turli qo'shiqlar o'rganiladi. Bunga dars soatning eng ko'p qismi ajratiladi.

Musiqa savodini o'rganishda asosiy maqsad - bolalarning nota yozuvini o'rganish va o'zlashtirish; notaga qarab qo'shiq aytishni o'rganishdir. Musiqa savodini o'rganish yuzaki bo'lmashligi kerak. Musiqa savodiga doir barcha ma'lumotlarni jo'r bo'lib kuylash va musiqa tinglash materiallari asosida, musiqani o'rganish yoki musiqa asarini tahlil qilish jarayonida berishga intilish kerak.

Musiqa adabiyotini o'rganish bolalarda musiqaga nisbatan muhabbat uyg'otadi, ularning musiqaga bo'lgan iste'dodini, emotsiyasini o'stiradi va nihoyat qo'shiqni badiiy, ta'sirli, ifodali kuylashga katta yordam beradi. SHunday qilib, musiqa ta'limidagi barcha jarayonlarning maqsad va mazmuni dars tuzilishini belgilaydi. O'qituvchining bu jarayondagi mustaqil, bir-biriga bog'lanmagan holda olib qarashi metodik jihatdan katta xato bo'lib, natijasi samarali bo'lmaydi. Birinchi vbatda o'quvchilar bilimi mustahkam bo'lishiga bog'liqdir. Musiqa darsi dasturining hajmi esa ancha katta, lekin o'quv materiallarning mukammal o'rganish uchun bu vaqt ham etarli emas. O'quvchilarning darsdan oladigan bilimlari yaxshi o'zlashtirilgan va esda qoladigan bo'lishi kerak. Chunki, bir hafta ichida bolalar xotirasidan ko'tarilishi mumkin. Darsliklar o'quvchilarga o'tilgan materialni uyda qaytarib mustahkamlash uchun imkoniyat tug'diradi. Biroq musiqa darsining o'ziga xos xususiyati o'quv materiallarining asosan darsda o'zlashtirilishini talab qiladi. Barcha bilim va malakalar puxta o'zlashtirilmaguncha navbatdagi materialga o'tish mumkin emas. Shoshilish yaramaydi. Chunki har qanday tadqiqot bu payvandlash turidir. Payvand qilingan narsa tutib qolishi uchun tabiat qonuniga binoan ma'lum vaqt talab qilinadi. Yaxshilab chaynab eyilgan ovqatgina insonga oziq beradi.

O'quv rejasi bo'yicha musiqa darsiga ajratiladigan vaqt darsning tuzilishiga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil bo'lib, darsning hamma qismlarini bir-biriga chambarchas bog'lab olib borishni talab qiladi. Bu omillar o'qituvchi oldiga qator murakkab

vazifalarni qo'yadi, bularni muvaffaqiyatli hal qilish o'qituvchining pedagogik mahoratiga, musiqa darsini to'g'ri rejalashtirishga, darsning har daqiqasidan chuqur o'ylab, maqsadga muvofiq ravishda foydalana olishga bog'liqdir. Musiqa darsining tuzilishi xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu narsa o'quvchilarning yoshiga, ularning musiqiy qobiliyatiga, darsning maqsadi va mazmuniga bog'liqdir.

Turli sinflarda musiqa darsining tuzilishi bir-biridan keskin farq qiladi. Bu esa o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan ham bog'liqdir. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari darsda bir turdagi ish ustida o'z diqqatlarini uzoq to'xtatib tura olmaydilar. Shuning uchun bu sinflarda o'qituvchi darsda olib boradigan har xil ishlarni o'ylab, almashtirib turishi, bolalar diqqatini bir topshiriqdan ikkinchi topgshiriqqa "ko'chirib turishi" kerak. Masalan, darsni qo'shiq kuylashdan boshlash mumkin. So'ngra o'qituvchi yangi qo'shiq kuylab beradi va qo'shiq haqida suhbat o'tkazadi hamda uni o'rgatishga kirishadi. Birinchi misra o'rganib bo'lingach o'qituvchi yangi materialni tushuntirishga o'tadi yoki musiqa savodidan oldingi darslarda o'tilganlarni takrorlaydi. SHundan so'ng yangi qo'shiqni o'rgatishni davom ettiradi. Agar u katta misra bo'lmasa, ikkinchi misrasi ham o'rgatiladi (agar qo'shiq ikki misra bo'lsa shu holda o'rgatiladi). SHundan so'ng bolalarga qo'shiqdan keyin dam berish maqsadida ulardan birmabir so'rab chiqiladi va musiqa tinglash qismiga o'tiladi. Darsni ilgari o'rganilgan qo'shiqni takrorlash bilan tamomlash mumkin. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari uchun darslar og'ir bo'ladi va o'qituvchi bolalarni hushyorlik bilan kuzatib borishi, ular diqqat bilan quloq solib turibdimi yoki aksincha miyasi charchab diqqati sochilayaptimi - bu narsalarni o'z vaqtida payqash talab qilinadi. Dars shunga qarab olib boriladi.

Ba'zan o'qituvchining tajribasizligi natijasida ma'lum bir metodik ko'rsatmadan foydalanish natijasida, ma'lum darajada zarar etkazilishi mumkin. Masalan: birinchi sinflarda bolalarning diqqatini «ko'chirib turish» degan ko'rsatmaga amal qilib, uni hadeb qo'llayveradi. Chunonchi, bolalarga yoqib qolgan qo'shiqni o'rtaga turib birdaniga ularning diqqatini boshqa ishga ko'chirish kerak degan qarorga kelinadi, amalda esa bu qo'shiq bolalarga

yoqib qolganligi uchun ishtiyoq bilan aytayotgan bo'ladilar va qo'shiq ustida yana bir necha daqiqa samarali ishlashga qodir ekanliklari ayon bo'lib turadi. "Ko'chirib turish" qoidasidan noto'g'ri foydalanish tufayli bolalarga qanoatlanmaganlik, afsuslanish hissi tug'iladi. Bolalarga yoqib qolgan (qo'shiq) qo'shiq o'rniga o'qituvchi boshqa mashq bilan shug'ullanishni taklif qiladi. Agar boshqa mashq har qancha qiziq bo'lsa ham, bu topshiriqni bolalar noiloj bajaradilar. Bu albatta, o'qituvchining metodik xatosi bo'lib qolishi ehtimoldan holi emas.

Biron musiqiy mashq turiga darsda bir necha daqiqa vaqt ajratish kerakligini aniq aytish qiyin. Bu narsa o'qituvchiga, uning metodiga, bolalarni qiziqitira olishga, shu bilan birga darsning mazmunligi va bolalarning holatiga bog'liqdir. Dars rejasini tuzayotganda o'qituvchi har turdagi ishlarining qay tartibda ketma-ket kelishini, engil va murakkab materiallarning qaysisini oldin, qaysisini keyin kelishini, so'raladigan o'rinlari va darsning har bir qismiga taxminan qancha vaqt ketishini hisobga olishi kerak.

Birinchi va ikkinchi sinflarda darsning ko'p qismi (25 minuti) jo'r bo'lib qo'shiq quyilashga ajratiladi, chunki shu yoshdagi bolalar uchun eng oson va qiziqarli ishdir. Bu sinflarda qo'shiq o'stida ishlayotganda o'qituvchi o'yin elementlaridan, ritmik harakatlardan, ososn riqslardan va xor ovozlardan foydalanishi mumkin, chunki bularni ham bolalar yaxshi ko'radilar. Birinchi va ikkinchi sinf bolalarni uncha katta bo'lmagan musiqa asarlarini zo'r ishtiyoq bilan tinglaydilar. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy o'quvini o'stirish va nota yozuvlarini o'rganishdan iboratdir. Musiqa tinglash va musiqa savodi qismiga darsda taxminan 10 minutdan vaqt ajratiladi.

SHunday qilib, 1-sinflardagi dars tuzilishning asosiy xususiyati dars davomida bolalar diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga ko'chirish, ya'ni dars jarayonlarini almashtirib turishdir. Yuqori sinflarda bolalarning diqqati hiyla barqaror va bir joyga to'plangan bo'ladi. Masalan: 3-4 boshlang'ich sinflarda darsning ko'proq qismini bitta topshiriq o'stida ishlashga ajratish mumkin. Bunga yangi qo'shiq o'rganishyoki kompozitorlarning ijodi haqida

suhbat o'tkazish bilan birga uning asarlarini ko'rsatish yoki musiqa savodini yozma ish o'tkazish kabi ishlar kiradi. Bu sinflarda musiqa savodini yozma ish o'tkazish kabi ishlar kiradi. Bu sinflarda musiqa savodini o'rganish uchun vaqt birmuncha ko'payadi (10 minutgacha). Biroq darsning asosiy qismi xor bo'lib qo'shiq aytishga ajratiladi. 5-6 sinflarda musiqa darsini 'tkazish o'qituvchiga hiyla qiyindir. Bu hol o'qituvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. 11-12 yoshda bola organizmi kuchli rivojlana boshlaydi. Bu yoshda bolalar birmuncha ta'sircha bo'ladi. Shuning uchun ham 5-6 sinflarda intizomni saqlash ancha qiyin bo'ladi. Bu kishining hissiyotini kuzatadigan musiqa darslarida yaqqolnamoyon bo'ladi. Bolalikdan o'smirlikka o'tish yoshidagi bolalar juda aktivlashadilar. Kuch-quvvatlari qaynab toshadi, o'z qobiliyat va kuchlarini biror narsaga nisbatan qiziqish paydo bo'la boshlaydi. Agar bu omillardan mohirlik bilan foydalanilsa bolalarning kuch-quvvatlari to'g'ri yo'lga solinsa, ular yaxshi natijalar berish muqarrardir.

11-12 yoshlik bolalarning ovozi anchagina kuchli o'la boshlaydi. Yorqin va jaranglab chiqadi, tembrlari aniqlanadi. Bu narsa qiziqarli qo'shiq repertuarini tanlash, ovozi yaxshi, ifodali jaranglashishiga erishish, shu bilan birga o'quvchilarning mazkur predmetga qiziqitirish, ularda havas o'yg'otish imkonini beradi. O'qituvchini o'z obro'yiga ega bo'lishi ham katta ahamiyatga ega. Bu yoshdagi o'quvchilar o'z o'qituvchilariga juda ham tanqidiy ko'z bilan qaraydilar, bir xil o'qituvchilarni bilimdonligi va yaxshi sifatleri uchun hurmat qilsalar, boshqalarini shu xususiyatlari bo'lmaganligi uchun hurmat qilmaydilar. Agar musiqa o'qituvchisi cholg'u asbobida yaxshi chalsa, qo'shiqni yaxshi, qiziqarli kuylasa, musiqa va kompozitorlar haqida so'zlagan hikoyalari bilan o'ziga maftun etsa, bunday o'qituvchilar bolalar hurmatiga sazovor bo'ladilar.

Agar boshlang'ich sinflarda musiqa darsi butunlay yoki etarli ma'lumoti bo'lmagan o'qituvchi tomonidan juda past saviyada o'tkaziladigan bo'lsa, u holda 5-6 sinflarda musiqa o'qituvchisi yana bir qiyinchilikka duch keladi. Natijada musiqa darsi dasturi bajarilmay qoladi va bu xatoni yuqori sinflarda tuzatishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda o'qituvchining qoloq o'quvchilar bilan olib

boradigan qo'shimcha darslari katta ahamiyatga ega. Chunki bunday o'qituvchi sinfning olg'a tomon harakat qilishiga to'siq bo'lishgina emas, balki ko'pincha intizomning buzilishiga ham sababchi bo'ladi.

5-sinflarda dars tuzilishi va vaqtni taqsimlash taxminal 4-sinflardagiga o'xshaydi: xor bo'lib qo'shiq aytishga 25 minut, musiqa savodiga va musiqa eshitishga 20 minut vaqt ajratiladi.

Bolalarning o'sib-ulg'ayib borish, o'z diqqatlarini bir joyga uzoq yig'a olishi, fikrlash qobiliyatining va ongliligining o'sishi darsni qismlarga bo'lmay, bir bo'limni to'liq o'tishga imkoniyat beradi. Masalan: bitta darsni to'lig'i bilan musiqa tinglashga bag'ishlash mumkin. Avvallari bir darsda bu bo'limga 5 - 10 minut ajratiladi va bu vaqt ichida kompazitor yoki musiqa asari haqida juda qisqagina ma'lumot berish mumkin. Bu bo'limga to'liq bir davrning ajratilishi o'quvchilarni opera janri bilan tanishtirganda bir yoki bir necha operalardan parchalar keltirish, yoki bir kompazitorning ijodi bilan tanishtirish mumkin. Bunday darslar suhbatli konsertida (ertaliklarda, ota-onalar oldida va shu kabi paytlarda) chiqish uchun bir chorak yoki yarim yil ichida o'rganilgan qo'shiqni badiiy jihatdan qayta ishlashni asosiy maqsad qilib qo'yish mumkin. Musiqa savodini o'rganishga butun bir darsni ajratish noto'g'ri bo'ladi. Ma'lumki, bu dars kam emotsiyali bo'lib, ularga bu darsni tinglash og'ir va qiziqarli bo'lmaydi.

7-sinfda bollarga musiqa ta'limini berish tugallanadi. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchi o'quvchilardan ma'lum bir estetik did hosil bo'lishi, turli xil kompozitorlarning ijodi haqida mustaqil fikr yurgiza bilishi, nota yozuvlarini bemalol o'qiy oladigan, notaga qarab qo'shiq kuylay oladigan bo'lishi kerak.

7-sinfidagi qo'shiq darslarida asosan 1-sinf dan 6-sinf gacha olgan bilim va malakalari aniqlanadi va chuqurlashtiriladi.

13 - 14 yoshli bolalarni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi, musiqa o'qituvchisiga qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi. Bu yoshdagi o'g'il bolalar ovozig a mutatsiya boshlanadi, natijada sinfdagi bolalarning bir qismi butunlay qo'shiq aytmaydigan yoki kuylasalar ham o'qituvchi nazorati ostida ehtiyotkorlik bilan kuylaydilar. Bundan tashqari sinfd a bolalar ovozi normal qo'shiq

aytishni davom ettirayotgan, mutatsiya belgilari hali namoyon bo'lmagan bolalar ham bo'ladi. Qizlarning ovozida uncha o'zgarish bo'lmasa ham organizmning umumiy o'sishi natijasida ovoz apparati o'zgaradi. Bu hol ham unga ehtiyotlik bilan muomalada bo'lishni talab qiladi. Bu sinflarda qo'shiq kuylash darsi tuzilishidagi xususiyat shundan iboratki, bunda xor bo'lib qo'shiq aytishga oz vaqt (15 - 20 minut) ajratib, qolgan vaqtni esa musiqa tinglash va musiqa savodiga, qo'shiq aytish katta vokal vazifasini talab qilmaydi, chunki bunda xor malakalarini o'stirishni ko'zlamaydigan diapazon kichik va kuylash uchun qulay bo'lgan mashqlar tanlanadi. Bundan tashqari, yuqori sinflardagi o'quvchilarning solfedjiodan etarli tayyorgarligi bo'lishi kerak, shundagina butun sinfning notaga qarab qo'shiq aytishini yakka yoki guruhlarga bo'lib solfedjio qilish bilan almashtirib turish kerak.

Bu yoshdagi bolalar musiqaga, musiqa adabiyotini o'rganishga qiziqadilar. SHuning uchun darslarning ko'p qismini (yiliga 5-7) darsni kompozitorlarning hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlash mumkin.

Bu sinflarda xor qo'shiq kuylash repertuarini to'g'ri tanlash shu bilan birga o'quvchilarning ovozig a qarab, bunga mutatsiyadan o'tgan bolalar xor partiyalarida birinchi I-aktava past, erkak ovozi bilan aytadigan qilib taqsimlanishining ahamiyati katta. 7-sinf o'quvchisining asosiy maqsad va vazifa hamohang barqaror 2 ovoqli qo'shiq aytishga erishishdan iboratdir. Demak, 7- sinfdagi musiqa fani o'qituvchilariga beriladigan metodik ko'rsatma shundan iboratki, o'qituvchi xor bo'lib qo'shiq kuylashni boshqa turdagi mashqlar bilan navbatma-navbat olib borishi, shu bilan birga darsning mashqlar bilan qimmatini tushurmasligi, uni qiziqarli qilib o'tkazishi kerak.

Albatta, bu sinflardagi darslarning tuzilishi ko'p darajada sinfning tarkibiga bog'liqdir. SHundan sinflar bo'ladiki, unda o'quvchilarning ko'pchiligi qizlar bo'ladi va ba'zi sinflarda mutatsiya boshlangan o'g'il bolalar deyarli bo'lmaydi. Bunday hollarda dars tuzilishini 5-6 sinflardagidek tuzish metodi to'g'ri tanlanganidagina va bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadigan musiqa darslarida yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darsi turlari

O'qituvchi musiqa darslarini tuzishda darslarining mazmunini xilma-xil qilish bilangina emas, balki uning tuzilishini ham turlicha o'tkazishga intilishi kerak. Musiqa darsi bir qolibda tuzilmasligi kerak. O'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashishi musiqa darslarini o'tkazishning shakllarini va metodlarini qidirishi va yaxshi natijalariga erishishi mumkin.

Musiqa darslarini bir necha tiplari mavjud. Darsning tipi uning maqsadi, mazmuni, tuzilishi bilan belgilanadi. Bunday dars musiqa ta'limining barcha 3-qismini xor bo'lib qo'shiq kuylash musiqa tinglashdan tashqari o'tilgan darslar ham qaytariladi.

Bunday darslarda bolalarga beriladigan dars jarayonidagi vazifani to'g'ri taqsimlash katta ahamiyatga ega. Agar tushuntiriladigan material murakkab bo'lsa uni ixchamlashtirish va qaytarishni bolalarni zo'riqtirmay, ularga ijodiy dam beradigan qilib tuzish kerak. Yangi material bolalarga og'irlik qilmasa, uni ko'proq berish mumkin, qaytarish vaqtida esa faqat murakkab masalalar ustida to'xtalish zarur. Bundan tashqari musiqa darslarini bir-biri bilan uzviy bog'lash vazifasi jihatidan to'g'ri taqsimlab olib boriladigan 3 ta bo'lim mavjudligini hisobga olmoq kerak. SHuning uchun birinchi qism bo'yicha yangi material o'tilsa, qolgan qismlar bo'yicha qaytarish tavsiya etiladi. Masalan: agar yangi qo'shiq o'rgatilmayotgan bo'lsa, musiqa savodi bo'yicha o'tilganlarni qaytari kerak. Mumkin qadar yangi qo'shiq materiali asosida o'tilganlarni qaytarish kerak bo'ladi.

Agar darsda oldingi darsda o'rganilgan qo'shiq bo'yicha mashq davom ettirilsa, o'qituvchi musiqa savodi bo'limi yuzasidan yangi material o'tishi mumkin.

Musiqa tinglashda, odatda dam beruvchi material sifatida foydalaniladi. Agar dars yangi materiallar bilan to'lgan bo'lsa, musiqa tinglashda bolalarga dam berish maqsadida ularga ma'lum bo'lgan asarlarni qaytarish joizdir. Jumladan, darsda engil material berilsa, yangi asarni tinglash mumkin.

Darsda o'quv materialini qanday taqsimlanishini aniq qilib ko'rsatish, qaysi birini oldin kuylash kerakligini: xor bo'lib qo'shiq

aytishnimi yoki musiqa tinglashnimi tavsiya etish qiyin. Bu narsa ko'p jihatlarga bog'liq va tuzilishi bir xil, aralash tipdagi darslarda variantlar haddan tashqari ko'p bo'lishi mumkin.

Biroq aralash tipdagi ko'pchilik musiqa darslarining tuzilishi harakterli bo'lgan ba'zi umumiy prinsiplarni quyidagicha olib ko'rsatish mumkin:

1. Darsning birinchi yarmi eng unumli bo'ladi, chunki, hali bolalar charchamagan va diqqati bir (joyga) erga to'plangan bo'ladi. SHuning uchun darslarni rejalashtirishda yangi va murakkab materiallarni (bu qaysi qismga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar) darsning birinchi yarmida o'tishni nazarda tutish kerak;

2. Darsda charchashni hordiq berish bilan, murakkab materiallik engilroq material bilan aqliy mehnatni amaliy mashg'ulotlar bilan almashtirib turish kerak;

3. Darsga har uchala qismni kiritish kerak. Ayrim hollarda kuyi sinflardagi darslarga musiqa savodini yoki musiqa tinglashni kiritmasa ham bo'ladi. Lekin hamma sinflarda albatta xor bo'lib qo'shiq aytishni kiritish kerak;

4. Darsda asosiy o'rinni qo'shiq ustida olib boriladigan mashqlar egallashi lozim;

5. Har bir musiqa darsida 5 - 7 daqiqa qo'shiq aytishga ajratish kerak. Eng yaxshisi, darsni qo'shiq aytishdan boshlash kerak. Chunki bu narsa bolalarni yaxshi uyushtiradi va ruxini ko'taradi;

6. Har bir musiqa darsni notaga qarab qo'shiq aytish va o'quvini o'stirish mashqlar uchun vaqt ajratish kerak;

7. Darsda olib boriladigan hamma mashqlarni bir-biri bilan bog'lab olib borish va uni umumiy bir maqsad ga bo'ysundirish kerak;

8. Musiqa tinglash va qo'shiqlarni qaytarish odatda dars oxirida o'tkaziladi;

9. Har bir darsda o'tiladigan material takrorlanishi va mustahkamlanish kerak;

SHu prinsiplar asosida dars tuzilishini quyidagi eng ko'p tarqalgan sxema bo'yicha tuzish mumkin.

a) qo'shiq kuylash

b) nota savodi (yangi material va notaga qarab kuylash)

v) qo'shiq o'rganish (ishning davomi).

g) musiqa tinglash (yangi material).

d) ilgari o'rganilgan qo'shiqlarni o'rganish

yoki

a) qo'shiq kuylash.

b) yangi qo'shiq o'rganish

v) musiqa savodi (takrorlash) o'quv o'stirish mashqlari, amaliy

topshiriqlar, notaga qarab qo'shiq kuylash,

g) qo'shiqni qaytarish,

d) musiqa tinglash (yangi material)

Darsning keyingi tipi aralash tipga qaraganda tajribada kam uchraydi, bu shunday darski, bunda o'qituvchi hamma qism bo'yicha yangi material ustida ishlaydi.

Bunday tipdagi darslarini o'rganishdan o'qituvchining bolalarga berilgan yangi materialining umumiy hajmi haddan tashqari ko'p bo'lmasligi kerak. Darsda uchala qismning bo'lishi bolalarning zo'riqmasdan osoyishta bilim olishga imkoniyat tug'diradi. Bunday vaqtda darsdan kuztilgan ma'lum bir maqsad bo'ladi. Bu esa darsning hamma qismlarini bir-biri bilan bog'lab olib borishga imkoniyat yaratadi. Masalan: 1-sinfdagi dastlabki darslar bir musiqadagi registr'larni o'rgatishga bag'ishlanadi. Bir oz qo'shiq aytilgandan keyin o'qituvchi bolalarga tovushlar baland pastligi jihatidan bir xil: baland, past, o'rtacha bo'lishini ko'rsatadi. Musiqa adabiyotidan olingan yorqin kontrast misollar asosida (Rebikovning "Ayiq". CHaykovskiyning "To'rg'ay" qo'shig'i, Glinkaning "Chernamor" marshi) bolalarda tovush balandligi haqidagi tushuncha mustahkamlanadi va aniqlanadi. So'ngra o'qituvchi yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida uning kuyini turli registrda chaladi va bolalarda bu qo'shiqni qushcha, fillardan, agar ular qo'shiq aytishni bilishsa, qanday tovushlar chiqishini xayollarinigdan o'tkazib, fikran tasavvur qilib ko'ringlar deydi.

Dars tuzilishini tahlil qilib, uning uch qismdan iborat bo'lishini ko'rdik:

1. Musiqa savodida - musiqadagi tovush balandligini tushuntirish.

2. Musiqa tinglashda "Ayiq" va "To'rg'ay" qo'shig'i asarini ko'rsatish

3. Xor bo'lib qo'shiq aytishda yangi qo'shiqni o'rganish va aytish.

Darsning uchala qo'shiq aytishda - yangi qo'shiqni o'rganish va aytish va ularning bir maqsadga qaratilganligi sababli bunday yangi materiallar bilan to'lgan bo'lsa ham, bolalarga og'irlik qilmaydi. Darsning navbatdagi tipi - o'tganlarni qaytarishdir. Bu darslar uchala qismni ham o'z ichiga qamrab oladi va to'lig'i bilan o'tilgan o'quv materiallarini qaytarishga va mustahkamlashga bag'ishlanadi. Ular odatda chorak oxirida o'tkaziladi. O'quv yilining oxirida (4-chorakda) bunday darslar bir necha marta o'tkaziladi. Chunki bir yilda o'tilgan barcha materiallar qaytariladi. O'tilganlarni qaytarish asarning tuzilishi o'zining ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi. Materiallarni shunday o'ylab tanlash kerakki, o'tilganning eng asosiylari va zarurlari qaytarilmay qolmasin. Bundan tashqari qaytarish vaqtida bolalarga yangi faqat va ma'lumotlarni berish bilan ularning bilimlarini chuqurlashtirishga va kengaytirishga harakat qilinishi kerak. Shunday qilingandagina qaytarish darslari jonli va qiziqarli bo'ladi.

Agar qaytarish darslari chorak oxirida o'tkazilsa, unda ular hamma bo'lim materialini: jo'r bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglashni o'z ichiga oladi. O'quv yilining oxirida qaytarish darslari 2 yoki hatto bir qismdan iborat bo'lishi mumkin: masalan: darslardan birini faqat xor bo'lib qo'shiq aytishga, ikkinchisini esa musiqa savodi va musiqa tinglashga bag'ishlash zarur, yoki birinchi dars o'z ichiga xor bo'lib qo'shiq kuylashni va musiqa savodini, ikkinchi dars esa xor bo'lib qo'shiq kuylash va musiqa tinglashni o'z ichiga oladi.

Qaytarish darslari va jumladan aralash tipdagi darslarning rejasini tuzishda o'qituvchi darsning hamma qismlarini birlashtirib yagona maqsadga qaratishi, bolalarning yoshi va musiqa qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Masalan: musiqa tinglashda qaytarishni topishmoqli konsert yoki o'tilgan materiallar yuzasidan viktorinalar o'tkazib turishi kerak. Bir necha kompozitorlarning portretlarini olib kelib, bolalardan

ularning ismi va familiyalarini, hamda yozgan asarlarini so'rash mumkin.

1-2 sinflarda quyidagi, uncha qiyin bo'lmagan savollarni olish mumkin:

"Bolalar albomini" kim yozgan?;

Siz P.I.Chaykovskiyning "Bolalar albomi"dan qaysi pesalarni bilasiz?;

Sinfda qanday xalq qo'shiqlarini aytgansiz yoki tinglagansiz?;

Bu qo'shiqlar nima uchun xalq qo'shiqlari deyiladi? Ularni kim ijod etgan?.

Yuqori sinflarda savollar ancha murakkabroq bo'lishi mumkin:

Birinchi o'zbek operasini kim yozgan?;

O'zbekiston Respublikasi madhiyasini she'r muallifi kim va musiqa bastakori kim?;

"Ivan Susanin" operasining avtorini kim?;

Siz Musorgskiyning qaysi asarlarini bilasiz?;

CHaykovskiyning 1-fortepiano konsertini ijro etish bilan dong taratgan amerikalik pianinachi kim edi? va hokozo.

Qaytarish darslarida nazorat ishlari darslari ham kiradi. Nazorat ishlar ko'pincha musiqa savodi bo'yicha o'tkaziladi. Uning uchun bir darsni boshdan oyoq nazorat darsi qilish shart emas. Dars odatdagadek tuziladi, lekin darsning 10 - 15 minuti musiqa savodidan nazorat ishni bajarishga qaratiladi. Nazorat topshiriq ritmik yoki o'quv diktanti, intervallar yozish bo'lishi mumkin. Nota misolidagi o'lchamni aniqlash, misoldagi takt chizig'ini joylashtirish, bir notada intervallar yozish va shular tipidagi yozma topshiriqlar hamda bo'lishi mumkin.

Hamma qismlar bo'yicha kontrol darsi o'tkazish mumkin, lekin bu ancha murakkab ish bo'lib, maktab tajribasida ham qo'llaniladi. Kontrol ishlarga juda berilib ketish ham yaramaydi, chunki ular ko'p vaqtni talab qiladi.

Bugungi kunga kelib pedagogika muassasalari chuqur milliy mazmunga ega bo'lgan "Musiqqa" dasturlariga juda ham muhtoj bo'lib turibdi. Bunday zarur muammolarni tezroq hal qilish uchun barcha mas'ul kishilar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Hattoki, bunday milliy dasturlardan ba'zi birlari nashrdan chiqib, o'quv

tarbiya jarayoniga tadbiiq qilinmoqda va o'zining dastlabki ijobiy natijalarini bera boshladi.

Shu o'rinda T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti "Musiqiy badiiy ta'lim va tarbiya" bo'limi olimlari (D.Omonullaev, Sh.YOrmatov, O.Ibrohimov) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa dasturlari"ni aytib o'tish mumkin. Bu dasturda ko'rsatilganidek, I-IV sinflarda "Musiqqa" darslarining umumiy mavzusi "Musiqqa va hayot" dasturning bosh mezoni, asosiy maqsadi va mazmuni sifatida muhim o'rin tutadi. SHundan kelib chiqqan holda, har bir sinf "Musiqqa" mashg'ulotlari turli xil yillik va choraklik mavzularga bo'linadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinfda musiqa mashg'ulotlarining mavzusi "Biz musiqani sevamiz" deb nomlanadi va u quyidagi chorak mavzulariga bo'linadi: I-chorak - "Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar"; II-chorak - "Vatanimizni madh etamiz"; III-chorak - "Nota va notalar yozilishi"; IV-chorak - "Hushnavo milliy cholg'ularimiz".

II-sinf - yil mavzusi: "Ijrochilik turlari, musiqaning ifoda vositalari". Bu mavzu quyidagi chorak mavzularga bo'linadi: I-chorak - "Yakkanavozlik va jo'rnnavozlik"; II-chorak - "Xonandalar va cholg'uchilar ansambli"; III-chorak - "Kuy nima? Kuyda nimalar ifodalanadi?"; IV-chorak - "Musiqaning ifoda vositalari".

III-sinf - yil mavzusi: "Musiqada shakl va mazmun" deb atalib, quyidagchia mavzularga bo'linadi: I-chorak - "Musiqada pauzalar"; II-chorak - "Ansambli turlari"; III-chorak - "Musiqada ifoda vositalari"; IV-chorak - "Oddiy musiqa shakllari".

IV-sinf - yil mavzusi: "O'zbek xalq musiqa ijodi". Bu mavzu: I-chorak - "Xalq aytimlari va cholg'ulari"; II-chorak - "Bayram va marosim qo'shiqlari"; III-chorak - "Mavsum va marosim qo'shiqlari"; IV-chorak - "Bahor fasliga oid qo'shiqlar" kabilarga bo'linadi.

V-sinf - I-chorak: "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri. Xor san'ati"; II-chorak: "Simfonik orkestr. Musiqada vokal - simfonik janrlari"; III-chorak: - "Sahnaviy musiqa asarlari -

balet va raqs san'ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalar"; IV-chorak: - "Opera san'ati. O'zbek musiqasida opera janri".

VI-sinf - I-chorak: - "Mumtoz musiqa haqida tushuncha" II-chorak: - "Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari", III-chorak: - "Sharq xalqlari mumtoz musiqasi", IV-chorak: - "Yevropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv".

VII-sinf - I-chorak: - "Xalq musiqasining mahalliy uslublari", II-chorak: - "Maqomlar haqida umumiy tushuncha", III-chorak: - "O'zbek musiqasining jahon musiqa san'atida tutgan o'rni", IV-chorak: - "O'zbekistonning musiqa madaniyati"

Hozirgi kunda bunday maktab dasturlari asosida dars o'tishga layoqatli va har tomonlama kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilarni tarbiyalash to'laqonli echimini topmagan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish oliy o'quv yurtlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darsi jarayonida o'quvchilarning musiqa san'atiga bo'lgan munosabatlari muntazam o'rganilib boriladi. SHunday o'rganish natijasida quyidagilarga aniqlik kiritildi: 83% o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyoji zamonaviy xalq va estrada musiqa janrlariga yo'naltirilgan. Qolgan 17% o'quvchilar o'z ijobiy munosabatlarini kompozitor va klassiklarning musiqasiga bildirdilar. O'quvchilar musiqaning jamiyatdagi vazifasini baholab, birinchi o'ringa (56%) musiqani ovunish vositasi sifatida, ikkinchi - (33%) muloqot vositasi, uchinchi - (29%) bilish vositasi, faqatgina 8% o'quvchilar musiqa badiiy va ahloqiy tarbiya vositasi ekanligini bildirdilar. O'quvchilarning musiqaga bo'lgan munosabatlarini aniqlash bilan bir qatorda, ularning dastlabki bosqichdagi musiqiy (eshitish, ritmni his etish, xotira, musiqa uquvi va hokazo) qobiliyatlari ham aniqlandi. Har yili qabul qilinayotgan o'quvchilarning asosiy qismida musiqiy tayyorgarlikning quyi darajadaliigi, musiqiy qobiliyat, bilim, qiziqish va didning etarlicha rivojlanganligi ma'lum bo'ldi. Ulardan: 50-55% o'quvchilarning eshitish va ovoz o'rtasidagi muvofiqlik yaxshi emas, musiqiy imkoniyatlari chegaralangan; 25-30% da vokal-xor malakalari sust, metroritmik hissalar tuzulishlarini aniq his qilmaydi, hamma vaqt ham jo'rsiz

ohangni to'g'ri qaytara olmaydi va hokazo.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqaga bo'lgan munosabatlari va ularning musiqiy qobiliyat darajasi, shuningdek, ularda musiqiy-pedagogik tayyorgarlikning hozirgi vaqtidagi ahvolini aniqlash shuni ko'rsatdiki, birinchidan, umumiy o'rta maktab 5-7 sinf o'quvchilarida musiqiy savodxonlik darajasining pastligi va ularning musiqiy-pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar o'rtasida nomuvofiqlik, ikkinchidan, ayrim o'quvchilarni musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni bilan maktab "Musiqqa" dasturida qo'yilgan talablar o'rtasida uzviylik va izchillik takomillashtirilmoqda. Albatta, ayrim musiqa qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. O'quvchilar musiqaga ixtisoslashgan maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida musiqiy-nazariy fanlari bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlar umumiy o'rta ta'lim maktabi "Musiqqa" fani dasturlari mazmuni bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari "Musiqqa" dasturining o'qitirish xatida Musiqqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi bugungi pedagogik tafakkur talablariga muvofiq belgilangan, uning mazmuni milliy musiqamizning boy merosi va rang-barang an'analari asosida boyitilgan, o'rganiladigan mavzular tizimi esa D.B.Kabalevskiy dasturidan farqli ravishda milliy musiqamiz qonuniyatlariga tayangan xolda vujudga keltirilganligi ta'kidlangan. Shunga ko'ra, hozirgi kunda talabalar bilan olib borilayotgan musiqa mashg'ulotlari, musiqa fanlarining o'zaro bog'liqligi tamoyiliga asosan, o'zbek milliy musiqa san'atining boy merosini o'rganish va uning didaktik tamoyillarini bilish talab etiladi.

III BOB: MUSIQA O'QITISH METODIKASI FANINING ASOSIY MAZMUN, SHAKL VA METODLARI

"Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar

O'qituvchi shaxsini shakllantirishning samaradorligi uning tarbiya jabhasida jamiyat talablariga, bugungi kun o'qituvchisi tavsifnomasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Tavsifnoma o'qituvchining asosiy vazifalarini, zamonaviy milliy maktabning unga qo'yayotgan talablarini aks ettiradi, nazariy bilimlar doirasini, pedagogik ko'nikma va malakalarini, uning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'z ichiga oladi. U oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarni andazalashtiradi. SHu tariqa o'qituvchi tayyorlashning yo'nalishini dastur belgilab beradi. Tavsifnoma asosida o'qituvchining normativ andazasi bo'lgan, kasbiy tavsifnomasi ishlab chiqiladi.

O'zbekiston respublikasining "Uzluksiz pedagogik ta'lim konsepsiyasi", "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqqa ta'lim-tarbiya konsepsiyasi", "Ta'lim to'g'risida"gi qonun singari muhim ilmiy va rasmiy pedagogik hujjatlarning e'lon qilinishi, zamonaviy o'qituvchi shaxsi va uning kasbiy sifatlari tavsifnomasini ishlab chiqishga, uni tayyorlash va shakllantirish jarayoniga yangicha yondashishni taqozo qilmoqda.

Umumiy kasbiy-pedagogik ko'nikmalar haqidagi masalani o'rganish bir-butun tuzulmadan har qanday o'qituvchiga zarur bo'lgan umumpedagogik ko'nikmalarni, musiqiy-pedagogik va maxsus ko'nikmalarni ajratib olishga imkon beradi. "Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi musiqiy-pedagogik faoliyati tavsifnomasida yalpi musiqiy-pedagogik va maxsus bilim ko'nikma va malakalar ko'rib chiqiladi.

"Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishining kasb tayyorgarligini shakllantirish jarayonida musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning oxirgi natijasi maktabda olib boriladigan musiqiy-tarbiyaviy ishlarga tayyorligiga qarab aniqlanadi. Oliy ta'limda o'qishni boshlash vaqtidagi holat dastlabki bosqich bo'lib

hisoblanadi. Musiqiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonidagi natija oxirgi holatning dastlabki holatga nisbati orqali ko'rinadi va pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi bilan tavsiflanadi.

Aniq pedagogik harakat va operatsiyalarni amalga oshirish uchun bitiruvchi talabada bo'lajak musiqqa o'qituvchisining tavsifnomasi talab qiladigan bilim, ko'nikma va malakalar bo'lmog'i zarur.

Shunday qilib, o'qituvchi pedagogik faoliyatini tizimli tahlil qilish, zamonaviy musiqqa o'qituvchisi andazasini ishlab chiqish sohasidagi ilmiy ishlarni o'rganib chiqish natijasida quyidagi xulosalarga keldik. Musiqqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik tarkibi: o'z kasbiga munosabat, kasbiy bilimdonlik, hissiy-emotsional, axborot berish, loyihalash, tashkilotchilik, muloqot qilish, tadqiqotchilik, tahlil qilish va umumlashtirish kabi prinsipilarni o'z ichiga oladi. **1. O'z kasbiga bo'lgan munosabati.** Ushbu prinsip bo'lajak musiqqa o'qituvchisining o'z kasbiga va musiqqa san'atiga mehr-muhabbati, unga bo'lgan qiziqishi va ma'naviy ehtiyoji, ijobiy pedagogik motivatsiyasida namoyon bo'ladi. O'z navbatida o'qituvchilik kasbiga ijobiy munosabatda bo'lish uning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining takomillashuviga bevosita yordam beradi.

Psixolog va pedagog olimlar qiziqishni faoliyatning eng zarur motivi, shaxsni muayyan faoliyatga undovchi sabab deb hisoblaydilar. Ularning umumiy fikricha, qiziqish shaxsning biror bir faoliyat bilan shug'ullanishga ehtiyoj singari namoyon bo'ladi va unga qoniqish bag'ishlaydi. Qachonki, barcha ruhiy jarayon shiddatli tus ola boshlasa, qiziqish shaxs faoliyatining uyg'otuvchisiga aylanadi. Faoliyat esa, qiziqarli tus oladi va unumli bo'ladi. Qiziqish barcha ruxiy jarayonlar va funksiyalar: idrok, diqqat, xotira, iroda va boshqalarga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qiziqishga asoslangan diqqat uzoq bo'ladi. SHuning uchun ham qiziq narsani xotirada saqlash oson kechadi. Qiziqish shaxsning ish qobiliyatini kuchaytiradi va qiyin o'zlashtiriladigan materialni ham tez tushunishga imkon beradi. Insonning ijtimoiy ehtiyojlar asosida yuzaga kelgan his-tuyg'u va qiziqishlari uni faoliyatga majbur etadi va shu faoliyatning motiviga aylanadi. Har

qanday kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxsning ichki holat va yo'nalishini aniqlashda omil juda katta ahamiyatga ega. Motiv muomalani tartibga solib turuvchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu esa, insonning qiziqishini kuchaytirib, kasb mahoratini oshirishday muhim ehtiyojini qondirish yo'lidagi harakatga olib keladi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida motiv bir qancha mazmun kasb etadi: o'zining bilim va ko'nikmalariga xolis munosabatda bo'lishga olib keladi; kasbiy qiziqishlarining chuqurlashuviga yordam beradi; fikrlash jarayonini tezlashtiradi; mustaqil bilim olishga ehtiyojning namoyon bo'lishida shart-sharoit hisoblanadi.

Milliy musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqiy-pedagogik faoliyatining asosiy motivi bo'lishi, bu qiziqishning ehtiyojga aylanishi, uning kelajakda maktabdagi Musiqa ta'limi va tarbiyasi ishiga tayyorgarligi darajasini belgilab beradi. Oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchisi milliy musiqa san'atining maktab o'quvchisi hayotida tutgan o'rnini chuqur anglashi zarur bo'ladi. Buning uchun o'qituvchining o'zida musiqiy-estetik did shakllangan bo'lishi zarur. Bu esa, musiqaning har xil ko'rinishlariga bo'lgan munosabatini aniqlab olishga yordam beradi va kompozitor-klassiklarning musiqalariga, xalq musiqasining rango-rang turlari va janrlarini hissiy, ongli va faol munosabatda bo'lishning shakllanishini ta'minlaydi.

2. Kasbiy bilimdonlik prinsipi bo'lajak musiqa o'qituvchisi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning musiqiy-pedagogik faoliyatidagi ijodkorlik darajasini va mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojini belgilydi. Bu – ma'lum tizimda bilim olish va musiqiy-pedagogik vazifalarni ijodiy hal qilishdir. Buni biz o'quv-bilish faoliyatida ko'radigan bo'lsak, u nafaqat umumiy va maxsus bilimlarga ega bo'lishi, balki bu bilimlarni hisobga olgan holda faoliyatning o'ziga xos usullarini egallashi ham demakdir. Faoliyatning o'ziga xos usullariga: jo'ravoza ijro etish va kuylash, nota o'qish, transpozitsiya qilish, cholg'u ijrochiligida chalish va hokazo ijrochilikning boshqa turlari ham kiradi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan bilimlar bir-biri bilan o'zaro mustahkam aloqada bo'ib, bir butun tizimni tashkil qiladi.

Afsuski, bakalavr talabalarining musiqiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish, unga ta'lim berishda hamma vaqt ham tizimli yondashilmaydi. Bu uning amaliy faoliyatida kerak bo'ladigan to'liq va uzviy bilim olishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oliy o'quv yurtida professor-o'qituvchilar tomonidan beriladigan bilimlar fanlararo aloqa o'rnatish tamoyiliga suyanmog'i lozim. Busiz talabalar musiqiy bilimlarni to'laligicha o'zlashtirolmaydilar va kelajakdagi faoliyatlarida foydalana olmaydilar. Xolbuki, maktab musiqa darslari ham fanlararo o'zaro aloqa vositasida tuzilgan. Bu esa, o'z navbatida musiqani hayot bilan bog'lash muammosini hal qilishning muhim sharti hisoblanadi. O'qituvchining fanlararo aloqadan foydalanishi o'quvchilarda faol idrokni shakllantirishni va san'atdagi hodisalarni tushunish hamda estetik tuyg'ularni tarbiyalashni amalga oshiradi. Bundan tashqarii o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini tashkil qilishda taqqoslash va solishtirish, tahlil qilish va umumlashtirish singari umumiy bilish yo'llari qo'llaniladi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining o'zi bilishning umumlashgan usul va yo'llari bilan qurollangan bo'lishi kerak. Bilish faoliyatining bu singari turlari bilan qurollanish o'z bilimlarini mustaqil to'ldirishga va takomillashtirishga tayyorlikni va ehtiyojni tarbiyadaydi. Bunga misol tariqasida musiqa asari ustida ishlashning umumiy usullari haqidagi bilim – ovozda kuylash, tovush chiqarish yo'llarini qidirish, dinamik kontrastlarni o'zaro munosabatlari va boshqalar musiqani ko'proq aniq va nozik sharxlashga yordam beradi.

"Musiqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi talabalari o'zining musiqiy-pedagogik faoliyati jarayonida musiqiy bilimlarning har xil tarmoqlarini o'zaro bog'lashni va undagi umumiylikni nazarda tutmog'i lozim. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasb sifatlarini oshirishda, cholg'u ijrochiligida chalish va musiqiy-nazariy bilimlarning o'zaro aloqasi juda muhim ahamiyatga ega. Musiqiy asarlarni tahlil qilish bo'yicha olingan bilimlardan kelajakda o'qituvchi o'zining musiqiy-pedagogik faoliyati, ya'ni cholg'u ijrochiligini chalish, o'quvchilarga musiqiy bilim berish va musiqiy materiallarni mustaqil o'rganishda keng foydalanadi. Mustaqil faol bilish faoliyati jarayonida olingan bilimning tayyor holda olingan

bilim bilan taqqoslagandagi afzallik tomonlarining borligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Chunki, bu bilim to'liq va tez ishonchga aylanadi, inson esa o'z bu bilimidan amaliy faoliyatda dadil foydalanadi.

Shunday ekan, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish zarur. O'qituvchi oldida turgan, tushunib etilgan va aniq ifodalangan muammolardan kelib chiqadigan yorqin bilish vazifasi uning bilish faolligini rivojlantiradi. Muammoni tushunish, materialni to'liq va chuqur o'zlashtirishga imkon beradi.

Shuni aytish kerakki, bilishga qiziqish - bu, o'quv va kasbiy faoliyatning eng qimmatli motividir. Qaysiki insonda o'z bilimlarini chuqurlatib borishni odat qilib olishga xohish bo'lmas ekan, u intellektual izlanishdan keladigan shodlikni his qilmaydi, uning hayotida bilishga ehtiyoj doimiy bo'lmaydi. Bilishga qiziqishning hosil bo'lishi inson ruhiy dunyosining shakllanishi bilan bog'liq.

Olimlarning fikricha, bilishga qiziqish faqatgina shu fan sohasining mazmuniga emas, ta'lim orqali oldin egallangan bilimlarga suyanib, yangi bilimlarni egallash va takomillashtirishdir.

Ko'pincha bir-biriga zid nuqtai nazarlarni o'rganish, ma'lum muammolarning har xil mohiyatini tahlil qilish, olingan bilimlarning barchasini jamlash va shular asosida ilmiy asoslangan dalillar bilan mustahkamlangan shaxsiy nuqtai nazarni namoyon qilish juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak musiqa o'qituvchisining bilim egallash prinsipi o'quvchilar aqliy faoliyatlarini boshqarishdagi harakati bo'lib, o'zining ma'naviy darajasini oshirish bilan bog'liqdir.

3. Hissiylik-emotsional prinsipi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining musiqa san'atiga emotsional munosabatda bo'lishi muhim kasbiy ahamiyatga ega. Musiqadagi go'zalliklarni his qilish va o'qituvchilarda uni his etish malakasini shakllantirish musiqa o'qituvchisining asosiy vazifalardan biridir. Bo'lajak o'qituvchilarda hissiy-emotsional prinsipini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u musiqa san'ati bilan jiddiy shug'ullanishni talab etadi. Yangrayotgan musiqani eshitish orqali

uni tahlil qilishni o'rganish zarur. Musiqa asarini tahlil etish jarayonida yangrayotgan kuy qanday voqelikni ifodalashini aniqlab olish va bu holatni o'zida his etishi zarur. Talabalarning musiqa asari ustida fikr yuritishi, uning g'oyaviy mazmunini tushunishi, musiqiy materialni tahlil va sintez qilishi kompozitorning pozitsiyasi, asarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashi, kompozitorning ichki dunyosi va uning borliq haqidagi tushunchasi, musiqa haqidagi nazariy tushunchalar tizimini o'zlashtirishi hissiy dunyosining shakllanishida katta o'rin tutadi. O'qituvchi o'quvchilarda hissiy-emotsional munosabatni tarbiyalashda "Musiqa" dasturining mazmunini yaxshi bilishi, dars jarayonida foydalanish uchun to'g'ri tanlashi muhimdir. Chunki musiqiy asarlar o'quvchi ruhiyatiga rang-barang ta'sir qiladigan bo'lishi kerak. Bu asarlar: vatan, ona, do'stlik, o'rtoqlik, maktab tabiat, hazil-mutoiba haqida bo'lishi kerak. Bunday asarlarni ijro etganda yoki eshittirganda o'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri savollar bilan murojaat qilib, ularning musiqa asarlaridan ruhiy ta'sirlari haqida bilishi kerak. Undan tashqari o'qituvchining o'zi tomonidan ijro etilgan asarlar o'quvchilarga texnik vositalardan foydalanib eshittirilgan musiqa asarlariga qaraganda kuchli ta'sir qiladi. Chunki, o'qituvchi musiqa asarini ijro etish jarayonida shu musiqa ta'sirida bo'ladi va bu ta'sirni his etganini har xil imo-ishoralar bilan ko'rsatsa, asarning o'quvchilarga bo'lgan ta'siri yanada oshadi. Har qanday musiqa asarini o'rganish jarayonida sinfni shu musiqa asari ta'siriga hamohang, ya'ni musiqa materialini to'laligicha o'zlashtirishga imkon yaratuvchi kayfiyatni yaratish va qo'llab-quvvatlash uylangan maqsadga erishishning shartlaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'qituvchining musiqiy-pedagogik faoliyatida hissiy-emotsional prinsipi, uning voqelikni rang-barang ifodalovchi musiqani his qilishi va hissiyotdan o'quvchilarni ham bahramand qilishdagi harakatida ko'rinadi.

4. Axborot berish prinsipi. Talabalar kasbiy-pedagogik tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismlaridan biri o'quvchilarga axborot berish prinsipidir. Ushbu pedagogik prinsipi o'qituvchidan "Musiqa" dasturi materiallarini chuqur va erkin egallagan bo'lish, uni o'qitishning zamonaviy shakl, vosita va

metodlari, didaktik tamoyillar va yo'l-yo'riqlari, shuningdek, axborotning boshqa manbalriga suyanishni talab etadi. O'qituvchi muayyan sinfning musiqiy tayyorgarlik darajasini aniq bilishi bu prinsipining asosiy mazmunini tashkil qiladi. O'qituvchi dars jarayonida bolalarga bilim berish bilan bir qatorda, ularni nazorat qilish va natijalarni umumlashtirib borishi zarur. Darsning har bir bosqichida o'qituvchi bolalar bilan savol-javoblar orqali, ular olyotgan bilim darajalarini aniqlab, darsning keyingi jarayonini tegishli xulosalarga asosan tashkil qilishi kerak. Aks holda aborot berish prinsipi o'z vazifalarini to'raligicha amalga oshirmaydi. Bu prinsipi o'qituvchidan o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bolalarning ovozi, tarbiyasi va rivojlanishining fiziologik xususiyatlari to'g'risida kerakli bilimlarga ega bo'lishlikni talab qiladi. O'qituvchi musiqa mashg'ulotlarini zamonaviy darajada tashkil qilishi uchun "Musika" dasturini talab qilinadigan bilimlardan tashqari qo'shimcha materiallardan ham foydalanishi muhimdir. U kundalik ro'znoma va oynomalardan e'lon qilinayotgan musiqa haqidagi materiallarni ham muntazam ravishda o'qib, o'rganib borishi zarur. Eng ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini tahlil qilish va o'ziga kerakli xulosalar chiqarib, uni dars jarayonida tadbiiq qilishi kerak.

Undan tashqari, o'qituvchi dars jarayonida foydalanishi zarur bo'lgan texnik vositalarning (elektron yozuv, magnitofon, radiola, ko'rgazmali qurollar), ishlash tamoyillari haqida ma'lum bilimlarga ega bo'lishi zarur. Bu pedagogik prinsipining muhim tomonlaridan biri shundaki, o'qituvchi tomonidan berilayotgan axborotga nisbatan o'quvchilar tomonidan "qayta aloqa" o'rnatilishi zarur.

5. Loyihalash prinsipi o'qituvchidan musiqiy o'quv-tarbiyaviy ishlarni loyihalashtirishda va rejalashtirishda umumpedagogik va maxsus bilim va ko'nikmalar zarur bo'lishini taqozo qiladi. Darsni loyihalashtirishdan avval, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Darsning reja-kanspektini tuzish va unga kiritilgan materiallarni, ayniqsa, musiqa asarining tarbiyadagi mohiyatini hisobga olish muhimdir.

Darsni loyihalashtirish jarayonida o'qituvchi dars o'tishning eng samarali usul va yo'llarining qaysi birlaridan foydalanishini

aniqlab, darsning bosh vazifasini ajratib olib, qo'shimcha vazifalarni aniqlab ularni bajarish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning harakat tuzulishlarini rejalashtiradi.

Dars materiallarini va vaqtni to'g'ri taqsimlash ham muvaffaqiyat garovidir. Chunki, vaqtning asosiy qismi ikkinchi darajali vazifalarga sarflanib, kutilgan natijaga erishmasligi mumkin.

Loyihalashtirishda maqsad ustuvorligiga erishish zarur shartlardan biridir. Dasturda ko'rsatilganidek, yosh maktab o'quvchilarining musiqiy ta'lim-tarbiyasi o'z oldiga ma'lum vazifalarni qo'yadi. Bu bir butun vazifa yillik va chorakdagi darslarning bosh, o'rta va istiqbol vazifalarini bir-biriga bog'lab, uni o'zlashtirishga esa, har bir musiqa darsini to'g'ri rejalashtirish asosida erishiladi.

Loyihalashtirishning yana bir tarkibiy qismlaridan biri, sinfdan tashqari bolalar musiqiy faoliyatlarini loyihalashtirishdir. Xor-vokal guruhlari va ansambllar tuzish va ularning chiqishlarini rejalashtirishdir. Musika mashg'ulotlarida foydalaniladigan o'quv bazani loyihalash zarur. Shuningdek, musiqa xonasini jihozlash (kompyuter, radiola, ko'rgazmali qurollar, musiqa asboblari va boshqalar) va ularni o'z joylariga taxt qilib qo'yish talab qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda, loyihalash prinsipi o'quvchilarning yosh va individual hususiyatlarini hisobga olgan holda musiqiy o'quv-tarbiyaviy materialni tanlash va kompozitsiyalash, pedagogik jarayon hamda o'zining va o'quvchilarning harkat tuzilishini rejalashtirish, musiqiy o'quv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun o'quv materiallarni loyihalashtirish bilan bog'liqdir.

6. Tashkilotchilik prinsipi. Tashkilotchilik prinsipi ham boshqa prinsipilar singari o'qituvchining musiqiy-pedagogik faoliyatida eng zarur pedagogik ko'nikmalardan biridir. Tashkilotchilik prinsipi har bir musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishdan boshlanadi. O'qituvchi maktabdagi har qanday musiqiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishga kirishishdan avval bolalarning yosh xususiyatlarini albatna hisobga olishi kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi «Musika» dasturining mazmuni, unga qo'yiladigan talablar va uni amalga oshirishning eng samarali uslublarini tanlashi lozim, so'ng esa uni tashkil qilishga kirishadi. Dars,

sinf dan tashqari va maktabdan tashqari musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishda bir butun sinf jamoasini tashkil qilish muhimdir. Chunki, har bir tashkil qilinayotgan tadbirlarda sinf jamoasining faol qatnashishi kutilayotgan natijaning va erishishi zarur bo'lgan muvaffaqiyatlarning garovi bo'lib hisoblagadi. Har qanday musiqa tadbiri tashkil qilishda o'qituvchi foydalanishi zarur bo'lgan musiqiy asarlarning qiymatini hisobga olishi, pedagogik vazifalarni aniq belgilashi va hal qilishi zarur.

Musiqa darsida o'quvchilarning faolligi, ijodiyligini oshirish maqsadida muammoli holatlarni uyushtirish, uni echishga bolalarni chorlash va bunga rahbarlik qilish o'qituvchining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. O'qituvchining "Musika" darsini o'tishdagi asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning umummusiqiy va ijrochilik qobiliyatlarini o'stirishdir. Buning uchun o'qituvchining o'quvchilarni o'z qobiliyatlarini faol ko'rsatishlari uchun turli xil musiqiy faoliyatlarni tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarda musiqiy bilimlarni egallashlariga va ijrochilik ko'nikmalarini shakllanishiga sharoit yaratgan bo'ladi.

Musiqa ta'limini o'qitish asosida o'quvchilarni aqliy va hissiy fikrlashga o'rgatadi. Buning uchun o'qituvchi ruxiy-pedagogik va musiqiy bilimlardan foydalanib, o'quvchilarning aqliy va hissiy darajalarini yuqoriga ko'tarish uchun turli xil musiqiy faoliyatlarini tashkil qilishi kerak.

O'qituvchining tashkilotchilik komponenti sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy-pedagogik faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. O'quvchilarni bunday musiqiy tadbirlarga jalb qilish, ular musiqiy qobiliyatlarining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Sinfdan tashqari (musiqiy to'garaklar, muloqotlar, suhbatlar, har xil bayramlar: "Navro'z" bayrami, 8 mart, 9 may, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Bilimlar kuni, O'qituvchi va murabbiylar kuni va boshqalar) va maktabdan tashqari qo'shiq bayrami, konserlarga tushish, konsert dasturi bilan aholi oldiga chiqishlar qilish va boshqa ishlar o'qituvchining tashkilotchilik prinsipining yanada yuksak darajaga ko'tarilishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish

mumkin, bo'lajak musiqa o'qituvchisi pedagogik faoliyatining tashkilotchilik prinsipi o'quvchilarni har xil musiqiy faoliyatga jalb qilishni, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash maqsadida o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni shaxsga pedagogik ta'sir quroliga aylantirishni nazarda tutadi.

7. Muloqot qilish prinsipi. O'qituvchining musiqiy-pedagogik faoliyatida o'quvchilar, ularning ota-onalari va o'z kasbdoshlari bilan muloqot qilish prinsipi muhim o'rin tutadi. Muloqot qilish prinsipi - bu, butun sinf jamoasi va sinfdagi har bir o'quvchi bilan o'qituvchining munosabatlari majmuidir. Bu prinsipini namoyon etish uchun o'qituvchida keng dunyoqarash va inson ruhiyati tovlanishlarini chiqur anglashga zarur bo'lgan barcha xususiyatlar bo'lishi shart hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'lishi kerak. Ayniqsa, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini qozonish zarur bo'ladi. U o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlarini chuqur tushunishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar bilan juda yaqin va mehribonlarcha munosabatda bo'lib, darsning tarbiyaviy imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanib, ularda bir-biriga ishonchni, do'stlikni, o'rtoqlikni, o'zaro xurmatni, o'z sinfi bilan g'ururlanishni tarbiyalashi zarur.

O'qituvchi ota-onalar bilan ham yaqin muloqotda bo'lishi, o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan munosabatlari haqida ular bilan yaqindan maslahatlashib, maslakdoshlarga aylanishi o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarining shakllanishiga kata ta'sir ko'rsatadi.

Dars jarayonida o'quvchi o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotda o'z fikrini o'tkazish yo'lidan foydalanmasligi kerak. Chunki, har bir o'quvchining musiqa asari haqida o'z munosabati borligini hech qachon unutmashligi kerak. Musiqiy asar to'g'risida o'z munosabatini bildirishda o'quvchiga eng yaqin kishi sifatida yordam berish zarur.

O'qituvchi faoliyatining muhim prinsipalaridan biri bo'lgan muloqot qilish madaniyati har bir predmet o'qituvchisiga tegishli bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchisiga ayri-ayri ahamiyat kasb etadi. Bu prinsipining maktab musiqa darsi jarayonidagi ahamiyati shundaki, musiqa darsida uni qo'llay olmagan o'qituvchi yaroqsiz

mutaxassis hisoblanadi. O'quvchilarning musiqiy faoliyat turlariga to'g'ri rahbarlik qilish, o'qituvchida muloqot qilish prinsipining qanchalik shakllanganiga bog'liq. Bu prinsipi boshqa kishilarni va ayniqsa o'quvchilarni tushunish; ularning qobiliyatlarini to'raligicha namoyon etishga yo'naltirish; yuqori darajadagi hissiy aloqa, muloqotda erkinlik, har bir o'quvchi bilan hamkorlikka tayyorlik va hayrixohlik ko'nikmasi shakllangan bo'lishini talab qiladi. SHunga ko'ra musiqa darsidagi muloqot ta'lim shaklidir.

O'qituvchi va o'quvchilarning muloqoti darsning barcha bosqichlarida: musiqa haqida suhbat, xor bo'lib kuylash, musiqani harakat bilan ijro etishda va boshqa faoliyatlarida yuz beradi. Muloqotning xoh o'qituvchi, xoh o'quvchilar tomonidan bo'lmasin, kerakligicha hissiy bo'lishi juda muhimdir. Musiqa o'qituvchisi faqatgina ssenarist bo'lmasdan, darsning rejissyori va aktyoridir. Bu faoliyat turi bo'lajak musiqa o'qituvchisida kasbiy-pedagogik mahoratning shakllanganlik darajasini ko'rsatadi va ta'lim-tarbiya natijalari uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

8. Tadqiqotchilik prinsipi. Musiqa o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyatining barcha prinsipilari o'zaro yaqin aloqada bo'lib, ularning har biri ijodiy izlanish va tadqiqotchilik bilan shug'ullanishni talab etadi. Musiqa o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyati tarkibini tashkil etuvchi barcha prinsipilar ilmiy-nazariy asosga ega bo'lmog'i zarur. Har qanday pedagogik jarayonni amalga oshirishda o'qituvchi o'zi orttirgan va boshqa ilg'or o'qituvchilarning tajribalaridan samarali foydalanadi. O'quvchilar bilan musiqiy faoliyatning har xil ko'rinishlarini tashkil qilishda ularning musiqiy bilim darajalarini hisobga olish kerak. Ayniqsa, o'z bilimini oshirish uchun musiqa fani sohasida bo'layotgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan muntazam tanishib borish va fanning zamonaviy yutuqlaridan imkoni boricha foydalanish, musiqa darsining ilmiy tashkil qilinishiga asos bo'ladi.

Tadqiqotchilik prinsipini namoyon etish uchun o'qituvchi o'z ustida mustaqil ishlashi, ilmiy adabiyotlar bilan muntazam tanishib borishi kerak.

O'qituvchi musiqiy-pedagogik faoliyatida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o'sishi va shakllanishini oldindan ko'ra bilishi zarur. Sinfda o'tkazilayotgan musiqa mashg'ulotlari

jarayonida o'ziga xos sinov-tajriba olib borishi, ilmiy farazni olg'a surishi va kelajakda qilishi kerak bo'lgan ishlarni oldindan aniqlashi lozim.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqiy-pedagogik faoliyatining tadqiqotchilik prinsipi boshqa prinsipilar singari, talaba oliy o'quv yurtida o'qishni boshlaganidan shakllana borishi zarur. CHunki, har bir talabani o'z ustida ishlashga tinmay undab borish kerak bo'ladi. Unga o'quv dasturi materiallaridan tashqari musiqa faniga oid qo'shimcha adabiyotlar bilan ham muntazam tanishib borishi kerakligini tushintirish zarur. Har bir talabada ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashishga, kurs ishlari yozishga qiziqish uyg'otish ham unda tadqiqotchilik prinsipini shakllantirish omillaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday o'qituvchi doimo ijodiy izlanishda bo'lmog'i lozim. Ayniqsa, jamiyatda bo'layotgan tub o'zgarishlar, zamonaviy maktabning o'qituvchi oldiga qo'yayotgan yangidan-yangi talablari undan ijodiy izlanishni, o'z ustida ishlashni talab etadi.

9. Tahliliy-umumlashtiruvchi prinsipi. Musiqa o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyatining ushbu prinsipi maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarga ham tegishlidir. Bu prinsipi bo'lajak musiqa o'qituvchisining o'z kasbiy-pedagogik faoliyatini chuqur tahlil qilishini, undan kerakli xulosalar chiqarib, keyingi faoliyatini tashkil eitishida asosiy shart hisoblanadi. O'qituvchi bu prinsipiga suyangan holda o'z faoliyatiga tanqidiy baho beradi. O'z faoliyati jarayonida erishgan yutuqlari va kelajakda mo'ljallangan ishlarni solishtirish asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonni natijalarini tahlil qiladi, o'z faoliyatini kuzatadi, bu haqda fikr yuritadi, o'z ishi va o'quv-tarbiya jarayonini baholaydi. Buning uchun o'qituvchi maktab "Musiqa" dasturi, uni o'qitish usuliyoti, musiqa ta'lim-tarbiyasi mazmuni, maqsadi, vazifalari, shakl va usullarini juda chuqur tushunishi zarur bo'ladi. Musiqa darsini o'tish jarayonida qo'lga kiritgan shaxsiy tajribasini anglashi va to'plashi, olingan natijalarni ilmiy tomondan asoslashi kerak.

Ma'lumki, bo'lajak musiqa o'qituvchilari kasbiy faoliyatlarining ichki va tashqi shart-sharoitlari, rivojlanish parametrlari va ular mohiyatini baholash mezonlari yanada

takomillashib va o'zgarib boradi. Ommaviy musiqiy-estetik tarbiyani amalga oshiruvchi bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablar kuchayadi. Bu esa, hozirgi zamonda pedagogika oliy o'quv yurti bitiruvchisining bir qator o'ziga xos xususiyatlari majmuasiga asoslangan, predmet tavsifnomasini ishlab chiqish zaruriyatini inkor qilmaydi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining musiqa fani dars mashg'ulotlarida 1-7 sinf o'quvchilarining musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarliklarini shakllantirishda ma'lum muammolarni echishning samarali yo'llari, pedagogik shart-sharoitlari, eng ko'p qo'llaniladigan didaktik vositalar, usul va yo'llarni izlab topishdan iborat.

Yuqoridagilarga asoslanib biz bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati tavsifnomasini ishlab chiqdik. Bu tavsifnomaga asosan bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik prinsiplarini shakllanganlik daraja ko'rsatgichlari ham tayyorlandi.

Musiqiy-nazariy fanlardan dars mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi

Bakalavriat talabalari o'zlarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni yaxlit bir butun tizim bo'lib, uning o'ziga xos prinsiplari o'rtasida o'zaro aloqadorlik va munosabatlarni o'rnatish talab etiladi. Ushbu tizimning bir me'yorda va turg'un ishlab turishi uchun uni ilmiy asosda tashkil etish zarur. Musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni tashkil qilishda tadqiqot ob'ektining qonuniyatlarini ochishga imkon beruvchi, uni qo'llashning eng maqbul yo'llarini aniqlash muhimdir. Umumiy aloqa, o'zaro bog'liqlik va rivojlanish haqidagi ta'limotga asoslangan holda o'quv ishlarini tashkil qilish bu jarayon samaradorligini oshiradi.

Biz kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning umumiy nazariyasidan kelib chiqqan holda bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini kelajakdagi kasbiy-pedagogik faoliyatiga yaqinlash-tirib tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq qildik. Bizning tadqiqotimiz oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining barcha davrlarini o'z ichiga oladi va

o'quv-tarbiyaviy jarayonda amalga oshiriladi. Tadqiqotimizning asosini musiqa siklidagi ixtisoslik fanlarini o'rganish tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarilarning faoliyat turlaridan (o'quv, jamoatchilik, ilmiy) eng muhimi o'quv faoliyati hisoblanadi. Chunonchi, o'quv faoliyati jarayonida va uning yordamida mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy maqsadga erishiladi. O'quv jarayoni talabalarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda samarali ta'sir etadi.

Zamonaviy pedagogikada o'quv faoliyati auditoriya, mustaqil va auditoriyadan tashqari faoliyatlarga bo'linadi. O'quv-tarbiyaviy jarayon tizimida bu faoliyat kategoriyalari o'quv jarayonini tashkil qilishning asosiy shakllari tarzida belgilangan. Auditoriyadagi o'quv faoliyati o'rganilayotgan fanlarning o'quv rejasi va dasturi orqali aniqlanadi va o'qituvchi rahbarligi ostida o'quv jarayoniga mos keluvchi qat'iy jadval bilan amalga oshiriladi.

Musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni shakllantirish yo'llari va shart-sharoitlarni o'rganish natijasida ishonch hosil qildikki, bo'lajak musiqa o'qituvchisining faoliyati o'zida pedagogik musiqachi-ma'rifatchi ishini birlashtiradi. Musiqa darsi esa, musiqa san'ati darsi xususiyatini saqlaydi. SHunday ekan, tayyorgarlikka ikki jihatdan qarash mumkin: a) musiqiy ta'lim va tarbiya mutaxassisi; b) umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ruhiy dunyosini shakllantirish. Musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash natijasida bitta shaxs qiyofasida musiqiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi va musiqiy-estetik tarbiya mutaxassisi namoyon bo'ladi.

Bakalavriat talabalarining milliy musiqa san'ati orqali musiqiy-pedagogik tayyorgarliklariga taalluqli quyidagi muammolarni qarab chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

- talabalarda milliy musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, munosabatni rivojlantirish;

- milliy musiqa san'ati vositalari orqali musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik bosqichlarini tavsiflovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini shakllantirish;

- o'quv jarayonida talabalar musiqiy-pedagogik tayyorgarliklari xususiyatlarining namoyon bo'lishini aniqlash.

Tadqiqotimizning tajriba qismi "Musiqa ta'limi" bakalavr

yo'nalishi talabalari bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bo'lajak musiqa o'qituvchisini maktab "Musika" dasturi va maxsus tanlangan milliy musiqa materiallari asosida amalga oshirildi.

Bakalavr ta'lim yo'nalishining o'quv rejasiga bir necha ixtisoslik fanlarini o'qitish kiritilgan. Biroq ularning barchasini "Musika o'qitish metodikasi" umumlashtiradi.

Bu fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning musiqiy-amaliy faoliyatlariga etarlicha ahamiyat berildi. Musiqiy siklga kiruvchi har bir fan o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik tarbiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan umumiy va musiqiy-pedagogik rivojlanish; musiqiy-pedagogik va maxsus bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish.

Fanlarni o'zaro aloqada o'rganish, faoliyatning turlaridan bir vaqtning o'zida foydalanish (masiqa nazariyasi, musiqa tarixi, solfedjio, dirijyorlik, vokal, xor, cholg'u ijrochiligida chalish va h.k.) musiqiy-pedagogik tayyorgarlikning faol shakllanishiga bevosita yordam berdi. Shu bilan birga tayyorgarlik didaktikaning tamoyillariga asosan fanni o'zlashtirishdagi qat'iy ketma-ketlikka, o'quv materialini hajmini muntazam kengaytirib borishga va uni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llariga tayanib amalga oshiriladi.

Talabalarni musiqiy-pedagogik ishga tayyorgarligini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiluvchi milliy musiqa san'atimizning durdonalarini tasnif qilib chiqdik:

I-guruhga - mehnat qo'shiqlari (Xo'sh-xo'sh, CHiray-chiray, Turay-turay, Mayda-mayda, Qo'shchi qo'shig'i, O'rim qo'shig'i va boshqalar); mavsumiy marosim qo'shiqlari (Boychechak, Sumalakjon-sumalak, Ramozon-ramozon, Binafsha, Chitti gul, Navro'z keldi); oilaviy marosim qo'shiqlari (Yor-yor, Kelin salom, To'ylar muborak, Alla va boshqalar); turli vaziyat va davralarda ijro etiluvchi kuy va qo'shiqlar (Jo'rovoz cholg'ular, qo'shiq, terma, lapar, yalla, qo'shiq va boshqalar); qo'shiq (Paranji, Baland tog' ustida, Shamol eshik ochadi, Daryodan oqib kelar, YOrim ketaman deydi, Oshiq bo'ldim o'zingga va boshqalar); terma (Do'mbiram, Zebijon, Naylay, Oshiq bo'lsang, Baland tog'lar, Baxmal kamzul va boshqalar); lapar (Qorasoch, Yor nimalar

devdim sizga? Paxta teradi, Galdim senga mehmon bo'lib, Nima-nima, nima deysiz? Pardevol, Qoraqosh va boshqalar); yalla (YAllo, Ohi yalli, Taralli-lalli, Xorallo-xorallo, O'ynang qizlar, o'ynang va boshqalar).

II-guruhga: qo'shiq (O'rgilay, Yaxshilik qil, Izlayman, Farg'ona, Yorginam, Chaman ichra, Bir kelsun, Bir kelib ketsun, Ey dilbari jononim, Adashganman, Qora ko'z, Istar ko'ngil va boshqalar); baxshilar san'ati (Doston) - Qaydan bo'lursan (Go'r o'g'li dostonidan), Nasihat (Go'r o'g'li dostonidan), Ovozing seni (Go'r o'g'li dostonidan), Bari gal (Toxir va Zuxra dostonidan), Namasan (Tohir va Zuhra dostonidan), Bo'lurmu (Shoxsanam) va boshqalar; o'zbek xalq cholg'ulari - Qo'shtor (dutor), Chertmak (dutor), Chorgoh (tanbur), Nasri segoh (tanbur), Qo'shchinor (afg'on rubobi), Tasnifi Dugoh (qashqar rubobi), Garduni Dugoh (ud), va boshqalar; torli kamonli cholg'ular - Nasrullo I (g'ijjak), Cho'li Iroq Tasnifi Navo, Navro'zi ajam (sato), Farg'onacha tanovvori (sato, dator), Fig'on (sato) va boshqalar; puflama va zarbli cholg'ular - Surnay Dugohi, Sibiziq kuy, Dugoh Suvorasi, Chanqovuz kuy I, Ufori Duchava, Pilla, SHodiyona va boshqalar; o'zbek Musiqasidagi mahalliy uslublar - Buxoro-Samarqand, Xorazm, Surxandaryo-Qashqadaryo, Farg'ona-Toshkent.

III-guruhga - Maqom. Shashmaqom (Mushqulot) Tasnifi Buzruk, Tarje'i Buzruk, Garduni Buzruk, Muxammasi Bayot (Navo maqomidan), Samoi Dugoh va boshqalar; SHashmaqom (Nasr) - Sarohbori Buzruk, Talqini Uzzol, Nasrilloi, Nasri Uzzol, Sarohbori Navo, Suvora, Chorgoh (K.Otaniyozov), Tani Maqom Talqin (X.Boltaev) va boshqalar; Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari - Navro'zi Ajam, Ajam va Taronalari, Segoh (qo'shiq yo'llari), Ushshoq (Mulla To'ychi xofiz yo'li), Chorgoh I, Bayot I, Soqinomai Bayoti SHeroziy, Yovvoyi Ushshoq, Yovvoyi Chorgoh, Surnay navosi va boshqalar.

Bu guruhlarga bo'lingan milliy musiqa asarlarimizni shartli ravishda ta'lim jarayonining I-II-III bosqichlarida foydalandik.

Tajriba-sinov ishlari tashkil qilingan musiqiy-pedagogik jarayon nafaqat nazorat sharoitida tayyorgarlikning shakllanishini kuzatish, balki uni boshqarish, uning natijalariga faol ta'sir etish imkonini berdi. Tajriba-sinov ishlari mashg'ulotlarning borishini

uzoq kutish, talabalar musiqiy rivojlanishi, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishi, tajribada qatnashayotgan o'qituvchilar bilan suhbatlashishni, tahsil olayotganlarning ijodiy ishlarini o'rganishni, ma'ruza, anketa, referat, kollektivumlar, akademik, sinov konserlari va boshqalarni o'z ichiga oldi

Tajriba boshlanishidagi tadqiqotni o'tkazish tajriba guruhidagi talabalarining musiqiy rivojlanganliklarining dastlabki darajasini, ularning didlarini, san'at sohasida qanchalik habardorliklarini ko'rsatdi va tushunchaning, mantiqiy fikrlashning etishmasligi, musiqaga juda kam qiziqishlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari har bir guruhda tahsil olayotgan talabalarni 3 kichik guruhga bo'lib, tabaqalashni taqazo qildi. I-guruhga, musiqiy tayyorgarligi bor (25-30%), II-guruhga, musiqiy tayyorgarligi yo'q, ammo musiqiy belgilari bor (35-40%) va III-guruhga tayyorgarligi yo'q va musiqiy qobiliyatlar juda pastlar (35-40%) kiritildi. Bu raqamlarni bir qator yillar ko'rsatgichlari bilan taqqoslaganda shuning guvohi bo'ldikki, har yili I-bosqichga qabul qilingan abituriyentlar o'rtasidagi musiqiy qobiliyatlarning farqi nihoyatda kam degan xulosaga kelish mumkin.

Musiqiy tayyorgarligi bo'lgan kichik guruhda ham vokal-xor ko'nikmalarining yo'qligi, metroritm hissalarini aniq his qilmaslik, jo'rliksiz har doim ham ohangni aniq olmaslik va hokazo, o'rtacha musiqiy-estetik rivojlanganlikni ko'ramiz. Ikkinchi kichik guruhda musiqiy savodxonlikdan yuzaki bilimga ega ekanligi, ohangni va tembrni eshitishning past rivojlanganligi guvohi bo'ldik. Uchinchi kichik guruh talabalar esa, eshitish va ovoz o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikning yomonligi, musiqiy imkoniyatning chegaranlanganligi bilan xarakterlanadi. Tajriba uch bosqichda olib borildi: I-bosqich, dastlabki (I-II semestr), II-bosqich, bilim va ko'nikmalarni jadallik bilan o'zlashtirish (III-IV semestr) va III-tugallanuvchi bosqich (V-VI semestr).

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim shartli ravishda bosqichlarga bo'lindi. Chunki, oliy o'quv yurtida mutaxassisni tayyorlash uzluksiz ravishda olib boriladi. Talabalarining musiqiy rivojlanganliklaridagi keskin individual farqlari mavjudligi I-semestrda boshlanadigan «Cholg'u ijrochiligi» mashg'uloti jarayonida ular rivojlanganlik darajalarini imkon qadar bir-biriga

yaqinlashtirish vazifasini hal qilishni qo'ydi. «Musiqqa o'qitish metodikasi» fani esa, (III-semestr), talabalarda musiqiy madaniyatni hosil qilish, musiqaga qiziqish uyg'otish, san'at haqida to'laligicha tasavvur hosil qilish hamda musiqani eshitish va tushunish ko'nikmalarini shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qildi. Musiqiy materiallar talabalarining qiziqish va hayotiy tajribalarini hisobga olgan holda tanlandi. Tajribaning birinchi bosqichida milliy musiqqa san'ati tasnif qilingandagi I-guruh musiqqa asarlaridan foydalanildi. Bu bosqichdagi asosiy maqsad talabalarda milliy musiqqa san'atiga qiziqish uyg'otish bo'ldi. «Cholg'u ijrochiligi» fanini o'tish jarayonida tanlagan asarlarni, avvalambor o'qituvchining o'zi ijro etib, talabalarda ijrochilikka qiziqish uyg'ota boshladi. Bu ijroni eshitgan, ko'rgan talabalarda ijro etishga qiziqish va ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Ular qo'llariga cholg'u ijrochiligini olib chalishga harakat qildilar. SHundan so'ng, sekin-asta nota bilan chalishga o'tib bordilar. Musiqiy rivojlanishda musiqiy qobiliyatni o'stirish masalasi asos bo'lib xizmat qildi. «Musiqqa ta'limi» ta'lim yo'nalishiga maxsus tayyorgarliksiz, juda past musiqiy alomatlar yoki musiqiy qobiliyatlari qoniqarli bo'lmagan kirishini hisobga olgan holda, dastlabki bosqichda mustahkam bilim va ko'nikmalarni uzviy, ketma-ket o'zlashtirishning juda samarali vosita, usul hamda yo'llarini aniqlash zarur bo'ldi. Qilinayotgan tajribaning mohiyati faoliyat turlarining birligidan, talabalarining jamoa bo'lib guruhiy mashg'ulotlarga va yakka darslarga qatnashishdan iborat bo'ldi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, musiqiy qobiliyatning rivojlanish bazasini tashkil qilish uchun talabalarining sekin-asta individual vazifalariga taalluqli ishlarga jalb qilish va tayyorgarlikni dastlabki musiqiy tasavvurni shakllantirishdan boshlashga amal qilish orqali, tushunarli va o'zlashtirish zarur bo'lgan keng doiradagi tushuncha, bilim, ko'nikmalarga o'tish mumkin. Bizning amalga oshirgan ishlarimiz natijasi shunga olib keldiki, talaba oddiy eshituvchidan o'quv-tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanib bordi.

Ma'lumki, yomon ijro qilishning sababi tovush balandligini eshitishning rivojlanmaganligi, ladni sezishning yo'qligi, musiqiy eshitishni tasavvur qilish qobiliyatining pastligidir. Shuning uchun

uzoq kutish, talabalar musiqiy rivojlanishi, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishi, tajribada qatnashayotgan o'qituvchilar bilan suhbatlashishni, tahsil olayotganlarning ijodiy ishlarini o'rganishni, ma'ruza, anketa, referat, kollektivumlar, akademik, sinov konserlari va boshqalarni o'z ichiga oldi

Tajriba boshlanishidagi tadqiqotni o'tkazish tajriba guruhidagi talabalarining musiqiy rivojlanganliklarining dastlabki darajasini, ularning didlarini, san'at sohasida qanchalik habardorliklarini ko'rsatdi va tushunchaning, mantiqiy fikrlashning etishmasligi, musiqaga juda kam qiziqishlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari har bir guruhda tahsil olayotgan talabalarni 3 kichik guruhga bo'lib, tabaqalashni taqazo qildi. I-guruhga, musiqiy tayyorgarligi bor (25-30%), II-guruhga, musiqiy tayyorgarligi yo'q, ammo musiqiy belgilari bor (35-40%) va III-guruhga tayyorgarligi yo'q va musiqiy qobiliyatlar juda pastlar (35-40%) kiritildi. Bu raqamlarni bir qator yillar ko'rsatgichlari bilan taqqoslaganda shuning guvohi bo'ldikki, har yili I-bosqichga qabul qilingan abituriyentlar o'rtasidagi musiqiy qobiliyatlarning farqi nihoyatda kam degan xulosaga kelish mumkin.

Musiqiy tayyorgarligi bo'lgan kichik guruhda ham vokal-xor ko'nikmalarning yo'qligi, metroritm hissalarini aniq his qilmaslik, jo'rliksiz har doim ham ohangni aniq olmaslik va hokazo, o'rtacha musiqiy-estetik rivojlanganlikni ko'ramiz. Ikkinchi kichik guruhda musiqiy savodxonlikdan yuzaki bilimga ega ekanligi, ohangni va tembrni eshitishning past rivojlanganligi guvohi bo'ldik. Uchinchi kichik guruh talabalar esa, eshitish va ovoz o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikning yomonligi, musiqiy imkoniyatning chegaranlanganligi bilan xarakterlanadi. Tajriba uch bosqichda olib borildi: I-bosqich, dastlabki (I-II semestr), II-bosqich, bilim va ko'nikmalarni jadallik bilan o'zlashtirish (III-IV semestr) va III-tugallanuvchi bosqich (V-VI semestr).

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim shartli ravishda bosqichlarga bo'lindi. Chunki, oliy o'quv yurtida mutaxassisni tayyorlash uzluksiz ravishda olib boriladi. Talabalarining musiqiy rivojlanganliklaridagi keskin individual farqlari mavjudligi I-semestrda boshlanadigan «Cholg'u ijrochiligi» mashg'uloti jarayonida ular rivojlanganlik darajalarini imkon qadar bir-biriga

yaqinlashtirish vazifasini hal qilishni qo'ydi. «Musiqqa o'qitish metodikasi» fani esa, (III-semestr), talabalarda musiqiy madaniyatni hosil qilish, musiqaga qiziqish uyg'otish, san'at haqida to'laligicha tasavvur hosil qilish hamda musiqani eshitish va tushunish ko'nikmalarini shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qildi. Musiqiy materiallar talabalarining qiziqish va hayotiy tajribalarini hisobga olgan holda tanlandi. Tajribaning birinchi bosqichida milliy musiqqa san'ati tasnif qilingandagi I-guruh musiqqa asarlaridan foydalanildi. Bu bosqichdagi asosiy maqsad talabalarda milliy musiqqa san'atiga qiziqish uyg'otish bo'ldi. «Cholg'u ijrochiligi» fanini o'tish jarayonida tanlagan asarlarni, avvalambor o'qituvchining o'zi ijro etib, talabalarda ijrochilikka qiziqish uyg'ota boshladi. Bu ijroni eshitgan, ko'rgan talabalarda ijro etishga qiziqish va ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Ular qo'llariga cholg'u ijrochiligini olib chalishga harakat qildilar. SHundan so'ng, sekin-asta nota bilan chalishga o'tib bordilar. Musiqiy rivojlanishda musiqiy qobiliyatni o'stirish masalasi asos bo'lib xizmat qildi. «Musiqqa ta'limi» ta'lim yo'nalishiga maxsus tayyorgarliksiz, juda past musiqiy alomatlar yoki musiqiy qobiliyatlari qoniqarli bo'lmagan kirishini hisobga olgan holda, dastlabki bosqichda mustahkam bilim va ko'nikmalarni uzviy, ketma-ket o'zlashtirishning juda samarali vosita, usul hamda yo'llarini aniqlash zarur bo'ldi. Qilinayotgan tajribaning mohiyati faoliyat turlarining birligidan, talabalarining jamoa bo'lib guruhiy mashg'ulotlarga va yakka darslarga qatnashishdan iborat bo'ldi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, musiqiy qobiliyatning rivojlanish bazasini tashkil qilish uchun talabalarining sekin-asta individual vazifalariga taalluqli ishlarga jalb qilish va tayyorgarlikni dastlabki musiqiy tasavvurni shakllantirishdan boshlashga amal qilish orqali, tushunarli va o'zlashtirish zarur bo'lgan keng doiradagi tushuncha, bilim, ko'nikmalarga o'tish mumkin. Bizning amalga oshirgan ishlarimiz natijasi shunga olib keldiki, talaba oddiy eshituvchidan o'quv-tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanib bordi.

Ma'lumki, yomon ijro qilishning sababi tovush balandligini eshitishning rivojlanmaganligi, ladni sezishning yo'qligi, musiqiy eshitishni tasavvur qilish qobiliyatining pastligidir. Shuning uchun

ham talabalarda zarur tasavvurlarni hosil qilish birinchi darajadagi vazifa sifatida hal qilindi. Ohangni to'g'ri olishdagi individual farqlar ishimizni yanada murakkablashtirdi va natijada ta'limga tabaqali yondashish zarurligini keltirib chiqardi. Bu ayniqsa, "Cholg'u ijrochiligi" mashg'ulotida yaqqol ko'rindi. SHu masalaga bag'ishlangan adabiyotlar bilan tanishish borasida shunday fikrga keldikki, dastlabki bosqichning o'zidayoq vokal elementlaridan foydalanish "Cholg'u ijrochiligi" mashg'uloti jarayonida amalga oshirilishi zarur ekan. Talabalarning imkoniyatlariga qarab ularga vazifalar berib borish; cholg'u ijrochiligi yordamida alohida tovushlarni ohangda to'g'ri aytish, musiqa dasturi va qo'shimcha materiallar (I-guruh milliy musiqa asarlari)dagi qo'shiqlarni bir vaqtning o'zida ham chalish va ham kuylash lozimligi ayon bo'ldi. SHundan so'ng ijrochilikning natijasiga ko'ra, talabaning ovoz diapozonini kengaytirish maqsadida shu qo'shiqning o'zi yuqoriga yoki pastga traspozitsiyalashtirildi va shu orqali murakkab asarlarga o'tib borildi.

Cholg'u ijrochiligida chalish asosini tushunib etish bilan bir qatorda qo'shiq ijro etish, qo'shiq ustida ishlash, elementar vokal-xor ko'nikmalarini tarbiyalash va mustahkamlashga erishildi. Cholg'u ijrochiligi tovushidan chetga chiqish hamma vaqt e'tiborga olinib borildi. Qo'lga kiritilgan natijalarga asoslanib, tovushqatorni ko'tarish, pasaytioish va kengaytirish asosida har xil mashqlar qo'llanildi. Talabalarning yosh hususiyatlari vazifalarni bajarishga muvofiq keldi va ularning musiqiy o'sishiga kata yordam berdi. Masalan, birinchi bosqich talabalari berilgan musiqa asarining bir qismini yoki yarmini yoddan ijro etdilar, qolgan qismini esa, qo'ituvchining o'zi ijro etdi. Natijada, talaba jiro etgan kuyning yarmini o'qituvchidan eshitdi va bu asarning qolgan yarmini tanish kuydek engil ijro etdi. SHunga ko'ra, aniq va noaniq ijro o'rtasidagi farqni ko'rgan talaba kuyni toza ijro etishga harakat qildi.

Vokal-xor ko'nikma va malakalarini egallashga nafasni to'g'ri olish va qo'shiqni ijro etishda uni to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor berildi. Asarlarni ijro etshda faqat sekin tempdan foydalanish yaxshi natija berdi. Ritmik tuzilishni aniq ijro etishga

sezgan, ovozni hosil qilishda va balandlikni aniqlashda o'qida ishonchni sezmagani II-III-guruhlar uchun nota savodini o'zlashtirish, solfedjio ko'nikmalari, ladtonlikni his qilish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qo'shiq kuylashning rivojlanishida tempni, tembrni, dinamikani, metr-ritmni, ladni va hokazo musiqiy tilning boshqa elementlarini bir0biridan farqlashga alohida e'tibor berildi. Ishonchsiz qo'shiq kuylayotgan talabalarni cholg'u ijrochiligi yordamida va yordamisiz amaliyotda tekshirildi. Tovush balandligi haqidagi tasavvur imkoniyatlari orqali nota o'qish ko'nikmasi kengaytirildi. Imkoni boricha talabalar diqqatlarining rivojlanishi uchun major-minor tizimini o'zlashtirishga va uni anglagan holda eshitishga jalb qilindi. SHunday qilib, talabalar bilan olib borilgan yakka mashg'ulotlarda kata ish qilindi. Avvalambor, ular nota matnini mustaqil o'qishga, kuyni to'g'ri eslashga, cholg'u ijrochiligini, ovozni sozlash va nota nomini aytib kuylashdagi dastlabki ko'nikmalardan foydalanishga, tonlikning uch tovushliklarini kuylashga o'rgandilar. Ohang eshitishni (bilish va anglash jarayoniga bog'liq holda tuzulish, ladtonlik, ritmik va temp o'zgarishlarnig' o'ziga xos namoyon bo'lishi, tovush balandliklarini tasavvur etish qobiliyatining rivojlanganligi va ularning talabalarda aks etishi allaqachon, boshlashg'ich bosqichda tuzilishlar /motiv, fraza, davr, bir qisimlm, ikki qisimli, uch qisimli) haqida tasavvurlarni; obraz rivojlanishini kuzatish ko'nikmalarini; musiqa rivojlanishining asosiy tamoyillari takrorlanish, keskin qarama qarshilik, muqobillik haqida tasavvurlarini shakllantirish zarurligini tasdiqlashga imkon berdi.

Faoliyatning har xil turlarida ritmik vazifalarni (bir me'yorda urib turgan ritmik hissalarini aniq va ravshan his qilish) bajarish; kuylash, soda asboblarda (rubob, dutor, afg'on rubobi, doira va boshqalar) chalish, nota nomlari bilan kuylash (solfedjio), musiqa eshitish, musiqiy-ritmik harakatlar, ritmik his qilishning rivojlanishiga amaliy asos bo'ldi. Bunda keng tarqalgan va maqbul faoliyat orqali talabalar tushunishlari uchun ritmik izchillikni barchaga tanish cholg'u ijrochiligida ko'rsatish foydali bo'ldi. Ritmik his qilishning rivojlanishi, unga hissiy va ongli munosabatda bo'lishdan yuzaga keldi. SHunday qilib, talabalarda ritmik his qilish qobiliyatlarini quyidagi yo'llar bilan

rivojlantirish mumkin degan xulosaga keldik:

- musiqaning hissiy-obrazlilik mazmuni va ritmik o'zaro munosabatlar o'rtasida o'rnatilgan aloqadan foydalanish;

- har qanday faoliyat turida u yoki bu ritmik munosabatlarni notalar yordamida qayta eshittirish imkoniyatidan foydalanish;

- ritmik munosabatlar haqida turg'un tasavvurni shakllantirish; - musiqiy shaklning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon bo'lishi va ularni tahlil qilish;

- ritmni musiqaning turli xil janrlari (qo'shiq, marsh, raqs) orqali o'zlashtirish;

- ritmik va tovush balandliklarining sekin-asta o'sishidagi murakkablikni hisobga olgan holda milliy musiqa san'ati va maktab «Musika» dasturi materiallaridan mashg'ulotning barcha shakllari (o'quv, auditoriyadan tashqari) da amaliy foydalanish;

- biror bir musiqa asarini talabalar bilan tahlil qilish orqali amalga oshirish.

Biz tajribaning I-bosqichida oldimizga qo'ygan asosiy maqsadlarimizga erishdik. Eng avvalo talabalarda milliy musiqa san'atimizga qiziqish, qadriyatlarga yo'nalganlik, ehtiyoj uyg'ota oldik. Milliy musiqa san'timizning takrorlanmas durdonalari bilan bir qatorda I-sinf "Musika" dasturiga kirgan musiqa asarlaridan ham foydalandik. Ayniqsa, "Cholg'u ijrochiligi" fani yuzasidan o'tkazilgan mashg'ulotlar jarayonida har xil faoliyat turlari (qo'shiq aytish, vokal-xor elementlari, dirijyorlik, nota bilan kuylash, bir vaqtda chalish hamda kuylash va hokazo)ni birga qo'shib olib borish bilan tajribaning II-bosqichiga kerakli tayyorgarlikni amalga oshirdik.

Tajribaning II-boqichida bilim va ko'nikmalarini kengaytirish, musiqiy-pedagogik yo'nalishda musiqiy tarbiya berish bilan bir qatorda quyidagilar nazarda tutilgan: a) talabalarining bundan keyingi musiqiy rivojlanishi va ularda shakllangan bilim hamda ko'nikmalarining ta'lim natijasiga ta'siri; b) amaliy mashg'ulotlarida musiqiy-amaliy faoliyatning kengayishi; v) milliy musiqa san'ati ta'sirini oshirib borish bilan qiziqish va ehtiyojning kengayib borishi.

Ikkinchi boqichda jadal tajriba to'plash "Musika o'qitish metodikasi" fanini o'zlashtirish bilan amalga oshirildi. "Cholg'u

ijrochiligi" mashg'uloti esa, parallel ravishda davom ettirildi.

"Musika o'qitish metodikasi" predmetining nazariy qismi quyidagi masalalarni o'rganishni o'z ichiga oldi:

1. Musika - san'atning bir turi ekanligi, uning o'ziga xos xususiyatlari, hayotiy aloqalari, shaxsning har tomonlama rivojlanishdagi o'rni va ijtimoiy mohiyati; musiqiy-estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari; san'atning g'oyaviy-ahloqiy yo'nalganligi; musiqani his qilish asoslari; hissiy-estetik ko'rinishda bo'lgan musiqa san'ati haqida to'raligicha tasavvur.

2. Musiqaning nazariy asosi: uchta asosiy janr (qo'shiq, marsh, raqs) larning ravshan tasviriy mohiyatini va musiqiy til vositalarini tushunish; kontrast ohanglarni, mavzuni, badiiy obrazlarni, turli xil asarlarda ularning rivojlanishini, tuzilish shakllarini solishtirish; musiqaning xarakterli xususiyatlarini, uning alohida va umumiy qirralarini, ta'sir qilish hususiyatlarini o'rganish.

Biz talabalarining ta'lim olish jarayonini kuzatish orqali shunday xulosaga keldikki, musiqa fanlari siklidagi o'quv mashg'ulotlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak ekan.

Ma'lumki, oliy o'quv yurtidagi amaliy mashg'ulotlari predmetning ilmiy-nazariy asosini chuqur o'zlashtirishni, zamonaviy usul va ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi. O'quv materiallarini o'zlashtirishda va ijodiy fikrlashning rivojlanishiga ko'maklashuvchi nazariya bilan tajribaning qo'shilishi amaliy mashg'ulotlari uchun xarakterlidir. Amaliy mashg'ulotlari talabadan tashabbus ko'rsatishni, kuzatuvchanlikni va mustaqil xulosaga kelishni talab etadi.

Amaliy mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar elementlarining bir-biriga o'zaro qorishib ketishidir. Bunday kompleks amaliy mashg'ulotlari bir tomondan musiqiy fanlarning organik bog'langanligi va ularning nazariy va amaliy o'zlashtirish bilan ajralib turuvchi bir-biriga bog'laq ta'lim mazmunidan kelib chiqib tashkil qilindi. Amaliy mashg'ulotlar bilim va ko'nikmalarni egallashda, talabalarining imkoniyatlarini hisobga olishda, musiqiy qobiliyatlarini rivojlanishida eng qulay shakldir.

Musiqiy-pedagogik tayyorgarlikda amaliy mashg'ulotining

mohiyatini aniqlash bilan "Musiqqa o'qitish metodikasi" faniga bosh bo'g'in sifatida qarash muhimdir. Bu, estetik tarbiya haqidagi masalalarni chuqur yorituvchi o'ziga yarasha murakkab kurs hisoblanadi. Musiqiy siklga kiruvchi fanlarning o'zaro aloqasi, bog'liqligi, mashg'ulotlar o'tish shakllari va usullari mazmuniga asosan, metodika kursining markazida turadi.

Bizning tadqiqotimizda "Musiqqa o'qitish metodikasi" fanining asosiy mazmunini umumiy o'rta ta'lim maktabi I-VII - sinf "Musiqqa" dasturi tashkil qildi.

"Musiqqa o'qitish metodikasi" kursidan amaliy mashg'ulotning kompleks mazmunini, uni o'tkazishdagi shakl va usullarning birligi tashkil qildi. Bu, har bir mashg'ulotda kasb tayyorgarligidagi musiqiy-pedagogik faoliyat prinsipalarining shakllanishini amalga oshirishga imkon berdi. Mashg'ulotning amaliy shakli nafaqat predmetlarni balki, faoliyat turlarini g'yakka va xorda kuylash, musiqani eshitish va tahlil qilish, cholg'u ijrochiligida chalish, nota bilan o'qish, musiqiy-ritmik harakatlarga birlashtirish bilan ham xarakterlidir.

Faoliyat turlari kompleksi - uning asosini tashkil qiluvchi musiqiy material va mavzuning ketma-ketlik tamoyili, faoliyat turlari hamda shaklini birlashtiradi. Har bir mavzu predmetlarni bir butun majmuaga bog'lab o'rganishga imkon beradi. Musiqiy material esa, umumlashtiruvchi bo'lib xizmat qiladi. Mavzuli mashg'ulot va musiqiy material organik zaruriyatdek predmetlarning ichki aloqasini maalgga oshirishga yordam beradi. Har qanday navbatdagi mashg'ulot g'mavzug' o'zidan oldingi mavzudan kelib chiqib, musiqiy san'atning imkoniyatlarini bosqichma-bosqich ochish bilan kelajakda zaruriy bilimlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. «Cholg'u ijrochiligi» mashg'ulotida va musiqiy amaliy faoliyatida olingan bilim va ko'nikmalarning musiqqa o'qitish metodikasi mashg'ulotlarida foydalanish, auditoriyadan tashqari ishlarni o'tkazishda ham zaruriy shart hisoblanadi. O'z navbatida olingan bilim va ko'nikmalar musiqiy sikldagi predmetlarni o'zlashtirish zaruriy omildir. Shuning uchun ham navbatdagi amaliy mashg'ulotlari bilim va ko'nikmalarni yanada chuqurroq darajada umumlashtirishga xizmat qiladi.

Predmetlarning o'zaro aloqasi va musiqiy faoliyat turlarini

ifodalovchi kompleks ta'lim: eshitish qobiliyatini rivojlanishini kuzatish, savollarga mustaqil javob berish, faol fikrlashga undovchi vaziyatni tashkil qilish, oliy o'quv yurtida o'qituvchini tayyorlash jarayonida pedagogik vaziyatni andozalash kabilar amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda eng zaruriy shartlar hisoblanadi.

Ta'limni amalga oshirishda faoliyat turlarini birlashtirish asos bo'ldi. Ko'nikmalarni shakllantirish uchun mashqlar va uni nazorat qilish kabi taqlim elementlarini mujassamlashtiruvchi kompleks amaliy mashg'ulotlari musiqiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonining samarali shakli deb qaraldi. Oliy o'quv yurti sharoitidagi mashg'ulotlarda "Musiqqa" darsini bevosita andazalash orqali maktabdagi o'quv jarayonini tashkil qilishga imkon berdi, turli xil musiqiy-pedagogik vazifalarni hal qilish uchun qulay sharoit yaratildi. Bu o'quv shaklida, mavjud bo'lgan tajribani tadbiiq qilish bilan yangi materialni navbatma-navbat bayon qilish diqqatni oshirishga va ijodiy fikrlashga yordam beoadi. mashg'ulotlarda milliy musiqqa san'atining o'ziga xos musiqiy-estetik imkoniyatlari maksimum darajada amalga oshirildi.

Guruxlar bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlar jarayonida boshqa muammolar qatori "Musiqqa o'qitish metodikasi" fanining asosiy mazmunini yorituvchi bilim va ko'nikmalarni yanada aniqlashtirish va ularni yangi bilimlarni o'zlashtirishda qo'llash kabi muammolar ham hal qilindi.

Musiqqa shaklini tuzilishini tahlil qilish jarayonida, quyidagilar nazarda tutildi:

a) dastlab talabalarda musiqiy asarlarning tuzilish tamoyillari haqida bilim va musiqiy san'atning rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlar haqida tasavvurni shakllantirish;

b) milliy musiqqa asarlaridan foydalanish va talabalarni faol jalb qilish bilan ularning diqqatlarini oddiy va kengroq shakllarni o'zlashtirishga qaratish;

v) musiqiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida talabalarning o'zlashtirishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar doirasini aniqlash;

g) musiqiy tilning ifodaliligi imkoniyatlariga suyangan holda

mazmun va shaklning aloqasi haqidagi tushunchani chuqurlashtirish;

d) umumiy o'rta ta'lim maktabi "Musika" dasturidagi musiqiy shakl tuzilishining mohiyatini va o'rnini aniqlash;

e) talabalarning muhim bilimlarni egallashga diqqatlarini to'plash va murakkabroq musiqiy tuzilishlarni idrok qilishga tayyorlash;

j) musiqiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida to'plangan bilim va ko'nikmalarni musika asarlarini tabaqali idrok qilishda faol qo'llash.

Talabalarni har xil faoliyat turlariga jalb qilish orqali mashg'ulotlarning boshlanishi turli xil bo'ladi: ba'zida «metodika» kursi mashg'ulotlari musiqani (maktab dasturiga kiruvchi) o'rganish, uni tahlil qilish va o'tish usuliyati bilan; vokal-xor ko'nikma, malakalari ustida ishlash bilan; muayyan darsning uslubiy vazifalarini tahlil qilish bilan boshlanadi.

Maxsus bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning yo'llarini axtarish bilan musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni shakllantirish muammosini hal etish yo'llari aniqlandi. Musiqiy predmetlardagi o'quv-tarbiyaviy vazifalarning birligi bilim va ko'nikmalarni har qanday faoliyatda qo'llash uchun qulay sharoit yaratishga, milliy musika san'atini yuqori darajada egallash imkoniyatiga ta'sir etdi. Tayyorgarlikning asosini tashkil qiluvchi bilim, vosita, uslub va yo'llarni amalda qo'llash tajribasi talabalarni faollashtiruvchi omil bo'lib xizmat qildi.

"Cholg'u ijrochiligi" mashg'uloti jarayonida mustaqil va o'qituvchi yordamida tanlangan musika asarini ijro etish katta samara berdi. Masalan, biror-bir milliy musika asariga qisqacha ma'lumot berish bilan shu janrning yaratilish tarixi va shu janrda ijod etgan mualliflar haqida hikoya qilib berish, kursdoshi ijro etgan noma'lum musika asarini tahlil qilish, darsda ijro etilayotgan qo'shiq xususida kirish so'zi aytish va hokazo.

Navbatdagi amaliy mashg'ulotiga mavzu yuzasidan biror-bir talabaning ma'ruza (5-7 daqiqa) tayyorlab kelishi diqqat-e'tiborni tortdi. Guruhdagi boshqa talabalar ham manbalar bilan tanishib keldilar. Masalan, II-sinf, I-choragining musika tinglash qismida berilgan o'zbek xalq kuyi «Cho'li iroq» /sato/ ni eshitib, tahlil qilib

kelish topshirildi va aniq reja asoaida qisqacha taqriz yozildi. Adabiyotlar bilan mustaqil ishlash va qilingan xabardan nima yangilik bildilaring?, Oldingi mashg'ulot bilan yangi olingan ma'lumotlar o'rtasida qannaqa bog'liqlik bor?, Ma'ruza mavzu qanchalik yorqin ifodalangan?, Musiqiy tushunchadan qannaqa darajada foydalanilgan?, Shaxsiy musiqiy tajribaga suyanib ma'ruzaga nima yangilik kiritish mumkin?, Kichik maktab o'quvchilarining estetik tarbiyasida maktab "Musika" dasturining qanday ahamiyati bor? O'qilgan taqriz muhokamalar bilan to'ldirildi. Mashg'ulot mavzusi asosida talabalar egallagan bilimlar o'qituvchi tomonidan umumlashtirildi.

Predmetning o'ziga xos xususiyatini o'rganish maqsadiga yo'naltirilgan har qanday faoliyat, dars jarayonini boshqarish ko'nikmasining rivojlanishiga yordam berdi. Musiqiy mashg'ulotlarni andazalashtirish, maqsad, vazifa, mazmun, tamoyillar va usullar birligini anglash musiqiy-pedagogik tayyorgarlikda nihoyatda muhimdir. Ta'limning amaliy shakli sharoitida asbobda chalish, dirijyorlik qilish, qo'shiq aytish, notada kuylash /solfedjio/ elementlarini bajarishda ijodiy-faol fikrlashni to'raligicha qo'llab-quvvatlash imkoniyatining borligi ma'lum bo'ldi. Masalan, talaba asarni jiro etishga va musiqiy obrazni idrok qilish uchun tayyorlanadi. Bu holatga befarq qaraydiganlar qolmaydi va juda qulay muhit tashkil qilinadi. Talaba asarni ijro etadi, qolganlar esa uni butun vujudlari bilan eshitadilar. Shundan so'ng, darsni muhokama qilishga barcha talabalar jalb qilinadilar. Bunda tajribani amaliy qo'llashga bo'lgan qiziqishga alohida e'tibor qaratilib: uslubiy ketma-ketlik asosida musiqiy materialni tushunish; olingan ma'lumotlarni chuqurlashtirish va kengaytirishda dars muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Bo'lajak musika o'qituvchisida musiqiy-pedagogik tayyorgarlikning shakllanishida "Cholg'u ijrochiligi" etakchi predmet hisoblanadi. "Cholg'u ijrochiligi"da chalish uslubiyati talabalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ular musiqiy-estetik va umumiy rivojlanish o'rtasidagi uzulish borligi nuqtai nazaridan alohida yondashishni talab qildi. Zamonaviy "Musika" darsi jarayonida texnik vositalar, turli xil musika

asboblari (rubob, dutor, fortepiano, doira)dan foydalanish shaxsiy ijrochiilik ko'nikmalarini egallashga yangicha qarashga majbur etdi. Maktab "Musika" dasturini o'zlashtirishning maqsad va vazifalarini belgilab olish zaruriyati tug'ildi. Bu bilan bog'liq o'tilayotgan "Cholg'u ijrochiligi" mashg'ulotlar quyidagi bosqichlarda tashkil qilindi: birinchi bosqich, qo'shiq ustida ishlash va kuyni nota nomlari bilan kuylash, qo'shiq aytish bilan bir vaqtda qo'l bilan dirijyorlik elementlarini bajarish, cholg'u ijrochiligida chalish, o'z ijrosini kuzatib borish, musiqani tahlil qilishg' - 15 daqiqa. Ikkinchi bosqich, qo'shiqning obrazli mazmunini ochishda musiqiy til elementlarining tahlili, ilmiy ma'lumotlar, ifodali ijro etish - 13 daqiqa. Uchinchi bosqich, o'qituvchi rahbarligi ostida talabaga ko'rsatilgan kamchiliklarni hisobga olgan holda yod olgan repertuarni chalish - 10 daqiqa. To'rtinchi bosqich, notaga qarab o'qish: asarni tahlil qilish (guruhli mashg'ulotlarda egallangan bilimlar asosida) - 7 daqiqa.

Darsning birinchi jo'rlukda ijro etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, metro-ritm ustida ishlashni o'z ichiga oldi. Ikkinchi bosqich, o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklar ustida ishlash va asarni mustaqil tahlil qilish. Uchinchi bosqich, repertuarni ijro etish. Bu qism darsning cho'qqisi bo'lib, konsert elementlarini o'zida mujassamlashtirdi. Bu hissiy kayfiyat rubobni chalish san'atining asosini egallashga ishonchni tarbiyalash uchun zarurdir. To'rtinchi bosqich, notani o'qish va tahlil qilish, noma'lum musika asarini o'qish malakasini shakllantirishga imkon yaratdi. Talabalarning individual daftarlariga ularning erishgan natijalari qisqacha xulosalar, navbatdagi mashg'ulotgacha bajarilishi kerak bo'lgan kamchiliklar va ko'rsatmalar qayd qilib borildi. Bu esa, rivojlanish darajalarini kuzatishga va tajribani uzluksiz to'plashga imkon berdi. Har bir talaba bilan individual mashg'ulot o'tkazish sharoitida o'quv semestrining natijasi o'laroq, guruhliy konsertlar uyushtirish yordamida musika san'ati bilan shaxsiy-ijodiy muloqotda bo'lish imkoniyati tug'ildi. Bundan tashqari yakka mashg'ulot, guruhliy konsertlar talabalarning milliy musika o'z fikrlarini ifodalashlariga, o'quv va qo'shimcha materiallarni o'zlashtirishlariga, musiqani eshitish ko'nikmasi shakllanishiga,

ijro etilgan asarni tahlil qilish malakasining paydo bo'lishiga ko'maklashdi.

Ma'lumki, bir vaqtning o'zida ham chalish, ham kuylash musiqiy qobiliyatning rivojlanishiga kuchli ta'sir qiladi. Chalish va kuylash jarayonida bosh miya, quloq, ovoz, ko'rish va boshqalar orqali inshaklsiya olinadi. Bir vaqtda chalish va kuylash faoliyati musiqiy eshitishning rivojlanishini samarali amalga oshiradi. Bu esa, ovoz va eshitish o'rtasidagi muvofiqlik etarlicha rivojlanmagan talabalar uchun juda muhimdir. Foydalanilgan yo'l etarlicha samarali bo'lib chiqdi. SHunga ko'ra, chalish va kuylash maqsadga muvofiq uzviy va uzoq vaqtdan beri o'tilayapti. Ovozda ohangni to'g'ri kuylashni yaxshilash natijalarining cholg'u ijrochiligida ijro etish sifatiga ta'siri shundoq ko'rinib turibdi. "Cholg'u ijrochiligi" mashg'ulotlarida olib borilgan tajribalar natijasida tabaqalashtirilgan birinchi kichik guruh talabalari ikkinchi yilda ikkinchi sinf "Musika" dasturi va darsligidagi berilgan barcha musika asarlarini ijro etadigan bo'ldilar. Ikkinchi kichik guruh ham (ba'zi bir murakkab musika asarlaridan tashqari) musiqiy qobiliyatlariga yarasha harakat qildilar. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, cholg'u ijrochiligida chalish ishida eng muhimi talabalarda o'zlari ijro etgan musika mazmunini chuqur tushunish va yorqin tasavvur etish ko'nikmasining shakllanishiga; temp tuzilishining barqarorligini, o'ziga xos qiyinchiliklarni anglash va bartaraf etishga urinish tajribasi paydo bo'lishiga erishildi.

Shunday qilib, "Cholg'u ijrochiligi" mashg'ulotlari jarayonini tahlil qilish natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining maktabdagi musiqiy-amaliy faoliyat vazifalari bilan bog'liq bo'lgan "Cholg'u ijrochiligi" fanining "Musika o'qitish metodikasi" fani bilan o'zaro aloqasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Musiqiy-pedagogik ishlarning muayyan mazmuni bilan tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari: talabalarda cholg'u ijrochiligi yordamida vokal-xor elementlarini o'zlashtirish va musiqani yorqin ohangda ijro etish ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishga; bir vaqtning o'zida kuylash, chalish va dirijyorlik qilish bilan talabalarning musiqiy eshitishlarida olg'a siljishlariga;

musiqadagi badiiylikni, obrazlilikni to'g'ri talqin eta olishga; dastlabki bosqichda asardagi ruhiy holatni aniqlash, mazmunni ochish, asosiy g'oyani ajratishga; musiqiy rivojlanishning asosiy tamoyillari haqidagi tasavvur va tushunchalar bilan elementlar tuzulishlarni erkinroq tahlil qilishga; musiqa ifoda vositalarining ahamiyatini anglashga; mazmuni, g'oyasi, ruhiy holati o'xshash bo'lgan musiqiy asarlarni o'zlashtirishga; musiqiy asar qismlarida obrazning rivojlanishini eshitish va kuzatish orqali maxsus musiqiy kuzatuvchanlik ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga; mazmunni og'zakki aytib berish orqali musiqiy obraz haqida tasavvurlarni boyitishga erishildi.

I-VII sinf o'quvchilarining musiqa fani o'quv dasturini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar

Musiqiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatning barcha sohasi va turlarida uyg'un va predmetlarning o'zaro aloqasida amalga oshiriladigan musiqiy qobiliyatni rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalarni to'plash, jadallashtirish bu bosqichdagi farazlarimizning to'g'riligini tasdiqladi. Musiqiy-pedagogik ishda zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlab, bundan keyingi istiqbollarni ochdi, musiqiy-pedagogik tayyorgarlikka qiziqish va hohishga chorladi. Buning uchun esa, ularni ta'lim jarayonining faol qatnashchisi vaziyatiga va har xil faoliyat turlariga jalb qilish va shu bilan kasbiy bilimlarni o'zlashtirishga yordam berishga; ilmiy va amaliy xarakterdagi dastlabki bilimlarga asoslangan vazifalardan foydalanishga rioya qilindi.

Bu bilan bir qatorda tajriba shuni ko'rsatdiki, ba'zi ma'lumotlarning etishmasligi talabalar faoliyatini qiyinlashtirdi. Ularning yo'qligi esa, javoblardagi aniqlikni kamaytirdi. SHuning uchun musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus bilim va mustaqil faol-ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalarni egallash katta ahamiyat kasb etdi. Biz talabalar o'quv materiallarni ongli o'zlashtirishlari uchun qancha talab qilinsa shuncha bilim to'plashlariga harakat qildik.

Bu bilan bog'liq III (tugallanish) boqichda quyidagilar zarur ekanligi ayon bo'ldi:

1. Ijodiy xarakterdagi bilim va ko'nikmalarning bundan keyingi shakllanishi amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqdir.

2. Musiqiy-pedagogik fikrlash madaniyatining o'sishi olingan bilim va yig'ilgan tajriba bazasida tasavvur rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

3. Musiqiy madaniyatning rivojlanish qonuniyatlari, uning xususiyatlari haqida maxsus bilimlar: kompozitorning usul yo'nalishlari haqida tarixiy-nazariy ma'lumot; musiqiy-pedagogik adabiyotlarning manbalari, kataloglar, bibliografik ma'lumotnomalardan foydalanish, mustaqil tahlil qilish ko'nikmasi, tadqiqotchilik xarakteridagi ko'nikma va malakalarni egallash talab etiladi.

Tugallanuvchi III-bosqich (VII semestr) da ham tayyorgarlikning asosiy mazmunini V-VII sinf "Musiqqa" dasturi materiallari va milliy musiqa san'atimizning "Maqom" janriga kiruvchi ayrim kuy va qo'shiqlar tashkil qildi. Bu bosqichda ham "Musiqqa o'qitish metodikasi" va "Cholg'u ijrochiligi" fanlarini parallel olib borish davom ettirildi.

III-sinf (V-semestr) "Musiqqa" dasturi materiallari o'z ichiga quyidagi mavzularni oldi: III-sinf - yil mavzusi: "Musiqada shakl va mazmun" deb atalib, quyidagichia mavzularga bo'linadi: I-chorak - "Musiqada pauzalar"; II-chorak - "Ansaml turlari"; III-chorak - "Musiqada ifoda vositalari"; IV-chorak - "Oddiy musiqa shakllari".

IV-sinf - yil mavzusi: "Ozbek xalq musiqa ijodi". Bu mavzu: I-chorak - "Xalq ayimlari va cholg'ulari"; II-chorak - "Bayram va marosim qo'shiqlari"; III-chorak - "Mavsum va marosim qo'shiqlari"; IV-chorak - "Bahor fasliga oid qo'shiqlar" kabilarga bo'linadi.

Bundan tashqari ta'lim jarayonida o'zbek xalqining mumtoz "Maqom" san'ati ("Shashmaqom") ning mushkulot va nasr yo'llari, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan ayrim namunalar eshittirish va ijro etib berish bilan talabalarga bu haqda ma'lumotlar berib borildi. Bunda milliy musiqa san'atimizning klassifikatsiya qilganimizdagi 3-guruh musiqa asarlaridan foydalanildi.

Bu bosqichda talabalarning (I-II bosqichda) to'plagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatga qo'llashlariga katta e'tibor berildi. III-bosqichning qiyinchilik tomoni shu bilan xarakterli bo'ldiki, talabalar V-VI - semestrning o'zida III-IV sinf "Musika" materiallarini o'zlashtirishlari zarur bo'ldi.

Yig'ilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasi talabalarda musiqiy-pedagogik fikrlashni, maktabdagi musiqiy-estetik ishga tayyorgarlik oldidagi ma'suliyat hissini o'sganligini ko'rsatdi. Chunki, davlat rejasi bo'yicha V-semestr tugashi bilan 2-pedagogik amaliyot boshlanadi. SHuning uchun ham talabalarning e'tibori faol-ijodiy fikrlashga, musiqiy-pedagogik adabiyotlarning manbalari bilan mustaqil tanishishga, musiqiy madaniyat dairalarini yanada kengaytirishga, musiqa asarlarini ko'proq mustaqil tahlil qilishga, "Musika" darsini tashkil etishning zamonaviy usullarini yanada chuqur egallashga qaratildi.

Bunda:

1. Muammoga tegishli ilmiy-tadqiqotlar, adabiyotlar va musiqa dars mashg'ulotlari mazmunini tahlil qilish ularning musiqiy-pedagogik faoliyati prinsipalarini aniqlash va uning tayyorgarlik darajasi ko'rsatgichlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

2. Talabalarning musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligi: o'z kasbiga munosabat, bilimdonlik, hissiy-emotsional, axborot berish, loyihalash, tashkilotchilik, muloqot qilish, tadqiqotchilik va tahliliy-umumlashtiruvchi prinsiparlardan iborat.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktabi "Musika" dasturi mazmunidan kelib chiqib, bakalavriat talabasi musiqiy-pedagogik ishga tayyorgarligini amalga oshirishda milliy musiqa san'atidan ta'lim va tarbiya jarayonida muhim vosita sifatida foydalanish.

4. Ta'lim jarayonida talabalarining musiqiy-pedagogik ishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, musiqiy fanlarning o'zaro aloqasini yo'lga qo'yish, bir vaqtning o'zida faoliyatning bir necha turidan foydalanish asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining musiqa tarbiyasi ishiga tayyorlashni bosqichma-bosqich amalga oshirish uni ketma-ket, uzviy yo'lga qo'yishni ta'minlash lozim.

6. Ta'lim jarayoniga milliy musiqa san'ati asarlarini kengroq olib kirish bilan 1-7 sinf o'quvchilarida musiqiy-pedagogik faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishga erishish mumkin.

8. O'quvchilarni musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda milliy musiqa asarlari, shuningdek maktab "Musika" dasturi materiallaridan foydalanish, ular faoliyatini maktab musiqa darsidek tashkil qilish bilan bir vaqtning o'zida ruhiy, nazariy va amaliy tayyorlash amalga oshiriladi.

IV BOB: BAKALAVRIAT BOSQICHI "MUSIQA TA'LIMI" TA'LIM YO'NALISHI TA'LABALARINI MUSIQIY- PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

Bakalavriat talabalarining musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlashda malakaviy amaliyot tashkil etish metodikasi

Bo'lajak musiqa o'qituvchisini musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda malakaviy pedagogik amaliyot muhim o'rin tutadi. U o'quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismi bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining oliy dargohda olgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda sinab ko'rish imkonini beradi.

Musiqiy-pedagogik amaliyot o'z maqsadiga ko'ra, talabalarni mustaqil "musiqa" darslarini o'tishga tayyorgarlik ko'rish va musiqiy-pedagogik faoliyatining prinsipilarini shakllanishida zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. Pedagogik amaliyot jarayonida musiqiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi namoyon bo'ladi va uning rivojlanishi jadallashadi.

Oliy dargohdagi musiqiy mashg'ulotlar jarayonida olingan bilim, ko'nikma va malakalar pedagogik amaliyotga tayyorgarliklariga asos bo'lib xizmat qiladi. Bular: musiqa nazariyasi bilan musiqa tarbiyasi usuliyoti; individual mashg'ulotlar jarayonida cholg'u ijrochiligini chalish ko'nikmalarini egallash; psixologik-pedagogik fanlarni o'zlashtirish; birinchi kursdan boshlab, I-IV sinf "Musiqqa" dasturlari asosida tayyorlashni; badiiy havaskorlikning har xil turlarida qatnashish; musiqiy konsertlarga kirish; musiqiy-ilmiy to'garaklarda qatnashish. Pedagogik amaliyotda o'quv-tarbiyaviy jarayonning pedagogik bir ubtunligi tamoyili amalga oshiriladi. Shuning uchun ham musiqiy va pedagogik faoliyatning barcha turlari musiqiy-pedagogik faoliyat prinsipilarining takomillashishiga yo'naltiriladi.

Joriy konferensiyada amaliyotchilar oldiga bir qancha vazifalar qo'yildi: musiqadan sinov darsi o'tkazish; sinfdan tashqari musiqiy-tarbiyaviy mashg'ulotlar o'tkazish (xor jamoasini tuzish, 8-mart, "Navro'z" bayramlariga bag'ishlangan

ertaliklarga tayyorgarlik), o'zining shaxsiy faoliyatini va o'rtoqlari o'tkazgan musiqa darslarini yozma ravishda tahlil qilib borish, maktabdagi musiqiy-estetik tarbiya ishlari, "Musiqqa" darsi jarayoni bilan tanishish; milliy musiqa asarlarining maktab "Musiqqa" darsi jarayoni bilan tanishish; milliy musiqa asarlarining maktab "Musiqqa" dasturida tutgan o'rnini aniqlash; sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatning turli shakllarini o'rganish; o'quvchilarni kuzatish (musiqqa darsi ta'sirining sinf jamoasida va uning jipsligida namoyon bo'lishi, musiqa san'atiga qiziqishning shakllanganligi, musiqiy madaniyatning darajasi, musiqa boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi va uning maktab o'quvchilari estetik rivojlanishiga ta'siri).

Pedagogik amaliyot III-IV kurs talabalarini oldiga maktabdagi musiqiy-estetik ishlarda faol munosabatda bo'lishni vazifa qilib qo'ydi va uning mazmuni musiqiy-tarbiyaviy tadbirlarni, musiqa darslarini tashkil qili shva o'tkazishda nazariy bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llashdan iborat bo'ldi.

Musiqiy-pedagogik amaliyotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. O'qituvchining musiqiy-pedagogik sohada mustaqil bilim olishga zarur bo'lgan shaxsiy sifatlarini tarbiyalash;
2. Bo'lajak musiqa o'qituvchisida musiqiy-pedagogik faolitga turg'un mehr-muhabbat va qiziqishni tarbiyalash;
3. Aniq musiqiy-pedagogik vazifalarni echish jarayonida ijtimoiy-siyosiy, psixologik-pedagogik, maxsus bilimlardan foydalanish orqali ularni mustahkamlash, chuqurlashtirish va boyitish;
4. Bo'lajak musiqa o'qituvchisida pedagogik hamda musiqa ma'rifatchisining kasbiy ko'nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
5. Musiqiy-pedagogik faoliyatga ijodiy, tadqiqiy yondashish;
6. Ilg'or musiqiy-pedagogik tajribalar, maktabdagi musiqiy o'quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy holatlari bilan tanishish;
7. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy-estetik tarbiyasi vazifalarini yechishda o'quv-tarbiyaviy muassasalariga yordam berish;
8. Maktab musiqa darslarini sinfdan va maktabdan tashqari

musiqiy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda milliy musiqa asarlaridan unimli foydalanish.

Musiqiy-pedagogik amaliyot qo'ygan asosiy vazifalar amaliyotchi-talabalar va musiqa fani o'qituvchilari uchun asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyot Respublika xududiy umumiy o'rta ta'lim maktablarda olib boriladi. Musiqiy-pedagogik amaliyot ham usuliyot, ham ruhiy tomondan o'ziga xos xususiyatga ega. Chunki, bu amaliyot talabalar uchun birinchisidir. Bundan tashqari, bu amaliyotga vaqt kam ajratilgani /1 oy/ va "Musika" darsi haftasiga 1 soat bo'lganligi uchun ham talabalarga darsga mustaqil tayyorlanish va uni o'tkazishga e'tibor kuchaytirildi. Muayyan darsni o'tishga o'z bilim, ko'nikma va malakalarini to'liq safarbar etishning maqsadga muvofiqligi; darsning ijtimoiy, nazariy, psixologik-pedagogik vazifalarini aniq tushinish; o'quvchilar yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish bilan tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, musiqiy o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniqlash; o'quvchilarning musiqiy rivojlanishi va tarbiyasini tashhis qilish, loyihalash maqsadida alohida o'quvchi shaxsi va o'quvchilar jamoasini o'rganish; musiqiy-pedagogik faoliyatdagi (sinf va sinfdan tashqari musiqiy ishlar, bolalarning jamoa faoliyati va boshqalar) hozir yoki kelajakda amalga oshirish zarur bo'lgan ishlarni to'g'ri rejalashtirish; musiqiy-estetik vazifalarni to'liq bajarish uchun o'quvchilar jamoasini tashkil qilish, musiqiy tadbirlarni o'tkazishning har xil shakllaridan foydalanish amaliyotchi talabalar zimmasiga yuklandi.

Bu uchinchi bosqichdagi talabalar amaliyotini shartli ravishda "metodik" xarakterga va IV bosqichdagisini esa, "stajyorlik" xarakteriga ega bo'lgan amaliyot deb atash mumkin.

Pedagogik amaliyot jarayonidagi "joriy" tayyorgarlik talaba oldiga quyidagi vazifalarni amalga oshirishni qo'ydi: dars reja-konspekti bilan tanishish, aniq sinf xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga kerakli o'zgartirishlar kiritish, darsda o'tilishi kerak bo'lgan musiqa asari bilan yaqindan tanishish; musiqa asarini cholg'u ijrochiligida chalishni amalga oshirish; o'tilayotgan dars mavzusining dasturda tutgan o'rnini aniqlash va darsga

tayyorgarlikning usul va yo'llarini belgilash.

Joriy tayyorgarlikning metodik xarakteri quyidagilarni o'z ichiga oldi: darsning vazifasini aniqlash, darsning reja-konspektini tuzish va o'qituvchi yordamida unga kerakli o'zgartirishlar kiritish; darsning musiqiy materialari bilan yaqindan tanishish va dars jarayonidagi har xil faoliyat turlarida undan foydalanishning yo'llarini aniqlash; cholg'u ijrochiligida bir vaqtning o'zida ham chalish, ham kuylash. Bu tayyorgarlik jarayonida talaba musiqiy-pedagogik faoliyatning "loyihalash" prinsipini amalga oshirib, musiqa darsiga mustaqil tayyorgarlik ko'radi va uni loyihalashtiradi.

Talaba-amaliyotchilar "Musika" darsiga kirishdan 1-2 kun oldin ikkinchi bosqich tayyorgarlikni amalga oshirdilar. Ular o'qituvchi sifatida o'z guruhdoshlari va metodist-o'qituvchi ishtirokida darsni tashkil qildilar. Bunda quyidagi vazifalar amalga oshirildi: dars maqsadini to'g'ri qo'yish; bolalarni darsga jalb qilishning yo'llarini aniqlash; bilishga oid holatlarni tashkil qilish va uni amalga oshirish yo'llarini egallash; o'z-o'zini kuzatish, tahlil qilish, baholash qobiliyatini shakllantirish; o'qituvchining dars uchun zarur bo'lgan nutq into natsiyasini, hatti-harakatlar va imo-ishoralarni topish va mustahkamlash, tovush chiqarish apparatlaridan foydalanish ko'nikmalarini egallash; vokal-xor elementlari ustida ishlash, rejalashtirilgan musiqa asarini cholg'u ijrochiligida yorqin ijro etishga erishish; musiqa darsini (o'quvchilarning musiqani hissiy idrok qilishlari, o'qituvchi tomonidan dars mavzusini qanchalik yoritilishi, o'qituvchi va o'quvchilarning ijrochilik faoliyatlari nuqtai nazaridan) tahlil qilish bilan yaqindan tanishish.

Musiqiy-pedagogik amaliyotga talabalarning musiqa darslarini mustaqil ishlab chiqishlari va uning metodist-o'qituvchilar tomonidan tasdiqlanishi ahamiyat bosqichlardan hisoblanadi. Musika o'qituvchilarining musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarida bu bosqichning o'ziga xos xususiyatlari bor. Sinov darsining murakkabligi shundaki, talaba bir butun o'quv-tarbiyaviy jarayondan ajratib olingan bitta darsni o'tadi. SHuning uchun u maktab o'quvchilarining musiqiy rivojlanish oqimi haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Lekin, dasturda ko'rsatilgan darslarning

uslubiy ishlanmalari asosida faqatgina u haqda faraz qilishi mumkin. Bu esa, uning uchun o'z darsini tashkil qilishda qimmatli yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Talaba-amaliyotchi ish olib borayotgan sinfning o'ziga xos-xususiyatlari haqida shu sinf bilan doimiy ishlayotgan o'qituvchining bergan ma'lumotlari juda katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari talabalar o'z kasblarining xususiyatidan kelib chiqqan holda sinf o'quvchilarini har tomonlama yaxshi bilishadi. Bu esa, musiqa darsini o'tishga engillik tug'diradi. Musiqiy-pedagogik amaliyotda o'tkazilayotgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda musiqiy tayyorgarlikning dastlabki darajalari past ekan. SHuning uchun ham, biz talabalarni mustaqil ravishda musiqa darslarini ishlab chiqishga, reja-konspektlarini tuzib chiqishga jalb etdik. Shunga ko'ra, talaba musiqa darsini o'tish uchun muayyan sinfning sharoiti va xususiyatlarini hisobga olgan holda reja-konspekt tuzadi. Bunda talaba-amaliyotchi quyidagilarni ko'zda tutadi: muayyan sinf o'quvchilarining rivojlanish darajalari, o'tilgan dars va chorak mavzularni o'zlashtirganliklari, mustaqil hissiy idrok qilishlari, nutqning rivojlanganligi, vokal-xor ko'nikmalarining taraqqiyot darajasi, musiqa darsiga qiziqishlarining darajasi, o'tilayotgan darsning dasturdagi o'tilganlari bilan muvofiqligi va hokazo.

Talaba-amaliyotchilarning har bir sinf bilan o'tkazgan musiqa darsini tahlil qilishda biz, uchta holatga alohida e'tibor berdik: o'qituvchi va o'quvchilarning hissiylik darajasi; o'qituvchining dars mavzusini o'quvchilarga etkaza olishi va o'quvchilarning o'zashtirishi; o'qituvchi va o'quvchilarning ijrochilik faoliyatlari. Yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda tahlil qilingan har bir musiqa darsi talaba-amaliyotchilar uchun juda muhim bo'lib, ular o'z yutuq va kamchiliklarini bildilar va murakkab holatlarni bartaraf qilish yo'llarini o'rganib bordilar. Buning natijasida talaba-amaliyotchilarda keyingi pedagogik amaliyotni muvoffaqiyatli o'tashlari uchun imkoniyat shakllana bordi.

Talaba-amaliyotchilar musiqa darsini o'tishga tayyorgarlik ko'rishlari jarayonida maktab "Musiqqa" dasturiga kiritilgan chorak mavzularini yorituvchi musiqa asarlaridan foydalandilar. Ular ko'proq dasturga kiritilgan milliy musiqa asarlarini tanlashga

harakat qildilar. /Dasturda ko'rsatilganidek musiqa asarlarini o'qituvchining o'zi tanlaydi/. Masalan, II-sinf "Musiqqa" dasturining mavzusiga tinglash uchun kiritilgan musiqiy asarlar qatorida talabalar bahor faslining yaqinlashayotganligi munosabati bilan "Boychechak" nomli o'zbek xalq qo'shig'idan foydalandilar. Bu qo'shiq O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan "Yalla" vokal-cholg'u ansambli ijrosida magnitafon yordamida eshittirildi. SHundan so'ng talaba-amaliyotchi "Boychechak"ning qanday o'simlik ekani, uning qachon gullashini, o'zbek xalqi boychechakni qadim-qadimdan qanday e'zozlab kelayotganliklari haqida bolalarga so'zlab berdi. O'z navbatida o'quvchilar ham suhbatga tortilib, ular ham boychechak haqida o'z fikrlarini aytib: uning ilk bahorda ochilishini, unga atab qo'shiqlar aytishlarini, xonadon egalari esa, bolalarga har xil in'omlar /shirinliklar, non, belbog'lar, pullar va hokazo/ berishlarini aytdilar. SHundan so'ng, o'qituvchi ularning fikrlarini to'ldirib, boychechakning gullashi bu, qish faslining tugab, bahor faslining boshlanishi ekanligini, "Navro'z" yaqin ekanligini, dehqonlarning dalalarga urug' sepishlari yaqinlashayotganligini kengroq qilib tushuntirdi. Bu bilan talaba-amaliyotchi I-sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalashga harakat qildi.

Xuddi shuningdek, IV-sinf mavzularini yoritib, bu sinf uchun o'zbek xalq maqomlaridan "Munojot va savti munojot"ni mushkulot yo'lidagi ijrosini eshittirdik. Bolalar munojotni diqqat bilan boshlari quyi solingan holda tingladilar. "Savti munojot" eshittirilgandan so'ng sinfda darhol jonlanish yuzaga keldi. O'quvchilarning ba'zi birlari raqsga tushish istagini bildirdilar. O'quvchilar musiqani tinglab bo'lganlaridan so'ng o'qituvchining bergan savollariga "Munojot" qo'shiq qilib ham kuylanishi, ba'zi bir o'quvchilar raqsga ham tushish mumkin ekanligini aytdilar. SHundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga "Munojot"ning mungli qo'shiq ekanligini, bunda xalqimizning orzu-umidlari kuylanganligini, bu musiqa san'atimizning mumtoz qo'shiqlar janriga kirishini tushuntirdi. "Savti munojot" esa, "Munojot"dan so'ng ijro etilishini, bu "Munojot"da kuylangan qayg'u-alamlar orqada qolib, xalqning orzu-umidlari ro'yobga chiqib, yorug' kunlarga erishib, hattoki xursandchiliklaridan raqsga

tushganliklarini batafsil tushuntirib o'tdi. Bu darsdan keyingi bolalardagi taassurot, ularning milliy musiqamizdan olgan ma'naviy ozuqa shundoqqina yaqqol sezildi. Hattoki, qayta eshitishni ham talab qildilar.

Musiqiy-pedagogik amaliyot jarayonida olib borilgan sinfdan tashqari ishlarda ham turli xil tadbirlar o'tkazildi. Ayniqsa, milliy musiqa san'atimizga bag'ishlab o'tkazilgan sinflararo ko'rik-konkurslarning natijasi muvoffaqiyatli bo'lib chiqdi. Bunda har bir talaba-amaliyotchi o'z sinfini milliy musiqamiz asosida tuzilgan dastur bo'yicha tayyorladi. Bu esa, o'zbek xalqining milliy bayrami "Navro'z"ga bag'ishlandi. Bolalar bu bayramga sidqidildan tayyorlanib, o'zbek xalq terma, lapar, kuy va qo'shiqlaridan: "Omonyor", "Chamanda gul", "Boychechak", "Kichkina jon - kichkina", "Chitti gul", "Yor-yor", "Lazgi", "Andijon polkasi" "Tanovor", "Dilxiroj" va boshqa shunga o'xshash milliy musiqamiz durdonalaridan ko'plab kuy va qo'shiqlar ijro etib, raqsga tushdilar. Bundan tashqari talabalarining ko'pchiligi O'zbekistonning turli viloyatlaridan bo'lganliklari sababli ular o'z viloyat, tuman, qishloqlarida aytiladigan terma, laparlar, qo'shiqlarni o'rgatdilar. Bu esa, o'quvchilarda juda katta qiziqish uyg'otdi.

Talaba-amaliyotchining "Musiqqa" fanidan o'tkazgan sinov darsi metodist-o'qituvchi, sinf rahbari, opponent-talabalar ishtirokida ham ilmiy, ham uslubiy tomondan chuqur tahlil qilindi. Tahlilning asosiy mazmuni tadqiqotimizga kiritilgan musiqiy-pedagogik faoliyatning 9 prinsipi talaba-amaliyotchilarda qanday shakllanganligini anqlashdan iborat bo'ldi.

Amaliyotdan keyingi yakuniy /maktablar va oliyoghdagi/konferensiyalarda ham aytilgan fikr va mulohazalar shunga olib keldiki, hali ham maktablarda milliy musiqa san'atiga bo'lgan e'tibor zamon talabi darajasiga ko'tarilgan emas. Hali ham "Musiqqa" darslari dastur talablariga javob bermaydi. Mavzularning o'zaro bir-biriga bog'liqligi, bir-birini to'ldirish tamoyili hamma vaqt ham bajarilmaydi. Bu esa, chorak mavzusini yoritishda qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ham musiqa fanlarini o'qitishni maktab "Musiqqa" dasturi asosida yanada takomillashtirish, uni milliy musiqa asarlari bilan yanada boyitish

o'qituvchilar va tadqiqotchi oldidagi eng asosiy vazifa bo'lib qolaverdi.

Ayniqsa, talabalarining musiqiy-pedagogik faoliyatlarida bizning tadqiqotimiz talab qiladigan prinsiplarni yuqori darajada shakllantirish, ya'ni olingan natija ko'rsatgichlaridan kelib chiqqan holda bilish, axborot, loyihalash, tadqiqotchilik va tahliliy-umumlashtiruv prinsiplarining shakllanishiga e'tibor qaratish zarur bo'ldi.

Tajriba o'tkazilayotgan guruh talabalarining milliy musiqa san'ati haqidagi bilimlarini yanada oshirish maqsadida, ular bilan IV bosqich VII semestrda "Milliy musiqa asoslari" maxsus kursini o'tishni lozim topdik. Bu zarurat ular bilan o'tkazilgan anketa so'rovlardan olingan javoblardan, milliy musiqa haqidagi darslik va qo'llanmalarining taqchilligidan kelib chiqdi. Maxsus kurs 30 soatga mo'ljallangan bo'lib, (ma'ruza - 18 soat; amaliy mashg'ulot - 8 soat; loyihalash mashg'uloti - 4 soat) uning maqsadi talabalarini an'analarga boy va badiiy etuk milliy musiqa merosimizning tarixi, janrlari mazmuni, o'z tadqiqotlari bilan bu san'atning tarixiy taraqqiyotida ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlarimizning hayoti va ijodi bilan yanada yaqinroq tanishtirish bo'ldi. Maxsus kurs "metodika" va "cholgu ijrochiligi" kurslarini o'zlashtirishda talabalarga katta ko'mak berdi. (Maxsus kursning reja va dasturi ilova tariqasida berilgan).

Talabalar I-kursdanoq tadqiqotchilik ishiga jalb qilindilar va ularga mavzular ro'yxati tarqatildi. Bu tadqiqotlarga rahbarlik kafedraning tajribali o'qituvchilariga topshirildi. Talabalar tadqiqotlarni olib borishda shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular tadqiqotning reja-sxemasini tuzishda ayrim murakkabliklarga duch keldilar.

Shuning uchun ularga quyidagi reja-sxema ishlab chiqib, taqdim qilindi:

1. Mavzu.
2. Tadqiqotning maqsad va vazifalari.
3. Tadqiqot ishining mazmuni.
4. Mazmunni o'rganish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan metod, shakl va vositalar.

5. Tadqiqot jarayonining bosqichlari.

6. Xulosalar.

7. Adabiyotlar ro'yxati.

Talabalar ish-reja asosida tadqiqot ishlarining nazariy qismini yil davomida o'rganib bordilar. Ayniqsa, pedagogik amaliyot paytida tadqiqotning mavzusi uchun zarur bo'lgan asosiy dalillar va kerakli materiallar yig'ilib, tadqiqotning xulosalari, natijalari konferensiya-larda muntazam ma'ruza qilib turildi. Yuqorida aytganimizdek, musiqiy-pedagogik faoliyat prinsipilarining kam shakllangan turlariga pedagogik amaliyotdan (III bosqich, VI semestr) qaytgandan so'ng auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi musiqiy mashg'ulotlar jarayonida diqqat-e'tibor qaratildi.

Davlat rejasiga ko'ra "stajorlik" pedagogik amaliyoti IV bosqich VII semestrda boshlanib 8 haftani tashkil qiladi. Ko'p yillik kuzatishlar natijasida shunday xulosaga keldikki, oldingi pedagogik amaliyotga nisbatan bitiruv bosqichdagisi (stajorlik)da talabalar o'z kasblariga nisbatan qiziqishlari sezilarli o'sib borar ekan. Bu pedagogik amaliyotda talabalar o'zlarini maktab jamoasining to'liq a'zosi sifatida sezadilar. Shuning uchun xam Guliston Davlat Universitetining pedagogika fakulteti dekanati tomonidan musiqa ta'limi talabalari xar ikkala amaliyotni xam bitta maktabda, xattoki bitta sinfda o'tkazishlari uchun shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Bu esa talabalar uchun juda xam qulaylik tug'dirmoqda.

Biz bu pedagogik amaliyotni tashkil qilish va o'tkazishda talabalarining olgan bilim va ko'nikmalaridan mustaqil foydalanishlarini, ishga ijodiy yondashishlarini birlamchi vazifalardan qilib qo'ydik. Oldingi amaliyotdagi vazifalarni bajarish davom etdi. Bu amaliyot jarayonida musiqa o'qituvchisiga xos musiqa darsiga tez tayyorgarlik ko'rish, mustaqil o'qish va kasbiy takomillashuvga ehtiyojni rivojlantirish kabi sifatning qaror topishiga e'tibor berdi.

Stajorlik pedagogik amaliyotiga ko'p vaqt berilgani uchun talaba-amaliyotchilarning bir emas, bir necha musiqa darslarini kuzatib, tahlil qilishga muvaffaq bo'ldik. Xar bir dars oldingi usuliy /III bosqich/ pedagogik amaliyotiga nisbatan kengroq va

chuqurroq tahlil qilindi. Bunda dars kuzatuvchi talabalar xam juda tanqidiy yondashadilar. Biz darsga tayyorlanish, uni o'tkazish va tahlil jarayonida talabalarda musiqiy-pedagogik faoliyat komponentlarining qanchalik darajada shakllanganligini bilishga e'tibor qaratdik. Stajorlik pedagogik amaliyotidan keyingi ko'rsatgich quyidagicha bo'ldi.

Talabalar musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarini yanada takomillash-tirish maqsadida stajorlik musiqiy-pedagogik amaliyotdan so'ng xar yili ular bilan anketa-savollar o'tkazilib turildi. Bu anketa-so'rovlarga quyidagi savollar kiritildi:

1. Oliy o'quv yurtida olgan musiqiy-pedagogik tayyorgarlik bilan o'qituvchi maktabda musiqa darsini o'tkaza oladimi? 52% talabalar o'tkaza oladi; 23% talabalar o'tkazishi mumkin; 19% talabalar o'ziga ishonmaydi; 9% talabalar o'tkaza olmaydi - deb javob qildilar.

2. Maktabda musiqa darsini sifatli olib borish uchun o'qituvchiga qanaqa moddiy baza zarur deb, xisoblaysiz? - degan savol bilan murojaat qilganimizda, barcha talabalar maktabda musiqa dasturi, darsliklari, musiqa asboblari, (rubob, doira, fortepiano, akkordion va boshqalar), o'qituvchi uchun zarur bo'lgan usuliyot qo'llanmalari va shuningdek, darsning namunali reja-konspekti zarur bo'ladi deb, javob berdilar.

3. Musiqa darsini o'tkazish uchun o'qituvchining tayyorgarlik xajmi qanday bo'lishi kerak? - Birinchi navbatda musiqani sevish kerak deb, - 60% talaba javob berdi; 100% - albatta cholg'u ijrochiligida chalishni bilish shart; 100% - qo'shiq aytishni bilish; 82% - dirijyorlik ko'nikmasi bo'lishligini; 80% - talaba, musiqa o'qitish usuliyotini egallash kerakligini; 54% - musiqa bilan mustaqil muloqotga extiyoj bo'lishi kerakligini; 88% - talaba musiqa xaqida bilim zarur deb, javob berdilar.

4. O'zingizning musiqiy-pedagogik tayyorgarligingizni qanday baxolashsiz? - Maktabda musiqa darsini o'tkazishga butunlay tayyorman deb hech kim aytmadi. 82% - talaba tayyorgarligim bor, lekin o'zim ustimda yana ishlashim kerak; 11% - ikkilandi; 7% - tayyor emasman deb javob berdilar.

5. Fakultetda olib borilayotgan musiqa mashg'ulotlari Sizni qoniqtiradimi? - 98% talaba musiqa fanlarni o'qitilishidan

qoniqayotganliklarini aytdilar; shu bilan birga ular ba'zi bir kamchiliklarni ko'rsatib, 40% - dirijyorlikdan maxsus dars yo'qligini; 62% - vokaldan dars yo'qligini; 56% - talaba cholg'u esa, talabalarning bo'lajak kasblariga etarlicha jiddiy munosabatda bo'lmayotganliklari xam yozildi.

6. Musiqiy-pedagogik amaliyotning tashkil qilinishi Sizni kirishdan avval xar ikkala konsultastiyani xam olish zarur deb xisobladilar: faqat 10% talaba yana xam ko'proq konsultastiya olishga xohlab javob berdilar. 100% talaba yuqoridagi ikkala konsultastiya kerakligini, ikkinchi konsultastiya (repititsiya) juda ham zarurligini alohida ta'kidladilar.

7. Oliy o'quv yurtida o'tkazilayotgan musiqiy mashg'ulotlar /auditoriya, auditoriyadan tashqari/ mazmuni Sizni qoniqtiradimi? - 100% talabalar mashg'ulotlar mazmunini milliy musiqa asarlari bilan ko'proq to'ldirishni aytdilar; 78% auditoriyadan tashqari musiqiy tadbirlar /konstertlar, uchrashuvlar, to'garak a'zolarining chiqishlari, xar xil mavzuli kechalar rang-barang bo'lishini xoxlashlarini ma'lum qildilar.

8. Musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish uchun yana nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz? - 23% talaba, musiqiy stikldagi fanlarning o'zaro aloqasini yanada kuchaytirish kerak; 46% - musiqiy-amaliy mashg'ulotlarga ko'proq diqqat-e'tiborni qaratish zarur, 67% auditoriyadan tashqari musiqiy tadbirlarni yanada kuchaytirish; 84% talabalar ko'proq qo'shimcha adabiyotlar va yangi dastur va qo'llanmalar bilan ta'minlash kerak deb, javob berdilar. Javoblarning ba'zilarida malakali o'qituvchilarni ko'paytirish zarurligi xam aytilgan.

Yuqoridagi anketa savollariga olingan javoblardan kelib chiqqan holda biz, talabalar musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarining shakllanish jarayoniga kerakli o'zgartirishlar kiritib bordik. Shuning uchun ham talabalarning bundan keyingi faoliyatlarini tashkil qilishda ularni yangi maktab musiqa dasturlari, darsliklari, usuliy qo'llanmalari bilan tanishtirib borish, namunali reja-konspektlarni tuzish, musiqa asboblarida chalish, qo'shiq aytish, dirijyorlik ko'nikmasini shakllantirish, musiqa

usuliyotini egallashga katta e'tibor berildi. Talabalarni qo'shimcha adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib borish va ko'proq unga vazifalar topshirish, pedagogik amaliyotlar o'tish jarayonida maslahatlarni kuchaytirish va ularga ham nazariy, usuliy tomondan yordam berish, auditoriya va undan tashqari musiqiy mashg'ulotlar mazmunini "maksimum" darajada milliy musiqa asarlari bilan to'ldirib boorish, har xil mavzuli musiqiy kechalar /konsertlar, uchrashuvlar/ tashkil qilish, to'garak ishlarini yanada jonlantirish, musiqiy fanlarning o'zaro aloqasini hisobga olish, talabalarni amaliy ishlarga ko'proq jalb qilish kabilar ularni musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda olib borilyotgan ish faoliyatimizning mamunini va keyingi yo'nalishini tashkil etdi.

Musiqiya o'qituvchilarining musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarida o'qish ta'tili davridagi bolalar dam olish qarorgohlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar aloxida o'rin tutadi. Xar yili talabalar oliy ta'lim muassasasi joylashgan shaxar va tuman markazlarida, tog' etaklarida joylashgan bolalar dam olish qarorgohlarida, ta'tillarini o'tkazadilar. Talabalarga bolalar bilan ishlash uchun oliy ta'lim muassasasi bo'yicha yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Ular bu ko'rsatmalar asosida ta'lim-tarbiyaning barcha tarmoqlari bo'yicha ish olib bordilar va qaytib kelganlaridan so'ng kerakli xujjatlarni topshirib, xisobot berdilar.

Xuddi shuningdek, bolalar bilan ishlash jarayonida o'tkaziladigan musiqiy tadbirlar bo'yicha ham talabalar ma'lum ish rejalariga egadirlar. Ular fakultetda olgan musiqiy bilim va ko'nikmalarni bolalar dam olish qarorgohlarida har xil musiqiy tadbirlar /ko'riklar, konkurslar, musiqiy harakatli o'yinlar, mavzuli kechalar va boshqalar/ ni o'tkazishda qo'llab kelmoqda. Bu esa, talabalarda yosh maktab o'quvchilari bilan sinfdan tashqari musiqiy-tarbiyaviy ishlarga tayyorlanish, tashkil va o'tkazish kabi ko'nikmalarni shallanishida juda katta axamiyatga ega bo'lgan. Talabalar musiqani hayot bilan bog'lash tamoyili asosida ish olib bordilar. Buning natijasida esa, "musiqa" - bu, xayot ekanligi talabalar fikr-mulohazalarida ham shakllana bordi.

Biz, talabalar oldida bolalar bilan o'tkaziladigan barcha musiqiy-tarbiyaviy tadbirlarda milliy musiqa asarlaridan, bolalar

qo'shiq va o'yinlaridan ko'proq foydalanish vazifasini qo'ydik. Biz yana shunga alohida e'tibor berdikki, har bir musiqiy tadbirlarni rejalashtirishda bolalarga erkinlik berish, ular xohishlarini hisobga olish lozim bo'ldi. Chunki, bolalar tarbiyachilar rejasiga kirmagan ba'zi bir ajoyib milliy bolalar qo'shiqlarini, o'yinlarini aytishga va o'ynashga xohish bildirishlari mumkin. Bu esa, tarbiyachilarning repertuari milliy asarlar bilan boyishiga olib keldi. Tashkil qilingan musiqiy tadbirlar orasida musiqiy-xarakatli o'yinlar samarali natijalar berdi. Bular: "Oq quyoning alomat", "G'ozlar", "Oq terakmi ko'k terak", "Yallama yorim", "Chamanda gul", "Asp bo'laman", "Andijon polkasi", "Lazgi" va boshqalar.

Bolalar dam olish qarorgahlarida olib borilgan ishlar talabalarning musiqiy-pedagogik tayyorgarliklariga samarali ta'sirini aniqlash maqsadida, biz talabalarga anketa-savollar bilan murojaat etdik. Ular javoblaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalar bilan sinfdan tashqari quyidagi musiqiy-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish mumkin ekan: bir ovozli xor jamoasini tashkil qilish - 80%; milliy-musiqiy o'yinlarni o'tkazish - 92%; musiqiy ko'rik-konkurslarni tashkil qilish va o'tkazish - 74%; musiqa haqida suhbat va musiqiy kechalar - 78% kabi javoblarni oldik. Bundan ko'rinib turibdiki, musiqa o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarliklarida sinfdan tashqari musiqiy tadbirlarning o'rni beqiyosdir.

Shunday qilib, turli pedagogik amaliyotlar jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilari musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarini amalda qo'llash va uni takomillashtirishga imkoniyat yaratildi. Birinchi pedagogik amaliyotda musiqa darsini o'tishga "kirish" bilan musiqiy-pedagogik tayyorgarlik amalda qo'llanila boshlansa, ikkinchi pedagogik amaliyotda esa, talabalar musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarining darajasi namoyon bo'ladi, dam olish muassasalarida olib boriladigan musiqiy-tarbiyaviy tadbirlar asosida talabalar musiqiy-pedagogik tayyorgarliklari takomillashib, sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazishdagi ko'nikmalar shakllana boradi, talabalar tadqiqotchilik ishlarini amalga oshirishlariga, aniq dalillar yig'ishlariga, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini shakllanishiga shart-sharoit yaratadi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarni musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligining muvoffaqiyatli yo'lga qo'yishda auditoriyadan tashqari ishlar ham muhim o'rin tutadi. Talabalar hayoti va faoliyatini faqatgina darsda emas, balki darsdan tashqari paytda ham tashkil qilish ularning musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarini yanada yuqori darajada ta'minlashni ko'zda tutadi. SHuning uchun ham, talabalar musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarini shakllanishida dars jarayoni bilan darsdan tashqari tadbirlardagi musiqiy ishlarini bir-biriga chambarchas bog'lab olib borish katta samara beradi.

Bizning tadqiqotimizda talabalarning auditoriyadan tashqari ishlarda musiqiy fanlarni o'rganishga bog'liq mustaqil faoliyatlariga katta e'tibor qaratiladi. Eng ko'p tarqalgan va hammabop san'at turlaridan bo'lgan - musiqa, auditoriyadan tashqari mustaqil amaliy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. U umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarilarning estetik tarbiya mohiyatini tushunganlik darajalarini, tarbiyaviy-tashkiliy imkoniyatlar miqdorini, malakalarning shakllanganlik bosqichlarini, olgan bilimlarining mustahkam va tushunarligini yaqqol ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida va mustaqil faoliyatda tayanch bilim zahirasini to'plash zarurligi bilan auditoriyadan tashqari ishlarning vazifalari bir-biriga uyg'unlashib ketadi. Shunday ekan auditoriyadan tashqari ishlar ham o'quv ishlari sanaladi. Auditoriyadan tashqari musiqiy faoliyat deganda talabalarning ijodiy xarakterdagi musiqiy bilim olish va ma'rifiy tadbirlarni aks ettiruvchi, aql-idroklarini kengaytirishga ta'sir qiluvchi kasb sifatlarini shakllantiruvchi va musiqiy qobiliyatni rivojlantiruvchi faoliyatlar tushuniladi.

Auditoriyadan tashqari faoliyat musiqiy-pedagogik yo'nalishni, o'quv va mustaqil faoliyat birligini, musiqiy-pedagogik va maxsus bilimlar qo'llanilishini ifodalaydi. Auditoriyadan tashqari ishlar amaliy tadbirlarni o'z ichiga olib, talabalar o'z imkoniyatlarini to'laligicha ishga solishlarini va har bir individning o'ziga xos xususiyatlarini ochilishini talab qiladi. U

auditoriyadagi ta'lim jarayonining davomidir.

Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarning tayyorgarlik jarayoniga raxbarlik qilish aloxida soxa bo'lib: maxsus adabiyotlarni o'rganishni, musiqiy dasturlarni bilishni talab qiladi. Mashg'utlarga tayyorgarlik uni o'tkazish turi va shakli har xil bo'lishi mumkin. Bu, talabalarning mustaqillik darajasiga, faolligiga, bilim va ko'nikmalar darajasiga bog'liq bo'ladi. Uning muvoffaqiyati mashg'ulotlarning samaradorligiga, mustaqil faoliyatni tashkil qilishda musiqiy saviyasidan qat'iy nazar barcha talabalarni qamrab olishda ko'rinadi. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotni talaba musiqada o'zini namoyon qilishdagi imkoniyat deb qarash kerak. Bu bilan musiqiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirishdagi muvoffaqiyati erishilgan yutuqlariga qarab belgilanmaydi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining shakllanishi uning musiqiy saviyasiga bog'liqdir.

Auditoriyadan tashqari ishlar musiqa o'qituvchisining ma'rifat tarqatuvchi sifatidagi tarbiyasida aloxida ahamiyatga egaligini ta'kidlash lozim. Ikkinchidan: talabalar buni musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonidagi majburiyat va burch deb tushunsalar, olgan bilimlarini mustaqil qo'llashga xohish sezular ularning imkoniyatlari ko'proq ochiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha faoliyat turlari (sol'fedjio, kuylash, cholg'u ijrochiligida chalish, dirijyorlik va boshqalar) o'qish, mustaqil va auditoriyadan tashqari ishlar bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Musiqani idrok qilish faol-ijodiy munosabat o'qituvchining shakllanishidagi birinchi darajali zarur vazifa deb sanaladi.

SHunday qilib, auditoriyadan tashqari tadbirlar o'quv va mustaqil ishlarning qo'shilib ketishidan iborat. O'z navbatida auditoriyadan tashqari ishlar musiqiy ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, aniqlanadi va amalga oshiriladi. O'qish va auditoriyadan tashqari ishlar birligi bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqiy-pedagogik tayyorgarligining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

Talabalarning estetik tarbiyasi sohasiga va har xil musiqiy tadbirlarga (konsertlar, musiqiy uchrashuvlar, turli xil mavzudagi kechalar, suhbatlar va hokazolar) bo'lgan munosabatlarini aniqlash maqsadida ularga biz Guliston davlat universitetida olib

boriladigan estetik tarbiya sohasidagi ishlarni va tashkil qilayotgan konsertlarni qanday baholaysiz? - degan savol bilan murojaat qildik. 83% talabalar bu sohadagi qilinayotgan ishlardan qoniqayotganliklarini aytdilar; 39% talabalar musiqiy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar kam; 98% talabalar har xil musiqiy tadbirlar /konstertlar, konkurslar) o'tkazilib turilishini; 31% talabalar radio va televizorlardan berilayotgan konsertlarni (maqom kechalari, estrada ansambllari va yosh xonandalarning chiqishlarini, bolalar ansambllarining chiqishlarini) muntazam ko'rib, eshitib borishlarini; 47% talabalar konsertlarni ko'rib, eshitgandan so'ng ularga musiqa eshitishga ehtiyoj paydo bo'lganligini; 15% talabalar esa pedagogik amaliyot paytida o'quvchilar bilan olib borilayotgan har xil tadbirlarga eshitgan musiqalaridan qoniqqanligini aytdilar.

Talabalarning estetik ehtiyojlari va badiiy qobiliyatlarini shakllantirishda yo'naltirilgan badiiy havaskorlik auditoriyadan tashqari ishlarda muhim o'rin tutadi. Universitetda tashkil qilingan "Nilufar" ansambli ko'p yillardan buyon faoliyat ko'rsatin kelmoqda. O'zida 60 dan ziyod talablarni birlashtirgan bu ansamblga tajribali mutaxassislar rahbarlik qilib keladi. Tadqiqotchining ansambl rahbarlari bilan hamkorlikda olib borgan tajribasi yuqori natijalar berdi. Bu ansamblning qatnashchilari asosan fakultetimizda tahsil olayotgan yigit va qizlardan iborat bo'lib, unga musiqa san'atiga qiziqqan xonanda, sozanda va raqqosalar ishtrok etib keladilar. Ansambl repertuarining asosiy mazmunini milliy musiqa san'atining turli-tuman janrlari tashkil qiladi. Ansambl haftada ikki marta muntazam ravishda tayyorgarlik olib bordi. Talabalar ansambl repertuaridan joy olgan xalq terma, lapar, qo'shiq, yalla, ashulla, raqs va maqomlardan namunalarni jon-dilidan ijro etdilar. Bular: "Baland tog' ustida", "Daryodan oqib kelar", "Yorim ketaman deydi", "Yorim nimalar devdim sizga", "Olmacha anoringa balli", "Yallama yorim", "Izlayman", "Chaman ichra", "Tanovar", "SHitob aylab", "Bir kelib ketsun", "Safti nomai savti kalon" kabilar.

Bundan tashqari universitet fakultetlari o'rtasida har yili musiqiy ko'rik-konkurslar o'tkazilib boriladi. Keyingi yillar davomida bu ko'rik-konkurslarning xam asosiy mazmunini milliy

musqa san'atimizning turli-tuman janrlari tashkil qilishi quvonarli hol bo'ldi. Ko'rik-konkurslarda fakultet talabalari muvaffaqiyatli ishtrok etib, har doim faxrli o'rinlarni egallab keladilar.

Talabalarning musiqiy-pedagogik faoliyatiga tayyorgarliklarini hisobga olgan holda auditoriyadan tashqari har qanday musiqiy tadbirlar pedagogik jihatdan tashkil qilindi. Shu maqsadga ko'ra bunday tadbirlarga tayyorlanish va uni o'tkazish usuliyati tushuntirilib borildi. To'garak ishlarining bunday shakllaridan kichik maktab o'quvchilarining musiqiy-estetik tarbiyasida foydalanishning shart-sharoitlari ochib berildi, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qanday adabiyotlar va manbalardan foydalanish mumkinligi ko'rsatildi, eshituvchilarda musiqaga qiziqish va ishtiyoq uyg'otish yo'llari tushuntirildi.

Talabalarning musiqiy-pedagogik tayyorgarliklari shakllanish jarayonida badiiy havaskorlik to'garagi faoliyatining samaradorligini aniqlash maqsadida talabalar bilan so'roq o'tkazdik.

Ular savollarga quyidagicha javoblar berdilar:

1. To'garakka kelishga Sizni nima majbur qildi? - musiqaga bo'lgan qiziqishim - 18%, bo'sh vaqtni o'tkazishga bo'lgan xohish - 25%, qiziquvchanlik - 31%, bilmayman - 19%, yo'l-yo'lakay kirganlar - 7%.

2. To'garak nimasi bilan Sizni jalb qildi? - qo'shiq kuylash, raqsga tushish imkoniyatining borligi - 37%, musiqa haqida ko'proq bilish imkoniyatining borligi - 29%, musiqa bilan muloqot qilish imkoniyatining borligi - 25%, darsdan tashqari dam olish, rahbar bilan muloqotda bo'lish, - bo'sh vaqtni o'tkazish kabi har xil sabablarga ko'ra - 15%.

3. To'garak mashg'ulotlariga tez-tez qatnashib turasizmi? - har doim - 43%, bir, ikki mashg'ulot o'tkazib - 38%, ba'zida - 19%.

4. To'garak Sizning musiqaga bo'lgan qiziqishingizni qanchalik qoniqtiradi? - Butunlay - 27%, etarlicha - 59%, kamroq - 14%, qoniqmaydiganlar - yo'q.

5. To'garakning repertuari Sizni qoniqtiradimi, undan musiqaning qanday janrlari ko'proq joy olishini xohlaysiz? - /maqom, qo'shiq, lapar, yalla, milliy raqs, zamonaviy qo'shiqlar,

estrada va hokazo/. Milliy musiqa - 47%, zamonaviy qo'shiqlar - 19%, milliy raqs - 11%, estrada qo'shiqlari - 23%.

Auditoriyadan tashqari barcha tadbirlar o'quv-musiqiy faoliyat bilan chambarchas olib borildi. Bu birlik talabalar musiqiy-pedagogik faoliyatining prinsipalarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bular: o'z kasbiga munosabat - o'qituvchilik va musiqa san'atiga ongli-ijtimoiy munosabat, uni jamiyat hayoti va faoliyatining zarur sohasi, insonning hayotiy zarur ehtiyoji ekanligini tushunish; musiqiy qobiliyatning rivojlanishiga yo'naltirilgan jonli musiqa bilan muntazam, bevosita munosabatda bo'lish;

Bilimdonlik kompetentligi - musiqiy san'atning boy mazmunini o'zlashtirish va u orqali o'rab turgan borliqni va o'z-o'zini anglash; musiqiy bilim, ko'nikma va malakalar hajmini to'ldirish; ijrochilik faoliyatini o'zlashtirish va rivojlantirish;

hissiy-emotsional kompetentligi - ijro etayotgan va tinglayotgan musiqa asarlaridan ta'sirlanish; undagi obrazlarning ichki kechinmalarini his qilish va o'zi ijro etayotgan musiqa asarining harakter mazmunini ochib berish;

axborot berish kompetentligi - o'quv dasturidan tashqari kengroq musiqiy bilimlarga ega bo'lish, musiqiy manbalar va adabiyotlar bilan yanada kengroq tanishish;

loyihalash kompetentligi - musiqiy jamoalar va ular bilan ishlash usuliyoti uning ish rejaları, repertuarini tuzish ko'nikmasi; *tashkilotchilik kompetentligi* - jamoani tashkil qilish usuliyoti, uning ish yuritish uslubi va qatnashchilarni jamoaga yanada qiziqtirish va jalb qilish

muloqot qilish kompetentligi - jamoa a'zolari bilan muloqotni tashkil qilish, qat'iylik, shirinsuxanlik, har bir ishtrokchiga individual va butun jamoaga rahbar sifatida eng yaqin yordanchi sifatida munosabatda bo'lish va hokazo, shu kabi kompetentliklarning izchil shakllanib borishida samarali natijalarga erishildi.

Auditoriyadan tashqari musiqiy tadbirlarni tashkil qilish orqali taniqli san'at namoyondalari, yozuvchi shoirlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar ham talabalarni musiqiy-estetik tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Universitet yoshlar

ittifoqi va kasaba uyushmasi hamkorligida tashkil qilingan qiziqarli musiqiy uchrashuvlarda O'zbekiston xalq artisti O.Otajonov, B.Xamdov, O.Xudoyshukurov, A.Shukurov, Olim Xo'jaev nomli Sirdaryo viloyat musiqali drama teatrlarining artistlari o'z san'atlari bilan talabalarda o'zbek milliy musiqasi san'atiga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini yanda oshirdilar. Yozuvchi-shoirlardan A.Oripov, E.Vohidov, O. Matjon, Muhammad Ali, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov kabilarning ijodiy kechalari talabalarda katta taassurot qoldirdi. Uchrashuvlarda ular yozgan she'rlariga bastalagan qo'shiqlarini badiiy havaskorlik to'garagi qatnashchilari katta mamnuniyat bilan ijro etdilar.

Bundan tashqari universitetning fakultetlararo badiiy havaskorlik to'garaklari ishtirokidagi ko'rik-konkurslarini har yili o'tkazish an'anaga aylanib qolgan. Keyingi yillarda bu ko'rik-konkurs shartlarini mazmuni tubdan o'zgartirilib, milliy mazmun bilan boyitib borildi. Natijada talabalarda o'qituvchi uchun zarur bo'lgan bir qator musiqiy-pedagogik ko'nikmalar takomillashib bordi. Bular: musiqani eshitish va uning g'oyaviy estetik, axloqiy qiymatini tushunib, musiqiy idrokning rivojlanishi asosida musiqiy obrazlarni idrok qilish; shaxsiy musiqiy-badiiy did asosida musiqasi haqida mustaqil munosabatni bildirish va xolisona estetik baholay olish, musiqasi haqida suhbat o'tkazish ko'nikmasi. Yakuniy natijada sekin-asta anglangan musiqiy ehtiyojga o'tib boruvchi milliy musiqani eshitish odat tusiga kirib bordi.

Badiiy havaskorlik to'garagi qatnashchilari bilan o'tkazilgan to'garak mashg'ulotlariga qatnashish natijasida Sizning musiqasi san'atiga bo'lgan qiziqishingiz qanchalik o'zgardi?- degan savolimizga ular quyidagicha javob berdilar: 41%- maqom qo'shiqlariga qiziqishim kuchaydi, 43%- milliy musiqasi haqida ko'proq bilish va eshitishga ehtiyoj paydo bo'ldi, 11%- talaba musiqani maktabda fan sifatida o'qitishga xohish sezganliklarini, 5%- talaba esa, o'rtoqlarining ta'siri natijasida ularning ham musiqasi haqidagi fikrlari butunlay ijobiy tomonga o'zgarganligini aytdilar.

Biz talabalardagi milliy musiqaga bo'lgan qiziqishlarining o'zgarishi va rivojlanishi haqida yanada to'laroq tasavvur hosil qilishimiz uchun I-IV bosqich talabalarini o'rtasida musiqaning

ijtimoiy vazifasi haqida ikki marta so'rov o'tkazdik. "5"- vazifasini yuqori darajada bajaradi; "4"- vazifasini bajaradi; "3"- vazifasini o'rtacha bajaradi; "2"- vazifasini bajarishdan ko'ra bajaradi; "1"- vazifasini bajarmaydi. So'rovda I-IV bosqich talabalaridan 75 tadan qatnashdi. (%-hisobida).

O'tkazgan so'rovimizning natijasi talabalarda musiqaning ijtimoiy ahamiyatini tushunish qanchalik ijobiy tomonga o'zgarganini ko'rsatib turibdi. Musiqasi bilan o'quv va darsdan tashqari o'zaro birlikdagi muloqot shakllari uning bilish, tarbiyaviy, axloqiy, estetik va hissiy rivojlantiruvga oid ahamiyatini to'raligicha anglashga olib keldi.

Auditoriyadan tashqari barcha musiqiy tadbirlarga qatnashuvchi talabalarni uzluksiz ravishda kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, ular da musiqiy did, musiqasi san'atiga intilish sezilarli darajada o'sdi, musiqiy qiziqishlari kengayib bordi, badiiy jihatdan yuqori bo'lgan musiqiy san'at bilan muloqotda bo'lishga xohish va bunday asarlarni asosli baholashda namoyon bo'luvchi musiqaga ijobiy munosabat rivojlanib borayotganligi ma'lum bo'ldi.

Auditoriyadan tashqari musiqiy tadbirlar paytida talabalar musiqiy-pedagogik tayyorgarligining shakllanish jarayonini tadqiq qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, uning samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur bo'ladi: talabalarni musiqasi bilan mustaqil muloqot qilish imkoniyatining ta'minlanganligini, auditoriyadan tashqari musiqasi tarbiyasi bilan musiqiy stikldagi o'quv fanlarning o'zaro aloqasi; bu jarayonning majburiyligi, uzviyligi va bir maqsadga yo'nalganligi auditoriyadan tashqaridagi musiqiy faoliyatini pedagogik jihatdan tashkil qilish; talabalarining musiqiy-pedagogik tayyorgarliklarining amaliy-mustaqil ijodiy faoliyatda joriy qilish imkoniyatlari bilan ta'minlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, auditoriyadan tashqari ishlarining ko'p qirrali shakllarini yig'ib, ikkita asosiy bo'lishimiz mumkin degan xulosaga kelindi. Bular: individual-guruhi musiqiy-ma'rifiy faoliyat /musiqiy-pedagogik tayyorgarlikning ahamiyatini targ'ib qilish, maxsus bilim va ko'nikmalarining shakllanishi/ va badiiy-estetik harakterdagi individual-guruhiy oqartuv faoliyati.

Birinchi tur nafaqat bilish qobiliyatini faollashtiruvchi balki kasbga yo'nalishini shakllantiruvchi zarur vosita hisoblanadi. Bu vazifalar kollektiv-dars, seminar-dars, guruhiy konstertlar va shu singari har xil turdagi jamoa musiqiy-amaliy faoliyat tadbirlarda amalga oshiriladi. Keyingi turda esa, mavzuli kechalar, konsert-leksiya va munozaralar, ko'rik-konkurslar, oqartuv tadbirlari /spektakllar, ko'rgazmalar, konstert zallariga borish/ kiradi.

Musiqiy-pedagogik tayyorgarlikning shakllanishidagi o'quv va auditoriyadan tashqari ishlar bir-birini to'ldiruvchi alohida sohalaridir. O'quv-bu, materialni o'rganish, auditoriyadan tashqari ish esa, o'rganilgan materialni faol-ijodiy tadbir qilishdir.

Musiqiy-pedagogik tayyorgarlikda o'zaro aloqadagi bu ikkita bo'g'inning har birini tahlil qilganda, ularning o'rni va vazifasini aniqlash zarur. O'quv ishlari talabalarining kamolotga erishishdagi aniq imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasbiy tayyorgarlik asosini yaratishini ko'zda tutadi. Auditoriyadan tashqari ishlar mustaqil kamolot vazifalarini ijodiy echishda yangi bosqich deb, qaraldi. Auditoriyadan tashqari faoliyat o'rganilgan bilim va yig'ilgan tajribalarni amalda qo'llashda zarur bosqichdir.

Har ikkila sohadagi faoliyat turlarining o'zaro aloqasini tahlil qilish shunday xulosaga olib keldiki, ikkita sohadan ham qonundagidek foydalanish zarurligi musiqiy-pedagogik tayyorgarlikning shakllanishida bir-butun yondoshishni talab qiladi. Musiqa san'atning o'ziga xos xususiyati, harakteri, maqsadi va vazifalari, umumiylikini ta'minlaydigan o'quv va auditoriyadan tashqari ishlarining o'zaro aloqasi musiqiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida bir-birining davomi deb qaraladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining oliygohda olayotgan ta'lim, tarbiya va kamolotning o'quv va auditoriyadan tashqari musiqiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonining yo'nalishini belgilovchi ma'ruza, amaliy va amaliy mashg'ulotlarining o'ziga xos tuzulishi, aniqlangan fanlar va faoliyat turlarining o'zaro aloqasi, ularning o'zaro bir-biriga singib ketishi, musiqa darslarida ijrochilik bilan bog'liq o'qituvchining vazifasi, mustaqil tayyorgarligi bajaralishi shart bo'lgan talabalardir.

Shunday qilib, tadqiqot ishining ushbu qismida qilingan ishlar

yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Milliy musiqa san'ati orqali bo'lajak bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining takomillashtirishida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati juda kattadir. Chunki, ular talabalarda yangi bilimlarini mustaqil tadbir qilish imkoniyatini, musiqiy qobiliyatini rivojlantirishini, amaliy bilim va ko'nikmalar bilan qurollanishini, ma'suliyatni sezishni, sinfdan tashqari musiqiy-tarbiyaviy ishlarni mustaqil o'tkazishni, tashkilotchilar mahoratini, mashg'ulotlarning mavzuni o'quv dasturi bilan bog'lay olishni shakllantirishdan muhim o'rin tutadi.

2. Auditoriyadan tashqari tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish vaqtida tashkil qilingan suhbatlar, anketalar, o'zaro baholash holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

3. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishda o'quv dasturidagi milliy musiqa asarlarining auditoriyadan tashqari faoliyat shakllarida bir-biriga o'tishi talabalarining nutqlarini musiqiy-pedagogik saviyalarini, qarash va ehtiyojlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan har xil mavzudagi tadbirlarning tashkil qilinishi zarur omil hisoblanadi.

"Musiqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablar

1. O'z kasbiga bo'lgan munosabat.

Bu komponent musiqa o'qituvchisi shaxsining o'zi tanlagan pedagogik kasbi va musiqa san'atiga ongli munosabatini, musiqani o'quv-tarbiyaviy vazifalarni echishdagi o'rni, yosh avlodning ma'naviy va estetik boy dunyoqarashini shakllantirishning zarur vositalaridan biri ekanligini tushunishini tavsiflaydi. U yuksak musiqiy-estetik didni talab etadi. Bu esa, musiqaning turli-xil ko'rinishlariga nisbatan o'qituvchining munosabatini belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarida musiqiy-pedagogik qadriyatlarining ustuvor ekanligini tavsiflaydi.

Buning uchun o'qituvchi quyidagi bilimlarga ega bo'lishi

zarur:

- estetika asoslarini;
- musiqaning san'at turi va muhim tarbiyaviy vosita ekanligini;
- musiqiy-estetik ta'lim va tarbiyaning mazmun-mohiyati, maktab o'quvchilarini rivojlantirishdagi o'rnini;
- milliy va jahon musiqa durdonalari, ularning janr va shakllarini;
- taniqli kompozitor va bastakorlar, ijrochilar, orkestr va xor haqidagi ma'lumotlarni;
- musiqa tarixi va boshqalarni.

Pedagogik ko'nikmalar:

- o'quvchilarda musiqa san'ati bilan doimiy muloqotda bo'lishga ehtiyoj, musiqani faol-ijodiy idrok etishga qiziqish uyg'otish;
- o'quvchilarda musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati va jamiyatda tutgan o'rne, musiqiy obrazlar orqali hayotning ko'rinishlarini tushunishni tarbiyalash;
- o'quvchilarda kundalik ijtimoiy-musiqiy hayotga doimiy qiziqishni yuksak qiymatga ega bo'lgan musiqa asaridan qalbakisini farqlay olish malakasini; musiqa san'atidagi xunuklik, qabihlik, tubanlik bilan kurashda faol pozitsiyada bo'lishni shakllantirish;
- o'quvchilar diqqatini musiqa materialini o'rganishga jalb etish; tinglashga va eshiganini tahlil qilishga o'rgatish;
- o'quvchilar mustaqil bajaradigan uy vazifalarining mazmunini, eshitgan musiqa asarini tahlil qilishga jalb etish va bu orqali ular musiqa qobiliyatlarining o'sishiga xizmat qiladigan bilimlar darajasini aniqlash;
- musiqa mashg'ulotlari jarayonida shug'ullanishning qiziqarli shakllaridan foydalanib, o'quvchilarning musiqiy-estetik bilimlarini kengaytirish;

2. Kasbiy bilimdonlik komponenti.

Bilish komponenti o'qituvchining o'quvchilar aqliy faoliyatlarini boshqarish, shuningdek, o'zining ma'naviy saviyasini oshirish bilan bog'liq. U bo'lajak musiqa o'qituvchisidan "Musiq" dasturi materiallarini, uni o'qitish tamoyillari, usullari va yo'llarini

etarlicha egallashni; musiqiy axborot manbalaridan foydalanish ko'nikmalarini; musiqiy faoliyatning har xil turlarini egallashni; musiqiy-pedagogik vazifalarini hal qilishda loyihalashni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Bu komponenti o'qituvchisidan quyidagi bilimlarni talab qiladi:

- Musiqa ta'limi va tarbiyasining metodologik va psixologik-pedagogik asoslari;
- bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning didaktik tamoyillari;
- bilish jarayoni va aqliy harakatni uzluksiz, sekin-asta shakllantirishni boshqarish imkoniyatlari;
- musiqiy faoliyatni amalga oshirishda mantiqiy harakat va operatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari;
- I-IV sinf dasturiga taaluqli kompozitorlar, ijrochilar, orkestrlar va musiqiy nutq;
- musiqiy vositalarni ifodalovchi nota savodi;

Pedagogik ko'nikmalar:

- o'quvchilar musiqiy faoliyat turlarining har xil shakllaridan foydalanish yo'llari orqali rivojlantiruvchi harakterdagi ta'limni amalga oshirish;
- mantiqiy aniq tushuntirish asosida ««Musiq ta'limi»» ni tashkil qilish;
- fanlararo aloqadan foydalanib, tizimli bilim berish;
- oldingi musiqa o'quv materialini keyingilarini bilan mantiqan bog'lash va umumlashgan natijalar chiqarish;
- o'quvchilarda musiqiy bilimlarga nisbatan mustaqillik va faollik munosabatlarini tarbiyalash;
- musiqani hissiy idrok qilish;
- musiqani muhim musiqa bilimlar asosida idrok qilish;
- musiqiy mashg'ulotlar jarayonida maxsus musiqiy bilimlardan foydalanish (kompozitorlar, ijrochilar va orkestrlar, har xil musiqa ifoda vositalari va ulardan musiqiy asarlarni tasvirlashda foydalanish nota savodi va hokazo);
- nota bilan kuylash (solfedjio).

3. Hissiy-emotsional komponent.

Hissiy-emotsional prinsipi - o'qituvchining musiqa san'atiga

bo'lgan emotsional munosabati, hayotning barcha go'zalliklarini aniq his etish, o'quvchilarda go'zallikni anglash tuyg'usini shakllantirishga intilishda, o'quvchilarda musiqiy san'atga qiziqishlarini tarbiyalashda namoyon bo'ladi.

Buning uchun quyidagilarni **bilishi** zarur:

- maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida musiqiy tarbiyaning ijtimoiy o'rni;

- shaxsning har tomonlama rivojlantirish uchun hissiy madaniyatning (musiqaga quyinchaklik va hissiy idrok) ahamiyati;

- insonga musiqqa san'ati ta'sirining o'ziga xos xususiyati;

- o'quvchilarning musiqiy mashg'ulotlarga qiziqishlarini shakllan-tirishning pedagogik va psixologik asoslarini egallash.

Pedagogik ko'nikmalar:

- o'quvchilarda musiqaga hissiy munosabatni tarbiyalash;

- o'quvchilarda musiqiy-estetik ehtiyoj, estetik did va qiziqish rivojlanishini boshqarish;

- o'quvchilarda musiqiy shakllar mukammalligi va obrazlilikni tushunishni shakllantirish;

- o'quvchilarda musiqqa san'ati vositasida hayot go'zalligini tushuntirish, jasorat, baxt uchun kurash, vatanparvarlik, baynalmilliylikni tarbiyalash;

- hissiyotsiz to'laqonli inson faoliyati bo'lmasligi haqidagi tushunchalarni tarbiyalash;

- hayotiy va badiiy uyushmalarni tashkil qilish uchun shart-sharoit yaratuvchi yorqin hissiy taassurot namoyon qilishga intilish;

- har doim darsda musiqiy materialni to'raligicha o'zlashtirishga imkon yaratuvchi kerakli hissiy kayfiyatni qo'llab-quvvatlash;

- o'quvchilarning musiqqa san'atini chuqur tushunishga yordam beruvchi estetik kechinmalar dunyosini kengaytirish va boyitish;

4. Axborot berish komponenti.

Axborot berish komponenti – barcha musiqiy o'quv-tarbiyaviy ishlarning bosh bug'ini bo'lib, o'qituvchidan maktab "Musiqqa" dasturi materiallarini chuqur va erkin egallagan, uni o'qitishning

samarali shakl, vosita va metodlari, didaktik tamoyillari va yo'l-yo'riqlari, nutq san'ati va axborotning boshqa manbalaridan unumli foydalana olishni talab etadi. O'qituvchining maktab o'quvchilarini musiqqa san'atining asosi va uning rivojlanish tarixi haqidagi bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan o'qituvchining harakatlari bilan tavsiflanadi. O'qituvchi o'quvchilarga muhim bilim berish bilan bir qatorda, nazorat va hisob uchun bilim natijalarini o'z vaqtida tekshirishi ham katta ahamiyatga ega. Agar o'qituvchi o'quvchilar bilimni tahlil qilish va ular bilan "qayta-aloqa" o'rnatishni tashkil qilish uchun nazorat vositalaridan foydalanmasa, axborot berish prinsipini tadbiiq qilish to'raligicha amalga oshmaydi.

Yuqoridagilarni amalga oshirishda quyidagi bilimlar zarur bo'ladi:

- musiqiy axborotning nazariy-pedagogik asoslari;

- turli xil yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlari rivojlanishi va shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari;

- bolalar ovozi tarbiyasi va rivojlanishining fiziologik xususiyatlari;

- maktab o'quvchilari musiqiy bilim olishlarining xususiyatlari, dars o'tish usuliyotining nazariy asoslari;

- o'quvchilarni umumiy musiqiy-estetik tarbiyalashning shakl va mazmuni, ta'lim vazifasi, maqsadi, "Musiqqa" dasturining tamoyillari va usuliyotlari;

- musiqaning nazariy va tarixiy asoslari, xor dirijyorligi va qo'shiqchilik san'ati, cholg'u ijrochiligida chalish;

Pedagogik ko'nikmalar:

- o'quvchilar musiqiy-estetik faoliyatlarini san'atga hissiy, intellectual, amaliy munosabatda bo'lishni shakllanishiga pedagogik yo'naltira olish;

- musiqiy asar mazmunini engil ifoda etish;

- cholg'u ijrochiligining har qanday bosqichida bilimlar natijasi haqida axborot olish;

- darsdan vatanparvarlik, axloqiy-estetik va baynalminal do'stlikni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish;

- musiqqa mashg'uloti vazifalarini ta'limning bosh vazifasi darajasiga olib chiqish;

- musiqa asarlarining tuzilishini tahlil qilish;
- bolalarda qo'shiq, marsh va raqs janrlarini idrok etish va tushinib etishlari asosida umumlashtirish usulidan foydalanib, musiqa san'ati to'g'risida to'raligicha tasavvur qilishni shakllantirish;
- musiqa lug'atidan erkin foydalanish;
- texnik vositalar bilan ishlash;

5. Loyihalash komponenti.

Loyihalash komponenti – musiqa o'qituvchisidan o'quv-tarbiyaviy materiallarni tanlashda o'quvchilar yoshi hamda individual xususiyatlarini hisobga olishni; musiqiy-pedagogik jarayonni texnologik loyihalash va tashkil etishda maqsad ustuvorligini ta'minlash; sinfda, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirishni ko'zda tutadi.

Buning uchun o'qituvchidan quyidagi bilimlar talab qilinadi:

- musiqiy mashg'ulotlarning mazmuni, uning asosiy maqsad va vazifalari, pedagogik-psixologik va tashkiliy-texnologik asoslari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari;
- ta'lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan milliy musiqa asarlarining pedagogik maqsadga muvofiqligi;
- musiqa mashg'ulotlari jarayonining didaktik asoslari, musiqiy-estetik faoliyatni tashkil etish shakl va turlari;
- "Musika" dasturi bo'yicha o'qitishning mazmuni va metodikasi, uning umumiy tarbiyadagi o'rnini bilish.

Pedagogik ko'nikmalar:

- musiqa mashg'ulotlarini loyihalash;
- umumlashgan va yakunlovchi dars-konsert, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tadbirlar va ularni tashkil qilishning maqsadga muvofiq shakl va metodlarini tanlash;
- musiqa mashg'ulotlarining texnologik loyiha xaritasini tuzish, ««Musika ta'limi»» ning samarali usullaridan foydalanib, yakuniy konsertga tayyorlanish; kerakli asarlarni tanlash, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarning musiqiy madaniyatining o'sish ko'rsatgichini belgilovchi yangi asarlarni kiritish; bolalalarga to'g'ri savollar tuzish; o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini namoyish qilishlari uchun musiqiy faoliyatning maqbul turlarini ajratish, bunda sinfning ijrochilik darajasini hisobga olish;

-xor sinfi, vokal guruhi, ansambl tashkil qilish, tanaffus va boshqa umumiy o'rta ta'lim mashg'ulotlarini o'tkazish paytida musiqiy o'yinlar, quvnoq daqiqalardan foydalanish;

- eng muhim bilimlarni o'zlashtirishga yordam beruvchi musiqa darsining muammoli holatlaridan foydalanish; yillik, chorak va kundalik darslarning bosh, o'rta istiqbol vazifalarini bir-biriga bog'lab, uni o'zlashtirishga esa, har bir dars mavzuini rejalashtirish orqali erishish; o'quvchilarning zarur ma'lumotlar olishlari uchun samarali didaktik vositalar topish; musiqiy bilimlarni uzluksiz ravishda chuqurlashtirish va uzoq vaqt xotirasida saqlashga harakat qilish;

- darsning borish jarayonida "Musika" dasturini puxta o'zlashtirishga ko'maklashuvchi istiqbolli usullarini qo'llash;

- darsning asosiy vazifasini ajratib olib va qo'shimcha vazifalarini aniqlab, o'quvchi va o'qituvchi harakatlarini tuzulishini loyihalash;

- maktab dasturiga kiruvchi estetik siklidagi fanlararo o'zaro aloqa imkoniyatlarini topish;

- maktab o'quvchilarining musiqiy rivojlanishlarida darsga kiritilgan musiqa asarlaridan tashqari qo'shimcha materiallardan ham foydalanish;

- darsning har bir daqiqasidagi holatini ko'rish, sinfni eshitish va baholash; o'quvchilarni yangrayotgan musiqaga qiziqtirishga, shaxsiy taassurotlarini namoyon qilishga, musiqiy faoliyatning har xil turlariga faol qatnashishiga yo'naltira bilish;

- bolalarning musiqiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda "qayta aloqa"ni aniq rejalashtirish;

- o'quvchilarni mustaqil xulosalash va umumlashtirishga tayyorlash.

6. Tashkilotchilik komponenti.

Ushbu komponent bo'lajak musiqa o'qituvchisining bir maqsadga yo'naltirilgan harakati bilan musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va tashkil qilishni ko'zda tutadi. Bu o'qituvchining maktabdagi "Musika" mashg'uloti va sinfdan tashqari ishlardagi o'quv mashg'ulotlarining materialini tanlash, musiqiy o'quv va tarbiyaviy ishlarning turli xil shakllarini tashkil qilishdir. Musika mashg'uloti jarayonida o'zining va

o'quvchilarning harakatlarini rejalashtirish asosida bolalarni har xil faoliyat turlariga jalb qilish, har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash maqsadida musiqani shaxsga pedagogik ta'sir etuvchi vositaga aylantirish ko'zda tutiladi.

Buning uchun quyidagi bilimlar talab qilinadi:

- o'quvchilar musiqiy faoliyat turlarining asosiy shakllarini tashkil qilish;

- "Musika" dasturining mazmuni, uning nazariy asoslari, ditaktik tamoyillari va usullari;

- musika mashg'ulotlari, shuningdek sinfdan tashqari ishlarda foydalaniladigan asarlarning badiiy qiymati va tarbiyaviy ahamiyati;

- o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Pedagogik ko'nikmalar:

- musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishning eng samarali shakl va usullarini tanlash;

- musika mashg'ulotini loyihalash asosida darsning texnologik xaritasini tuzish, kerakli musika asarlarini tanlash, ««Musika ta'limi»» ning eng unumdor usullarini ko'llash;

- pedagogik vazifalarni aniq belgilash va vaqtida hal qilish;

- "Musika" dasturini o'zlashtirish bilan bog'liq kundalik va istiqbolli vazifalarni hal qilish uchun muammoli pedagogik vaziyatni vujudga keltirish hamda to'g'ri echish;

-sinf jamoasining umummusiqiy va ijrochilikdagi rivojlanish darajasini hisobga olgan holga, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini faol ko'rsatishlariga imkon tug'diruvchi eng maqsadga muvofiq musiqiy faoliyat turlarini tanlash;

- o'quvchilarning muhim musiqiy bilimlarini egallash va ularda ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan bog'liq harakatlarni tashkil qilish;

- o'quvchilarni mustaqil va to'g'ri xulosa chiqarishga undash;

- o'quvchilarning har xil ijrochilik faoliyatiga intilishlarini rag'batlantirish;

- o'quv jarayonida didaktik materiallarni to'g'ri taqsimlash va uni o'quvchilarga mantiqli tushuntirish;

- o'z vaqtida muammoli holatlarni tashkil qilish va uni hal qilishga o'quvchilarni yo'naltira bilish;

- savolni to'g'ri tuzish va uni o'quvchilar fikrining kerakli oqimiga qarab yo'naltirish;

- o'quvchilar aqliy va hissiy fikrlarini yuqori darajaga ko'tarish uchun turli xil musiqiy faoliyatlarni tashkil qilish va boshqarish;

- psixologik-pedagogik va musiqiy bilimlardan foydalanib, o'quvchilarning diqqat va tartib-intizomlarini boshqarish;

- dars jarayonida vaqtni to'g'ri taqsimlash;

- ta'limning texnik vositalaridan o'rinli foydalanish.

7. Muloqot qilish komponenti.

Bo'lajak musika o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyatining muloqot qilish prinsipi o'qituvchiga butun sinf jamoasi va xuddi shuningdek, alohida o'quvchi bilan o'quv-tarbiyaviy jarayondagi o'rnatilgan aniq munosabatni, o'qituvchining ota-onalar va jamoatchilik bilan o'zaro to'g'ri munosabat o'rnatishini o'z ichiga oladi.

Buning uchun quyidagi bilimlar zarur bo'ladi:

-sinf jamoasi bilan pedagogik aloqa o'rnatish uchun musika san'ati va undan foydalanishning o'ziga xos xususiyati;

Pedagogik ko'nikmalar:

- musika mashg'uloti jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashi va hayotning har xil ko'rinishlariga faol munosabatni shakllantirishga diqqat-e'tiborni qaratish;

- musiqani tushunish, ziyraklik, o'zaro ishonch munosabatida bo'lish, mehribonlikni tarbiyalaydigan san'at sifatida tashviq qilish;

- o'quvchilar qiziqish va ehtiyojlarini tushungan holda e'tiborni ularning badiiy didi shakllanishiga yo'naltirish;

- musiqiy uy vazifalari orqali ota-onalar bilan yaqin aloqada bo'lish;

Musiqa tarbiyaviy imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanib, musiqani idrok etish orqali o'quvchi o'rtasida do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro hurmat singari tuyg'ularni shakllantirish;

- o'quvchilarga so'zi, axloqi va xatti-xarakatlari bilan ijobiy ta'sir qilish;

- darsda o'quvchilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatish, o'zining musiqaga bo'lgan hissiy munosabatini hissiy-amaliy namoyon qilish;

- musiqa darsida zo'raki obro'dan foydalanmasdan o'quvchilarning musiqaga shaxsiy munosabatda bo'lish huquqi borligini hisobga olgan holda ular bilan teng huquqli suhbatdosh bo'lish.

8. Tadqiqotchilik komponenti

Ushbu komponent o'qituvchining amaliy faoliyatida eng samarali usuliy echimlardan to'g'ri foydalanishi, o'zining va boshqa o'qituvchilarning tajribalarini tahlil qilish va umumlashtirish, o'z pedagogik mahoratini takomillashtirishga yo'naltirilgan harakatlari bilan belgilanadi.

Buning uchun quyidagi bilimlar kerak bo'ladi:

- tadqiqotchilik ishining metodologik, nazariy va usuliy asoslari.

Pedagogik ko'nikmalar:

- musiqa darsi pedagogik jarayonini ko'rish;
- yangi musiqa asarlari ustida mustaqil ishlash, musiqiy ifoda vositalarini ajratish, kompozitor va musiqaning g'oyaviy-obrazlilik mazmunini tushunish; yangi musiqiy asarlar bilan o'zining eshitish tajribasini boyitish;
- sinfdan tashqari musiqiy-tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanish jarayonida musiqiy bilim, ko'nikmalarni ijodiy qo'llash;
- maktab o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini samarali o'zlashtirishlariga yordam beradigan usullarni aniqlash;
- mashg'ulotning borishida musiqa darsini tahlil qilish - o'zining va o'quvchilarning faoliyatlarini, uning natijalarini kuzatish va anglash, xulosa chiqarish;
- o'quvchilarning bilimlarini maqsadga muvofiq tarzda aniqlash, ya'ni bolalarning har bir ta'lim bosqichlaridagi musiqiy madaniyat darajasi, musiqiy-estetik idrok etishga tayyorgarligini bilish;
- asl manbalar, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, bolalar bilan birgalikdagi faoliyatida foydalanish uchun musiqiy axborotlarni qayta ishlash;
- har bir o'qituvchining musiqiy qobiliyati darajasi va individual imkoniyatlarini oldindan aytib berish;

9. Tahliliy-umumlashtiruvchi komponenti

O'qituvchi musiqiy-pedagogik faoliyatining tahliliy-umumlashtiruvchi prinsipi o'quv-tarbiyaviy jarayon va uning qonuniyatlarini tushunib etishga hamda uning natijalarini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Bu prinsipining asosini ijtimoiy rivojlangan inson faoliyatining shakli bo'lgan o'qituvchi refleksiv ko'nikmasi tashkil etadi. Mo'ljallangan va erishilgan yutuqlarni solishtirish asosida musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayon va uning natijalarini tahlil qilish ko'nikmasi, o'qituvchida kuzatish va o'z-o'zini kuzatish, fikr yuritish, baholash va o'z o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlari yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Buning uchun quyidagi bilimlar kerak bo'ladi:

- maktab "Musiqqa" dasturi, musiqa ta'limi va tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari, uni tashkil etishning samarali shakl va usullari;

- musiqa darsining tuzulishi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Pedagogik ko'nikmalar:

- musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonni kuzatish va uning natijalarini umumlashtirish;
- o'quvchilar va o'z faoliyatini nazorat qilish hamda ulardan tegishli xulosalar chiqarish;
- o'z shaxsiy tajribasini anglash vato'plash;
- olingan natijalarni asoslash;
- musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonning eng qulay shart-sharoitlarini aniqlash;
- maktab o'quvchilarining musiqiy ta'lim va tarbiyasi, uni rivojlantirishning eng samarali usullari va yo'llarini tanlash;
- keyingi o'z musiqiy-pedagogik faoliyatini oqilona va maqsadga muvofiq tashkil qilish.

Bakalavriat talabalarini kasbiy-pedagogik tayyorgarlik komponentlarining shakllanganlik darajasi

1. O'z kasbiga bo'lgan munosabati.

Yuqori daraja. O'qituvchi o'zi tanlagan o'qituvchilik kasbi va musiqa san'atiga ijobiy munosabatda bo'lib, uni sevadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni va ahamiyatini chuqur anglab etgan. Bunda

musiqa o'qituvchisining rolini yaxshi tushunadi.

O'rtacha daraja. O'qituvchi o'zi tanlagan o'qituvchilik kasbi va musiqa san'atiga bo'lgan munosabati ijobiy xarakterga ega. O'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni va ahamiyatini qisman tushunadi. Bunda musiqa o'qituvchisining rolini to'laqonli anglab etmagan.

Quyi daraja. O'qituvchida musiqa san'ati va pedagogiklik kasbiga nisbatan ma'lum darajada ijobiy munosabat shakllangan, musiqaning jamiyatda va komil shaxsni tarbiyalashda tutgan o'rnini qisman tushunadi. O'quvchilarni ko'pincha musiqaning yuksak qadriyatlariga yo'naltira olmaydi.

2. Kasbiy bilimdonlik komponenti.

Yuqori daraja. Ilmiy bilish nazariyasining metodologik asoslariga hamda psixologik-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarning didaktik tamoyillariga suyanib, o'quvchilar aqliy faoliyatlarining uzluksiz rivojlanishini tashkil qiladi.

O'rtacha daraja. Ilmiy bilish nazariyasining metodologik asoslariga hamda psixologik-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarning didaktik tamoyillariga suyanib, o'quvchilar aqliy faoliyatlarining uzluksiz rivojlanishini deyarli har doim tashkil qiladi.

Quyi daraja. Ilmiy bilish nazariyasining metodologik asoslariga hamda psixologik-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarning didaktik tamoyillariga suyanib, o'quvchilar aqliy faoliyatlarining uzluksiz rivojlanishini etarlicha tashkil qilmaydi.

3. Hissiy-emotsional komponenti.

Yuqori daraja. O'qituvchi musiqa san'atining o'quvchi shaxsiga qanday ta'sir etishini aniqlay oladi va o'quvchilarning musiqaga munosabatini to'laligicha tavsiflaydi; o'quvchilarda hissiy madaniyatni rivojlantirish, musiqani idrok etish, kuyinchaklik, qiziqish va ishtiyoqni shakllantirishda kuchlarni bir joyga to'liq to'play oladi.

O'rtacha daraja. O'qituvchi musiqa san'atining o'quvchi shaxsiga ta'sirini ba'zida aniqlay olmaydi va o'quvchilarning musiqaga munosabatini to'laligicha tavsiflamaydi; o'quvchilarda hissiy madaniyatni rivojlantirish, musiqani idrok etish, kuyinchaklik, qiziqish va ishtiyoqni shakllantirishda kuchlarni bir

joyga to'laligicha to'play olmaydi.

Quyi daraja. O'qituvchi san'atning o'quvchi shaxsiga ta'sirini ko'pincha aniqlay olmaydi va o'quvchilarning musiqaga munosabatini tavsiflamaydi; o'quvchilarda hissiy madaniyatni rivojlantirishda musiqani idrok etish, kuyinchaklik, qiziqish va ishtiyoqni shakllantirishda kuchlarni bir joyga jam qila olmaydi.

4. Axborot berish komponenti.

Yuqori daraja. O'qituvchining axborot berish ko'nikmasi o'quvchilarni musiqa haqidagi bilimlar bilan qurollashtirish, musiqa san'atining rivojlanish tarixini bilishga asoslanib, ularda estetik idealni shakllantirishni amalga oshiradi. Bu ko'nikma musiqa dasturi materialini erkin va chuqur egallashga tayanadi.

O'rtacha daraja. O'qituvchining axborot ko'nikmasi o'quvchilarni musiqa haqidagi bilimlar bilan qurollashtirish, musiqa san'atining rivojlanish tarixini bilishga asoslanib, ularda estetik idealni shakllantirishni har doim amalga oshirmaydi. Bu ko'nikma musiqa dasturi materialini erkin va chuqur egallashga har doim ham tayanmaydi.

Quyi daraja. O'qituvchining axborot ko'nikmasi kichik yoshdagi o'quvchilarni musiqa haqidagi bilimlar bilan qurollashtirish, musiqa san'atining rivojlanish tarixini bilishga asoslanib, ularda estetik idealni shakllantirishni ko'p hollarda amalga oshirmaydi. Bu ko'nikma musiqa dasturi materialini erkin va chuqur egallashga ko'pincha tayanmaydi.

5. Loyihalash komponenti.

Yuqori daraja. Loyihalash ko'nikmasi musiqiy-pedagogik faoliyatini loyihalashtirishga, o'quv-tarbiyaviy jarayondagi o'qituvchi va o'quvchilar harakatini rejalashtirishga yo'naltirilgan.

O'rtacha daraja. Yuqori daraja. Loyihalash ko'nikmasi musiqiy-pedagogik faoliyatini loyihalashtirishga, o'quv-tarbiyaviy jarayondagi o'qituvchi va o'quvchilar harakatini rejalashtirishga ba'o'zida yo'naltirilmagan.

Quyi daraja. Yuqori daraja. Loyihalash ko'nikmasi musiqiy-pedagogik faoliyatini loyihalashtirishga, o'quv-tarbiyaviy jarayondagi o'qituvchi va o'quvchilar harakatini rejalashtirishga ko'pincha yo'naltirilmagan.

6. Tashkilotchilik komponenti.

Yuqori daraja. Tashkilotchilik ko'nikmasi musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni eng samarali shakl va usullarini, kerakli musiqa asarini tanlaydi va musiqa ta'limining eng unumdor vositalarini qo'llaydi. Maktab "Musiqqa" dasturini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan umummusiqiy va ijrochilikdagi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'quvchilar musiqiy qobiliyatini faol ko'rsatishlariga imkon tug'diruvchi psixologik-pedagogik va musiqiy bilimlardan foydalanib, o'quvchilar aqliy va hissiy fikrlarini yuqori darajaga ko'taruvchi turli musiqiy faoliyatlarning tashkil qiladi.

O'rtacha daraja. Tashkilotchilik ko'nikmasi doim ham musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonda tashkil qilishning eng samarali shakl va usullarini kerakli musiqa asarlarini tanlamaydi va musiqa ta'limining eng unumdor usullarini qo'llamaydi. "Musiqqa" dasturini o'zlashtirish bilan bog'liq umummusiqiy va ijrochilikdagi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini imkon yaratuvchi psixologik-pedagogik va musiqiy bilimlardan foydalanib, o'quvchilar aqliy va hissiy fikrlarini yuqori daraja ko'taruvchi turli xil musiqiy faoliyatlarni har doim ham tashkil qilavermaydi.

Quyi daraja. Tashkilotchilik ko'nikmasi doim ham musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonda tashkil qilishning eng samarali shakl va usullarini kerakli musiqa asarlarini tanlamaydi va musiqa ta'limining eng unumdor usullarini qo'llamaydi. Sinfning "Musiqqa" dasturini o'zlashtirish bilan bog'liq umummusiqiy va ijrochilikdagi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini imkon yaratuvchi psixologik-pedagogik va musiqiy bilimlardan foydalanib, o'quvchilar aqliy va hissiy fikrlarini yuqori daraja ko'taruvchi turli xil musiqiy faoliyatlarni ko'pincha tashkil qilmaydi.

7. Muloqot komponenti.

Yuqori daraja. Muloqot ko'nikmasi o'qituvchining musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonida butun sinf jamoasi, xuddi shuningdek har bir o'quvchi bilan muayyan munosabat o'rnatishga bog'liq faoliyatini tavsiflaydi.

O'rtacha daraja. Muloqot ko'nikmasi o'qituvchining musiqiy

o'quv-tarbiyaviy jarayonida butun sinf jamoasi, xuddi shuningdek har bir o'quvchi bilan muayyan munosabat o'rnatishga bog'liq faoliyatini hamma vaqt ham tavsiflamaydi.

Quyi daraja. Muloqot ko'nikmasi o'qituvchining musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonida butun sinf jamoasi, xuddi shuningdek har bir o'quvchi bilan muayyan munosabat o'rnatishga bog'liq faoliyatini ko'pincha tavsiflamaydi.

8. Tadqiqotchilik komponenti

Yuqori daraja. Tadqiqotchilik ko'nikmasi pedagogik tarbiyani takomillashtiradi, o'z ishida boshqa o'qituvchilarning yutuqlarini tahlil qilish samarali usul va yo'llardan foydalanishda yordam beradi.

O'rtacha daraja. Tadqiqotchilik ko'nikmasi pedagogik tarbiyani takomillashtiradi, o'z ishida boshqa o'qituvchilarning yutuqlarini tahlil qilish samarali usul va yo'llardan foydalanishda etarlicha yordam beradi.

Quyi daraja. Tadqiqotchilik ko'nikmasi pedagogik tarbiyani takomillashtiradi, o'z ishida boshqa o'qituvchilarning yutuqlarini tahlil qilish samarali usul va yo'llardan foydalanishda ba'zida yordam beradi.

9. Tahliliy-umumlashtiruv komponenti.

Yuqori daraja. Tahliliy-umumlashtiruv ko'nikmasi musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonni kuzatish, nazorat qilish, natijalarni umumlashtirish va tegishli xulosa chiqarish; o'z shaxsiy tajribasini aniqlash va to'plash orqali keyingi faoliyatni oqilona va eng muvofiq tashkil qilishni ta'minlaydi.

O'rtacha daraja. Tahliliy-umumlashtiruv ko'nikmasi musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonni kuzatish, nazorat qilish, natijalarni umumlashtirish va tegishli xulosa chiqarish; o'z shaxsiy tajribasini aniqlash va to'plash orqali keyingi faoliyatni oqilona va eng muvofiq tashkil qilishni ta'minlaydi.

Quyi daraja. Tahliliy-umumlashtiruv ko'nikmasi musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonni kuzatish, nazorat qilish, natijalarni umumlashtirish va tegishli xulosa chiqarish; o'z shaxsiy tajribasini aniqlash va to'plash orqali keyingi faoliyatni oqilona hamda maqsadga muvofiq tashkil qilolmaydi.

"MUSIQA O'KITISH METODIKASI" FANIDAN TEST SAVOLLARI

Musiqa darsining strukturasi nimani bildiradi?	Metodika fanining kismilarini	Jamoa bo'lib kuylash boskichlarini	*"Musiqa madaniyati" darsining faoliyat turlari va kismilarini	Yillik mavzular bo'linishini.
O'yin metodi kaysi sinflarda ko'prok ko'llaniladi?	5-sinfda	*Boshlangich sinflarda	6-sinfda	7-sinfda.
Musiqa mos harakatlar kaysi sinflarda ko'prok ko'llaniladi?	*Boshlangich sinflarda.	O'rta sinflarda	YUkori sinflarda	Barcha sinflarda
Darsning aralash tipi deganda nimani tushuniladi?	Bir necha mavzular o'tiladi	Oldingi mavzular va yangi mavzular ustida ishlanadi, ko'p faoliyat turlari ko'llaniladi	*Faoliyat turlari almashtirilib turiladi.	YAngi mavzu o'tiladi.
Musiqa "tili" nimani anglatadi?	Nota yozuvini	Tovushlar oxangdorligini	*Musiqaviy ifoda vositalarini	Musiqa ijrosini
Musiqa darslarini rejalashtirish ma'lum izchillikka asoslanadimi? YA'ni : Tashkiliy, kaytarish, yangi mavzu, musiqa savodi, vokal -xor mashklari va xakoza.	*Xa albatta	Har doim emas	Yo'k	Vakt tejamiga
1-sinfda ko'shik kaday usulda o'rgatiladi?	Kupletma-kuplet	*O'kituvchi ijrosini kaytarish yo'li bilan	Matni o'kish va she'r bandini kuylash bilan	Takrorlash orkali.
O'rganilayotgan ko'shikning nota yozuvi kaday metod tarkibiga kiradi?	YOzma metod	Amaliy metod	*Ko'rgazmali metod	Metodikaga taallukli emas.

Musiqa kaday idrok etiladi?	*Tinglash va u xakdagi nazariy va amaliy bilimlar orkali	O'kituvchining suxbati, tushuntirish orkali	Darslikdagi o'kuv materiali asosida	Kuylash orkali
Vokal-xor malakalari necha turga bo'linadi?	5 ta turga	*6 ta turga	4 ta turga	2 ta turga
Xor bo'lib kuylash kaday uslubdagi kuylashga asoslanadi?	Ansambli bo'lib kuylash	Tekis va soz kuylash	*Vokal kuylash	Ko'p ovozda kuylash
Vokal-xor malakalarini asosini belgilovchi xolatlar katorini belgilang	Mashklar kuylash, auf takt, dinamika, nyuanslarni anik kuylash	Ovoz xosil kilish, ansambllik, intonatsiya, ovoz etikasi, xor bilan ishlash	Asar goyasini anglash, obrazga kirish, nazariy ma'lumotlar	*Kuylash xolati, ashulachilik nafasi, ovoz xosil kilish, sozlanish, talaffuz
Kuylashda o'tirish, turish, kaday xolatga muvofik keladi?	*Ko'shik kuylash xolati	Ovoz xosil kilish	Saxnada joylashish	Musiqa tinglash
Fizilogik nafas kaday bo'ladi?	*Bir tekis, bir maromda, osoyishta	Notekis, tovush kuchiga muvofik	Tez-tez, chukur nafas olish	Kishi jim turgan paytdagi nafasi
"Xususiy metod" nimani anglatadi?	O'kituvchining o'ziga xos metodi	*Bir fangagina xos metod	Bir mavzuni yoritishga xos metod	Xususiy metod bo'lmaydi
O'kuvchilarni diffirensial gruxlarga bo'lish kaysi metodga asoslanadi?	Takkoslash metodi.	*Musiqa o'kuvi bo'yicha bolalar bilan ishlash.	Amaliy ukitish metodi.	Xorni partiyalarga bulish.
Vokal-xor malakalari, nazariy tushunchalar, urganish, taxlil kilish kaysi metodga kiradi?	Ogzaki metod.	Suxbat metodi.	Xikoya metodi.	*Amaliy metod.
Asar janri, jonli va yozuvlardagi ijrolarini, farklash kaysi metodga kiradi?	Tushuntirish metodi.	Ogzaki metod.	*Takkoslash metodi.	Umumlashtiruvchi metodyu
Sozlanish deganda nimani tushunasiz?	*Anik soz, intonatsiya	Nutk talaffuzi	Eshitib kuylash	Boshkalarga ergashib kuylash

Ashulachilik apparati deganda kaysi organlar birligi tushuniladi?	Tomok, xikildok, ogiz, burun	Nafas, ovoz, nutk, eshituv.	*O'pka, traxiya, ogiz, burun.	Lab, til, tish, tanglay.
Ansabl kaday manoni bildiradi ?	CHolgu va ashulaning birligi	Bir necha ijrochilik birligi	*Bir jamoadagi ijrochilar uygunligi	Partiyalarni birgalikda kuysali
Malaka so'zi kaday ma'noni anglatadi ?	Tajriba, iktidor.	Tinimsiz mashklar.	Odat kunikma.	*Bilim va tushuncha.
Artikulyasiya apparati kaday vazifani bajaradi?	Nutk talaffuzini rivojlantiradi	*Tovushni jarangdorligini xosil kiladi.	Sof intonatsiyani xosil kiladi.	Tembr xosil kiladi.
Xususiy ansabl...	Har bir ovozni aloxida sozi.	*Bir partiyadagi ovozlari ansambli.	Ijrochilikni umumiy ansambli.	Sof, unison.
Unison kuylash ...	Bir xonandani kuylashi.	*Bir ovozda kuylash.	Jamoani birga kuylashi.	Solist' va xorni birgalikda kuylash.
Musiq o'kituvchisi bir soatlik darsda kaday kasbiy yo'nalishlar bo'yicha malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim ?	Darsni tashkil etuvchi, asarlarni ijrochisi va rejissyori .	CHolguchi, xonanda, jurnavoz.	Xor dirijyori, musiq nazariyachisi va amaliyotchisi.	*Xammasi tugri.
Musikiy tarbiyaning bosh maksadi ...	*O'kuvchilarda musiq madaniyatini tarbiyalash.	Musiq sa'natiga kiziktirish.	Musikiy faoliyat orkali badiiy-axlokii tarbiyalash.	O'kuvchilarni kuylashga o'rgatish.
Musikiy ta'lim dasturi kaysi davlat xujjat asosida ishlab chikildi ?	"Ta'lim tugrisida" gi konun asosida.	*"Davlat ta'lim standartlari" asosida.	"Oliy va urta maxsus ta'limni kayta tashkil etish tugrisida" konun asosida.	Musiq ta'limi - tarbiyasi konsepsiyasi asosida.
YAngi dasturni uziga xos xususiyati nimalardan iborat?	Musiq savodxonligini tarkib toptirish.	Musikiy konuniyatlar chukur urgatilishi lozim.	*Milliy musiq zamirida musikiy tarbiyani yulga kuysish.	Darsni turli faoliyatlar asosida tashkil kilish.

Musiq sa'natning kaday turi xisoblanadi?	*Tovushlar orkali vokelikni obrazli mohiyatini ochib beruvchi.	Go'zallikni badiiy musikii xis etish ko'nikmalarini tarbiyalovchi	Goyaviy emotsional mazmunga ega bo'lgan musikii san'at turi	Vokeylikni oxanglar vositasida ifodalovchi.
Musiq etikasi bu...	Musiq o'kitish uslubi, dars rejalari mavzulari xakidagi fan	*Musiq san'atining mohiyati, badiiy shakllari va uslublarini o'rgatadigan fan.	Musiq nazariyasi xakidagi fan.	Musikii tarbiyasini ommaviy shakllar va ularni boshkarish xakidagi fan.
Musiq darsining eng muxim xususiyati?	Har bir mavzuni yoritishda anik misollardan foydalanish.	*Mustakil repertuar tanlash imkonini beradi.	O'kituvchidan har bir darsga ijodiy yondoshishini talab kiladi	O'kuvchilarda ijodkorlikni rivojlantiradi.
Musiq o'kitishdagi eng muxim farkli xususiyatlardan biri...	*O'kituvchi musiqaning juda ko'p soxasidan bevosita xabardor bo'ladi va amaliyotda ko'llaydi.	Doimiy ravishda yangi asrlarni o'rganib boradi va darsda foydalanadi.	Ilmiy tadqiqot bilan doimiy shugullanishni takozo etadi.	O'kuvchilarni o'zlashtirishlarini nazorat kilib boradi.
Musiq kaday vosita orkali idrok etiladi?	Ko'rish bilan	Sezish bilan	*Tinglash bilan	Kuylash bilan
Darsning aralash tipi nimaning ifodalaydi?	Darsda barcha faoliyat turlarini ko'llaniladi	Darsda boshka fanlar bilan bogliklikni	*Dars tuzilishini ifodalaydi	O'tilgan darsni takrorlashni.
Boshlangich sinflarda dars faoliyati nechta bo'ladi?	3 ta-Xor bo'lib kuylash, musiq savodi, musiq tinglash	*5 ta- Xor bo'lib kuylash, musiq savodi, musiq tinglash, harakatlar bajarish, cholg asboblarda jo'r bo'lish	2 ta kuylash va tinglash	4 ta - Musiq tinglash, ko'shik kuylash, musiq savodi, musiqaga mos harakatlar bajarish.
O'rta sinflarda musiqaning asosiy faoliyati nechta turdan iborat?	*3ta-Xor bo'lib kuylash, musiq savodi, musiq tinglash	5ta- Xor bo'lib kuylash, musiq savodi	Musiq tinglash, harakatlar bajarish, cholg asboblarda jo'r bo'lish	2ta kuylash va tinglash

Boshlangich sinf o'kuvchilarining diqqat e'tibori kanday bo'ladi?	Rivojlangan	SHakllangan	*Noturgun	O'yinga moyil
Boshlangich sinflarda musikiy faoliyat turlarini nima qilish kerak?	Muntazam ko'llab	Maksadga muvofik ko'llab	*Maksadga muvofik almashtirib	Izchil ko'llamaslik lozim
Musiqalarlari har doim xam rejaga asosan shart emas?	Tuzilishi.	*Boshlanishi.	Tugallanishi.	O'kuv mavzuni o'rgatilishi.
"Musiqanazariyasi" kanlay fan?	Musiqanota savodxonligi xakida.	Musiqataxlii, ijrochiligi xakida.	*Musiqanazariyasi elemenlarini o'rgatuvchi.	Musiqadarslarini tashkil etish uslubiyatini.
Vokal-xor mashg'uloti bu ...	Mashklar kuylash.	Ovozni sozlash.	vozni kizitish.	*Yakka xolda, ansambl va xor bilan jamoa bo'lib kuylashga o'rgatish.
Davlat ta'lim standarti o'zida ...	Ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari, uni sifatini baxolash tartibini belgilaydi.	*Umumiy o'rta ta'limni mazmuni, moxiyati va o'kuv dasturini aks ettiradi.	O'kuv dasturi, darsliklar, ko'llanmalar va boshka xujjatlarni aks ettiradi.	Umumiy koidalarni aks ettiradi.
Musiqaga oid o'kuvchilar tayyorgarlik darajasiga ko'yiladigan talablar kaysi davlat xujjatida bayon etilgan?	*DTS va o'kuv dasturida.	Musiqamadaniyati o'kuv dasturida.	Musiqao'kitish uslubi predmedining maksad va vazifalarida.	Musiqadarsliklarida.
Musiqamadaniyati 1- sinf yil mavzusi kanday nomlanadi.	Biz yoktirgan kuy va ko'shiklar.	*Biz musiqani sevamiz.	Musiqali o'yinlar va ko'shiklar.	Kuylaymiz, raksga tushamiz.
O'zbekiston madxiyasi bilan 1- sinfda bolalar kaysi faoliyat turi orkali tanishadi?	Kuylash	Jo'r bo'lish.	*Tinglash.	Taxliliy suxbat.

Musiqaidroki necha xolatda amalga oshadi.	3 xolatda-tinglash, kuylash, ritmik jo'r bo'lish.	*2 xolatda-tinglash va biror kismini kuylash orkali.	2 xolatda - kuylash va musiqaijodi orkali.	3 xolatda-kuylash ritmik jo'r bo'lish va rakstushish orkali.
Musiqasavodi barcha faoliyatlarni.	Nazariya asoslarini o'rgatadi.	Nazariy taxlil kiladi.	Izchillikni ta'minlaydi.	*Birlashtiradi.
Raks va musiqali harakatlar.	*Ritm-usulini xis etish, darsni kizikarligini ta'minlaydi.	O'kuvchilarga raks elementlarini o'rgatadi.	O'kuvchilarni ijodkorlikka yo'naltiradi.	O'kuvchilarni ruxiy dam oldiradi.
Musiqaijodkorligi o'kuvchilarda.	Mustakil fikrlashga o'rgatadi.	Musikiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini shakillantiradi.	Jo'rnavozlikni shakillantiradi.	Raks harakatlarini topishga o'rgatadi.
1-sinf III-chorak mavzusi:	*Xushnavo cholgularimiz	Ijrochilik turlari.	Jo'rnavozlik, jo'rsozlik.	Yakkanavozlik.
2-sinf yil mavzusi:	Xalk cholgulari.	Xalk kuylari.	Folklor musiqasi.	*Ijrochilik turlari, musiqani ifoda vositalari.
Xor va orkestr xakida nechanchi sinfda tushuncha beriladi?	2-sinf, 3-chorakda.	3- sinf, 4-chorakda	*3- sinf, 2-chorakda.	4- sinfda.
Musiqaning tuzilishi xakida nechanchi sinfda ma'lumot beriladi?	1-sinf 1-chorak	2-sinf 2-chorak	* 3-sinf 3-chorak	5- sinfda
3-sinf 4-chorak mavzusi kanday nomlanadi?	*Oddiy musiqashakllari band va nakarot	Musiqaning tuzilishi	Musiqaijodkorligi	Musiqaning tuzilishi.
O'yin metodi kaysi sinflarda ko'prok ko'llaniladi?	Barcha sinflarda.	YUkori sinflarda	Savol noto'gri berilgan.	*Boshlangich sinflarda
Takkoslash metodi musiqadarslarida ko'llaniladimi?	Ko'llanilmaydi.	Bunday metod yo'k.	*Ko'llaniladi.	Savol noto'gri ko'yilgan.

Differensial guruxlarga bo'lish kaday metod tarkibiga kiradi?	Og'zaki metodlarga	Amaliy o'qitish metodlari	Takkoslash metodlariga	*Musiqqa o'quv bo'sh bolalar bilan ishlash metodi
Musiqqa o'quv bo'sh bolalar bilan ishlash kaday shaklda amalga oshiriladi?	Differensial (guruxga bo'lish) va yakka (individual) tarzda.	Bolaning individual kobilyatiga karab.	Ko'shimcha topshiriqlar bilan berish.	*Bolaning kizikish va xoxishiga karab.
Differensial bo'linish necha guruxdan iborat va kaysilar?	*3 guruxdan, kobilyatli bolalar, o'rtacha kobilyatli, musikiy kobilyati bo'sh bolalar guruxi.	2 guruxdan, nota o'quv yaxshi bo'lgan, yaxshi ovozga ega bo'lgan o'quvchilar gyuxi.	4 guruxdan, o'zgalarga tayanib kuylaydigan, mustakil eshitib kuylaydigan ovozi musiqaga tushmaydigan, ritmi xis kilmaydigan.	Differensial bo'linish o'quvchilarni xoxishiga karab bo'linadi.
Differensial guruxlar kaday joylashtiriladi?	1-gurux (kobilyatli), 2-gurux (kobilyati o'rtacha), 3-gurux (musikiy o'quvi bo'sh).	*3-gurux (musikiy o'quvi bo'sh), 2-gurux (kobilyati o'rtacha), 1-gurux (kobilyatli).	Joylashtirish o'qituvchining xoxishiga karab bo'ladi.	Joylashtirishni axamiyati yo'k.
Amaliy metod kaday ma'noni anglatadi?	*Barcha tushunchalar amaliy tarzda bo'lishini	Ijodiy mexnat	Bitta fan uslub	Tushuntirish.
Xor bo'lib kuylashda kaday malakalar xal etuvchi axamiyat kasb etadi?	Musikiy o'quv, xotirasi, ongliligi.	Nazariy bilimlar.	*Vakal xor malakasi	Ijodkorlik malakasi.
Kompazitorlik ijodi kaday tavsiflanadi?	Professional janrlarda ijod kiladi.	Maxsus soxada o'kigan bo'ladi.	Asarlar portituraga ega bo'ladi.	*Akademik yo'nalishda ijod kiladi.
Vakal-xor malakalarini ifodalovchi kismalar to'g'ri yozilgan javobni aniklang?	Ansambli'ni xis etish, soz, ovoz diopazoni, nafas, tovush yo'nalishi.	Nafas, artikulyasiya, intanatsiya, ritmi xis etish.	Kuylash xolati, nafas, nota o'quvi, xotira	*Kuylash xolati, nafas, ovoz xosil kilish, sozlanish, ansambli', tallafuz.

Ko'shik kuylash xolati nimani nazarda tutadi?	*Darsda o'quvchilarni o'tirish va turish xolati	Kuylayotganda ogizni ochish xolati.	Tovush xosil kilish va uni ishlatis.	Tovush yo'llashni.
Kuylashdagi nafasning o'ziga xosligi nimada ko'riladi?	*Nafas ko'shik jumlasini cho'zimi, sur'ati va harakatiga ko'ra bo'ladi.	Nafas bir teks bo'ladi.	Kuylanayotgan ko'shik, retniga karab mos bo'ladi.	O'zgaruvchanligi da.
